R.X. KARLIBAYEVA,
M.M. TASHXODJAYEV, Z.A. ASHUROV

ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI

Toshkent – 2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

R.X. Karlibayeva, M.M. Tashxodjayev, Z.A. Ashurov

ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5230100 – «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)», 5230100 – «Iqtisodiyot (infratuzilma)» bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti
Toshkent – 2014

65.9(5Y)
K 238

UO'K: 330.111.2(075)
KBK: 65.011.3
K 24

Karlibayeva R.X.

K 24 Ishlab chiqarish infratuzilmasi: darslik / R.X. Karlibayeva, M.M. Tashxodjayev, Z.A. Ashurov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. – 160 b.

UO'K: 330.111.2(075)
KBK: 65.011.3

Taqrizchilar:
N. Rasulov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.
O. Mamanazarov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur darslik ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasi bo'yicha o'ziga xos yagona darslik hisoblanib, u O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'quv standartlari asosida tayyorlangan.

Darslik «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» o'quv kursining namunaviy o'quv dasturiga to'la mos keladigan va uni to'laligicha ifodalaydigan, o'zlashtirish uchun oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Har bir bobning so'ngida talabalarning mustaqil ishlashlari uchun nazorat savollari berilgan.

Ushbu darslik «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)», «Iqtisodiyot (infratuzilma)» yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar hamda boshqa ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasi qiziquvchilariga mo'ljallangan.

ISBN: 978-9943-391-79-6

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

KIRISH

Iqtisodiyotning barqaror hamda jadal taraqqiy topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublika mintaqalarining tabiiy hamda iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va aholining, ayniqsa yoshlarning bandligini, odamlarning daromadlarini oshirish va farovonligini yuksaltirishda zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida muammolar kuchayganligiga va uning o'sish sur'atlari sekinlashganligiga qaramay, mamlakatni iqtisodiy isloh qilish va modernizatsiyalashning chuqur o'ylangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturi tizimli va izchil amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «...iqtisodiyotni izchil isloh qilish, diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgartirishni chuqurlashtirish, yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektlarini rivojlantirish, mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish hisobiga xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng miqyosli ishlarni amalga oshirish, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini faol amalga oshirishni davom ettirish, qulay investitsiyaviy hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish kelgusi yilda ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi[1]».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrdagi PQ-1446-sonli «2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi qarori va 2009-yil 20-yanvardagi «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan

[1] I.A. Karimov 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. 18.01.2014

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI

qo‘shimcha chora-tadbirlar» to‘g‘risidagi PQ-1041-sonli qarori, 2013-yil 12-iyuldagi «2013—2015-yillarda Toshkent viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi hamda 2013-yil 6-avgustdagi «2013—2015-yillarda Toshkent viloyati yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari respublika aholisi turmushining yanada obod bo‘lishi, viloyat iqtisodiyotining yuksalishi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi sohaga resurslarni optimal akkumulyatsiya qilish va ulardan xo‘jalik faoliyati mahsulotlarini yaratish va uning uchun shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, iqtisodiy tizimning mavjud bo‘lishi va takror ishlab chiqarishi uchun, shuningdek, uning rivojlanishi uchun ham bevosita va majburiy shartlaridan biri sanaladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiy tizimga tizim osti bo‘lishiga qaramasdan ushbu tizim osti xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro ta’sir jarayonida vujudga keladi, infratuzilmalarsiz ular bir tomondan, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni amalga oshira olmasa, boshqa tomondan esa ma’lum qayta ishlab chiqish jarayoniga ahamiyatli darajada kuchli ta’sir ko‘rsata olish imkoniyatiga ega emas.

Mamlakatni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, eng avvalo ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish va kengaytirish, yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, tarkibiy qayta o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari faoliyatini diversifikatsiyalash, shuningdek, aholi bandligini, hayot darajasi va sifatini izchil oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

1-BOB. «ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI» FANINING MAZMUNI VA AHAMIYATI

1.1. «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» fanining mazmuni

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad iqtisodiyotning eng muhim bo'g'ini bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini yanada samarali faoliyat yuritishida infratuzilmani shakllantirish uchun chuqur bilim va ilmga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Bu fanning asosiy vazifasi davlat tomonidan ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan ham belgilanadi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

– ishlab chiqarish infratuzilmalarining iqtisodiy mohiyati va ularni rivojlantirish, ishlab chiqarish infratuzilma subyektlari va ularning vazifasi, holati hamda rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilashda mustaqil fikrlash;

– ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikma berish;

– mamlakat va uning mintaqalarida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari va ulardan samarali foydalanish;

– ishlab chiqarish korxonalarida ro'y berayotgan fan-texnika taraqqiyotining ahamiyati va mohiyatini ochib berish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati, raqobatbardoshligini ta'minlash, korxona foydasini maksimallashtirishga bevosita ta'sir etadigan infratuzilmani rivojlantirishga oid bilim va ko'nikma berish.

Shu bilan birga, bu fanning vazifasi ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlangan xorijiy davlatlarda qanday tashkil etilganligi va ular bilan o'zaro iqtisodiy integratsiyani ta'minlash vazifasini tushuntirib berishdan ham iborat.

Milliy iqtisodiyotning asosiy o'zagini tashkil etuvchi ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirish, ishlab chiqarila-

yotgan mahsulotlarning sifati, raqobatbardoshligini ta'minlash, korxona foydasini maksimallashtirishda muhim o'rin tutuvchi infratuzilmalarning iqtisodiy mazmuni «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» kursining tarkibiy qismlarini tashkil qiladi.

1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etishning ahamiyati

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiyalash jarayonlari yildan-yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liq ekani haqida gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman»[1].

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan muhim ishlar sirasiga ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ko'plab amaliy tadbirlarni kiritish mumkin. Ayni sohani yanada rivojlantirish masalasi so'nggi yillarning muhim vazifalari safiga kiritilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» kursini o'qitishda asosiy maqsad qilib, bugungi kun talablari doirasida talabalarga ishlab chiqarish infratuzilmasining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning roli hamda uni yanada rivojlantirish-

[1] I.A. Karimov. «Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish»: 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2013-yil 19-yanvar, №13.

ning nazariy-huquqiy asoslarini o'rgatish qo'yilgan. Bu kursning o'qitilishi orqali talaba ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishda infratuzilmaning zarurligi to'g'risidagi bilimlar bilan tanishadi. Mazkur kurs ularga ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy qonunlari, hodisa va jarayonlarining mohiyatini chuqur va har tomonlama tushunishda zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni o'zlashtirishda ahamiyatli yordam beradi.

Infratuzilma – bu har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lish sharti hisoblangan tarkibiy qismidir. So'zma-so'z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir.

«Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» – quyi, osti; «structura» – tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan. «Infratuzilma» atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, bu tushunchani turlicha talqin qilish hollari uchrab turadi. Bir guruh olimlar infratuzilmaning funksiyasini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishda deb qarab, uni xizmat ko'rsatishning yaxlit tizimi sifatida belgilaydilar.

Iqtisodiyotning infratuzilmaga oid unsurlari iqtisodiyot tomonidan infratuzilmaning zimmasiga yuklatilgan o'ziga xos vazifalarning hosilasi hisoblanadi. Bu vazifalar vaqt o'tishi bilan o'zgarib hamda asosiy ishlab chiqarish vazifalaridan tobora alohidalashib boradi. Shunga ko'ra, infratuzilmaning mohiyatini aniqlashda uning dastlabki belgisi bo'lib ishlab chiqarishni zarur shart-sharoit bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan vazifasi maydonga tushmog'i lozim. Zero, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Infrastruktura kompleksi – iqtisodiyotimizning butun tarkibi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo'jalik kompleksi ishining uyg'unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyati butunlay infrastruktura tizimi rivojining holatiga va darajasiga bog'liqdir»[1].

[1] I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995, 240-b.



1-chizma. Ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi, asosiy vazifa va tamoyillari

Sh. Shodmanovning fikricha[1], ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkiban moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchiga yetkazishga tayyorlash, saqlash, o'rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o'raladigan idishlar bilan ta'minlash, tashish, ta'mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko'rsatuvchi, ularning

[1] Sh. Shodmanov va boshqalar. «Bozor infratuzilmasi». – T.: TDIU. 2003. 6-b.

to‘xtovsiz va samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi tashkilot va korxonalar majmuini tashkil etadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning tarkibiga kiruvchi tuzilmalar ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydi, balki takror ishlab chiqarishning muntazam va bir maromda kechishi uchun faqat bilvosita asosda zaruriy shart-sharoitlar yaratib beradi.

Shuningdek, infratuzilmaning funksional xususiyati quyidagilar hisoblanadi:

– ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarida sarflangan mehnat unumli hisoblanadi, u milliy daromadning qiymatini ko‘paytiradi;

– ishlab chiqarish infratuzilma tarmoqlarida mahsulot yangi moddiy-ashyoviy shaklda yaratiladi;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmog‘i mahsulotini zaxirada saqlash yoki omborga olish mumkin emas, chunki u tashish, saqlash va axborotni uzatish shaklida namoyon bo‘ladi;

– ishlab chiqarish infratuzilmasini yordamchi, va ayniqsa, ikkinchi darajali soha sifatida tavsiflash mumkin emas.

Infratuzilmaning vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– bozor munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining amalga oshirilishini yengillashtirish;

– infratuzilma subyektlarining o‘z foydasini yuqori darajaga yetkazish maqsadida bozor ishtirokchilari xarajatlarini minimallashtirish;

– iqtisodiyotning alohida subyektlari va faoliyat turlarining ixtisoslashuvi asosida bozor munosabatlari subyektlari ishining tezkorligi va samaradorligini oshirish;

– bozorda tarkib topgan konyunkturadan kelib chiqqan holda mahsulot tayyorlashga bo‘lgan buyurtmalarni ko‘paytirgan yoki kamaytirgan holda ishlab chiqarish uchun bozor talabi indikatori vazifasini bajarish;

– bozor munosabatlarini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirish;

Infratuzilmaning sanab o'tilgan vazifalarining bajarilishi muayyan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy tizimning tarkibiy tuzilishi, infratuzilma unsurlarining harakat doirasi uchun sharoitlarning yetarliligi, bozor mexanizmiga to'sqinlik qiluvchi omillarning mavjudligi kabi holatlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, iqtisodiyotda ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish jarayoni samarali bo'lishi uchun u quyidagi sifatlarga ega bo'lmog'i lozim:

Harakatchanlik. Iqtisodiyotning barcha jabhalari singari ishlab chiqarish infratuzilmasida ham resurslarning sarflanishi erkinlik va raqobat kurashi ta'sirida yuqori harakatchanlik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa ishlab chiqarishga yo'naltirilgan resurslarni bir joydan yanada samarali foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa joyga safarbar etish imkoniyati orqali baholanadi.

Bozorning barcha ishtirokchilari uchun foydalanish imkoniyati. Ishlab chiqarish infratuzilmasi unsurlarining tarkib topishi tabiiy ravishda – ehtiyoj va imkoniyatlar asosida olib borishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ma'lum maqsadlarning belgilangan tamoyillarga ham muvofiq kelishi lozim. Ya'ni, ishlab chiqarish infratuzilmasi mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishi, joylashgan manzilidan qat'i nazar, mijozlarni o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlar bilan ta'minlashi lozim.

Moslashuvchanlik. Ishlab chiqarish infratuzilma bo'g'inlari iqtisodiy konyunktura, talab va taklif, raqobat darajasi va boshqa jarayonlarning holatidan kelib chiqqan holda o'zaro birlashish, ajralish, o'ziga yangi vazifalarni qabul qilish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Ishonchlilik. Ishlab chiqarish infratuzilma subyektlari ahamiyatini oshirishga shartnoma va bitimlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni qat'i belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash orqali erishish lozim.

Barqarorlik. Ishlab chiqarish infratuzilmasining eng «nozik» tomoni – uning barqarorligining asosiy tarmoq va sohalar barqa-

rorlik darajasiga bog'liqligidir. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlarida talab va taklif sharoitida ishlash uchun zaxiralarning mavjudligi taqozo etiladi.

Har bir bo'g'inning ishida ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti hisobiga erishiluvchi samaradorlik. Aynan ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari uchun faoliyat yo'nalishlarining serqirraligi, yuqori darajadagi diversifikatsiya emas, balki ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti tavsifli hisoblanadi.

O'zini-o'zi tartiblash. Korxona belgilagan narx va uning chakana narxi o'rtasidagi farq hisobiga tashkil topuvchi, cheklangan daromadlar doirasida amal qilib, muntazam ravishda bozorga moslashib turishga undovchi o'zini-o'zi tartiblash ishlab chiqarish infratuzilmasining harakat mexanizmi hisoblanadi.

Ichki raqobatning mavjudligi. Iqtisodiyotning barcha jabhalari singari ishlab chiqarish infratuzilmasida ham uni kuchsizlantiruvchi, ishlab chiqarishni sekinlashtiruvchi omil – yakkahukmronlik hisoblanadi. Shunga ko'ra, yakkahukmronlikning vujudga kelishi va rivojlanishiga qarshi kurashuvchi turli bo'g'inlar o'rtasidagi ichki raqobatning mavjudligi ishlab chiqarish subyektlari faoliyati samaradorligining asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish uning tarkibiy qismlarini aniqlash va rivojlanish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» fanining mazmuni, maqsadi va asosiy vazifalari nimada?
2. «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» fanining mohiyatini yoriting.
3. Ishlab chiqarishda infratuzilmaning ahamiyati va tashkil etish zarurligini gapirib bering.

2-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNING ZARURLIGI

2.1. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi

Milliy iqtisodiyot bu ma'lum bir davlat hududida tarixan tashkil topgan, maqsad va mehnat taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar yig'indisidir.

Yagona tizim sifatida milliy iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan munosabatlar, ya'ni boshqaruv tizimi, umumiqtisodiy infratuzilma va mustaqil qonunchilikka ega bo'lgan mustaqil davlatchilikni taqozo qiladi. Milliy iqtisodiyotga turlicha yondashuvlar mavjud:

Milliy iqtisodiyot bu tarmoqlar xususiyatini birlashtirgan, mujassamlashtirgan majmua hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot bu mamlakat xo'jaligi, uning tarkibi hamda ayrim elementlarini o'zaro bog'liqligidir.

Milliy iqtisodiyot iqtisodiy faoliyat natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Iqtisodiy faoliyat – bu moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish, xizmatlar ko'rsatish, iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlardir.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

1. Maqsadli dasturlarni amalga oshirish.
2. Infratuzilmani shakllantirish (suv, gaz, elektroenergiya, transport va boshqalar).
3. Sanoat sohasida yangi korxonalar tashkil etish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish.
4. Mahalliy xomashyoni qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish.
5. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash.

6. Xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va ular bilan bozorni to'la qondirish.

7. Qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish.

8. Sanoatni rivojlantirishda bank kreditlari ta'sirchanligini oshirish.

9. Sanoatni rivojlantirishda qo'shma korxonalarning ulushini oshirish.

10. Mahalliy xomashyoni qayta ishlash.

11. Mahalliylashtirish dasturi va Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferensiyalardan keng foydalanish.

12. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ko'lamini kengaytirish, kichik korxonalar mahsulotlarini eksportga yo'naltirishga ko'maklashish.

Iqtisodiy faoliyatni o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanganlik darajasi, investitsion va innovatsion siyosatning rivojlanishi hamda umummilliy ko'rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlat ma'lum bir soha yoki umuman iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli rivojlantirishning u yoki bu sharoitlarini yaratadi. Bu o'z navbatida mamlakatning jahon iqtisodiyotida ma'lum o'rin egallashida katta ahamiyat kasb etadi.

2.2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarishning zarurligi

O'zbekiston milliy iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sohasiga hozirgi kunda alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu sohaning eng asosiy tarmog'i sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va kommunikatsiya hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va unga sharoit yaratish lozim.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkiban moddiy iste'mol tovarlar, buyumlar va noz-ne'mat mahsulotlari yaratuvchi tar-

moq va korxonalarga tayyorlash, saqlash, o'rash, qadoqlash yoki joylashtirish, ta'minot va ta'mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko'rsatuvchi va ularning to'xtovsiz faoliyat yurgizishini ta'minlovchi tashkilot va korxonalar majmuasini tashkil etadi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

1. Bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslari va ijtimoiy muhitni yaratish.
2. Mulk daxlsizligini ta'minlash.
3. Raqobat halolligini saqlash va uni himoya qilish.
4. Daromad va milliy boyliklarni taqsimlash va qayta taqsimlash.
5. Milliy mahsulot tarkibini yaxshilash maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash.
6. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ish bilan ta'minlash, inflyatsiya jarayonlarini nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.
7. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'tish davrining xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli chora-tadbirlar, xususan aholining ma'lum bir tabaqalarini ijtimoiy himoyalashni ta'minlash.
8. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlarining uzviyligini ta'minlash.
9. Respublika aholisining tarkibiy o'sish sur'atlari va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi ish joylarini tashkil etish, aholini ish bilan ta'minlash, mehnat birjalari va mehnat bozorlarini tashkil etish. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.
10. Iste'mol bozorining himoyasini tashkil etish.
11. Milliy pul birligi kursining qat'iyligini ta'minlash va boshqalar.

Quyidagi diagramma ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasida 2007–2012-yillarda YIMning o'sish dinamikasi kelti-

rib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2007-yili uning o'sishi 9,5%ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yili o'tgan yilga nisbatan 8,2% ga o'sganligini ko'ramiz.

1-diagramma

O'zbekistonda YIMning o'sish sur'atlari[1]



1-diagramma ma'lumotlarida sanoatning o'sish ko'rsatkichlaridan ko'rish mumkinki, 2007-yili 6,1%ni, 2008-yili jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida 12,7%ni, 2009-yili 9%ni, 2010-yili 8,3%ni, 2011-yili 6,6%ni va 2012-yili o'tgan yilga nisbatan 7,7%ni tashkil etgan.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlari faoliyatini rivojlantirish orqali uning YIMdagi ulushini ko'paytirishga erishish mumkin. Bu esa, respublikamizda ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi va samarali rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – hukumatimiz yagona iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismiga aylanishini yana bir bor asoslaydi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2-diagramma

Mamlakatimizdagi sanoat mahsulotining o'sish sur'atlari hajmi[1]



Ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish sohasida davlat va banklar, fondlar, investitsiyalash va sug'urtalash tuzilmalarining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Asosiy e'tibor kredit uchun kafolatlar tizimini shakllantirish va ishlab chiqarish faoliyati xavf-xatarini sug'urtalashga, ishlab chiqarish korxonalari uchun kreditlar bo'yicha minimal kvotalarni o'rnatishga, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy institutlarni tashkil etishga, faoliyatning mazkur sohasining rivojlanishiga imkon beruvchi banklarda imtiyozlar tizimini o'rnatishga qaratiladi.

Quyidagi 2-diagrammada mamlakatimizdagi sanoat mahsulotining o'sish sur'atlari hajmini ko'rishimiz mumkin. Diagramma ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida, mamlakatimizda sanoat mahsulotlarining o'sish sur'atlarini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 2000-yilda uning o'sishi o'tgan yilga nisbatan 12,7%ni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yili 6,6%ni tashkil etganligini ko'ramiz. YIMda sanoatning ulushi 2000-yilda 6,1% bo'lgan va 2011-yili 6,6%ni tashkil etgan.

[1] O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Bu esa, o‘z navbatida ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish hamda ularni tartibga solish xususiyatlarini o‘rganish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xo‘jalik yuritish tizimi sifatida bir tomondan davlat va iqtisodiyotning barcha bozor infratuzilmalari, xususan, mahalliy hokimiyat organlari bilan, boshqa tomondan aholining turmush darajasini oshirish va foydali mehnat bilan bandlikni ta’minlash hamda budjet daromadlarini shakllantirish lozim hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda birinchi o‘ringa ishlab chiqarish jarayonida uning subyektlari ularning o‘z majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida ta’minlash maqsadida barqaror iqtisodiy holatni ta’minlashda rejalashtirilgan strategik ishlarni amalga oshirish uchun maydonga chiqadi.

2.3. Ishlab chiqarishni rivojlantirish tamoyillari

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning tamoyillari bu faoliyat yuritish, xalq farovonligini ta’minlashning asosiy qoidasi va ishlab chiqarishda samarali olib borishga asoslaniladigan yo‘l-yo‘riq, xulq me’yorlari tushuniladi. Ishlab chiqarishning tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishda kelishuvchilik tamoyili. Ushbu tamoyil bevosita ishlab chiqarishda ta’sischilar, mulkdorlar, investorlar o‘rtasidagi ma’lum faoliyat turini rejalashtirish va belgilangan tartib qoida va me’yorlarga bo‘ysunishi lozim. Bu tamoyilni amalga oshirishning asosiy sharti har bir ishlab chiqarishda ishtirok etuvchining huquq, burch, majburiyatlarini qat’iy belgilab qo‘yishdan iboratdir.

2. Rejalilik tamoyili. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarishni rejali boshqarish – biznes va strategik rejasini tuzish – korxonada ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish siyosatini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bu tamoyil ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo‘ljallangan yo‘nalishlari, sur’atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 47322

3. Javobgarlik tamoyili. Ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari huquqiy va iqtisodiy qonunlar, korxona nizomi asosida davlat va ishlab chiqarish subyekti hujjatlari asosida korxona aktivlari uchun javobgarlikni his etishi lozim. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning strategik o'sishini, u yoki bu tarmoq rivojlanishining maqbul nisbatlarini, eng muhimi resurslardan samarali foydalanish javobgarligini sezgan holda ishlab chiqarishning amalga oshirilishi korxonaning iqtisodiy rivojlanish parametrlarining o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi yoki ushbu faoliyatni amalga oshiruvchilar rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, yo'qotish va boshqalar bo'yicha mulkdorlar, investorlar va davlat organlari oldida javobgar bo'ladi. Kuchli raqobat sharoitida mulkdor sinmasligi uchun doimo o'z bilimlarini ko'paytirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib, ya'ni ishlab chiqarish jarayoniga va ishchilarga ta'sir etish yo'llarini bozorda mavjud holatga mos ravishda o'zgartirib borishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Milliy iqtisodiyot va uni rivojlantirishning zaruriyatini gapirib bering.
2. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida ishlab chiqarishning roli nimada deb o'ylaysiz?
3. Ishlab chiqarish tarkibi va ularni rivojlantirish to'g'risida nima deya olasiz?

3-BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINING XUSUSIYATLARI VA SHAKLLARI

3.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi xususiyatlari

Infratuzilma — bu har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lish sharti hisoblangan tarkibiy qismidir. So'zma-so'z ifodalaganda, infratuzilma — bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi ma'nolarini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy mohiyati «ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish», «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash» kabi vazifalarni bajarish bilan belgilanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi juda ko'plab omil va xususiyatlarni, jumladan, respublikamizning geosiyosiy va geostrategik holati, iqtisodiy tizimni bosqichma-bosqich isloh qilish, davlatning faol belgilovchi roli, islohotlarga qadar davrdagi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishidagi nomuvofiqliklar, kuchli ijtimoiy siyosat zarurligi kabilarni e'tiborga olgan holda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bozor mexanizmlarining samarali amal qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni, shu jumladan, ishlab chiqarish infratuzilmasining to'laqonli faoliyatini ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Keng tarmoqli infratuzilma — fond va ulgurji bozorlar, birjalar, kredit va moliya muassasalari, lizing va kolsanting kompaniyalari, tadbirkorlarga xizmat qilishi lozim bo'lgan boshqa tuzilmalar tom ma'noda shakllantirilmas ekan, ular to'la kuch bilan ishlamas ekan, iqtisodiyotimizni ochiq, erkin, eng muhimi, samarali, qisqa qilib aytganda, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga aylantira olmaymiz»[1].

---

[1] I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, 12.11.2010-y. Xalq so'zi. Noyabr.

«Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» – quyi, osti, «structura» – tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan. «Infratuzilma» atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, bu tushunchani turlicha talqin qilish hollari uchrab turadi. Bir guruh olimlar infratuzilmaning funksiyasini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishda deb qarab, uni xizmat ko'rsatishning yaxlit tizimi sifatida belgilaydi.

Shuningdek, ba'zilar «infratuzilmani» insonni hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarishda xizmatlar, ishlab chiqarishdagi o'ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi»[1], «moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatuvchi, xalq xo'jaligida iqtisodiy aylanishni ta'minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaruvchi, atrof-muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud xalq xo'jaligining tarmoqlari va tarmoq ichi sohalari yig'indisi» sifatida ta'riflasa[2], ba'zilar infratuzilmaning ahamiyatini «ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish», «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash» orqali belgilab, u orqali faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish tizimini tushunadi.

«Moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatuvchi, milliy iqtisodiyotda iqtisodiy aylanishni ta'minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaruvchi, atrof-muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoq ichi sohalari yig'indisi» sifatida ta'riflasalar[3], ba'zilar infratuzilmaning ahamiyatini «ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish», «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash» orqali belgilab, u orqali faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish tizimini tushunadilar.

---

[1] Стаханов В.И. Экономика инфраструктуры общественного производства. Учеб. пос. Ростов н\Д, 2008, стр. 6.

[2] Шарипов А.Й. Управление отраслями инфраструктуры в системе региона. – М., 2007, стр. 5.

[3] Шарипов А.Й. Экономическая сущность инфраструктуры. Управление отраслями инфраструктуры в системе региона. – М., 2008, стр 5.

R. Ioximsen infratuzilmani xo'jalik faoliyati darajasini oshiruvchi, hududlarda xo'jalik birligini tashkil etishga imkoniyat yaratuvchi bir xilda sarf qilgan xarajatlariga oladigan daromadlarini tenglashtiruvchi moddiy, shaxsiy va institutsional faoliyat turlari va ular tashkilotlarining yig'indisi sifatida talqin qiladi[1].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishda infratuzilmani rivojlantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bunday xususiyatlardan biri bo'lib infratuzilmaning samarali amal qilishini ta'minlashda davlatning alohida rolini zarurligi hisoblanadi. Chunki, bunday zaruriyat quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

– infratuzilma sohasidagi talab va taklifni tartibga solib turuvchi bozor mexanizmining samarali amal qilmasligi;

– infratuzilma obyektlari xizmatiga bo'lgan narxlar bo'yicha talabning elastik emasligi;

– infratuzilma xizmatlari bozorning notekis tarkibiy tuzilishi natijasida bozordagi muvozanatga erishishda davlat tomonidan aralashuvning zarurligi;

– infratuzilma sohasi faoliyatining rivojlanishi asosiy tarmoqning rivojlanish darajasiga bog'liqligi va boshqalar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlarini milliy masshtabda respublika va mahalliy infratuzilmalarga, hududlar bo'yicha ichki va tashqi ishlab chiqarish infratuzilmalariga bo'linadi.

Respublikamizda infratuzilmani shakllantirish borasida davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutildi:

– infratuzilmaning barcha subyektlari majmuasini shakllantirish;

– infratuzilma subyektlari o'rtasidagi bevosita xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish;

– infratuzilmaning barcha subyektlari faoliyatini atroflicha tashkil etish;

---

[1] Jochimsen R. Zheorie der Infrastruktur – Zubingen. Mohr, 2003, 51-b.

– infratuzilma unsurlarini rivojlantirib, yangilarini vujudga keltirish;

– iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi idoralarni barpo etish;

– bozor sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash.

Mamlakatimizda infratuzilma rivojlanishining xususiyatlaridan yana biri – bu uning alohida emas, balki iqtisodiyotda olib borilayotgan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishidir. Jumladan, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirishda davlat mulkini baholash, uni sotishga tayyorlash va sotish, yangi mulk egasiga berish, mulk egalari o'rtasidagi bitimlarni ro'yxatga olish, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishda salohiyatli mulk egalarini aniqlash, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajarish maqsadida ko'plab infratuzilma unsurlari barpo etildi. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha sohalari, ayniqsa infratuzilma tarkibiga kiruvchi bank, kredit, sug'urta tizimlari faoliyatining erkinlashtirilishi ham yangi tashkiliy tuzilmalarning shakllantirilishiga imkon yaratdi. Kichik va xususiy biznesni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, o'rta mulkdorlar sinfini qaror toptirishga bo'lgan e'tibor tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, ularning ish samarasini oshirishga ixtisoslashgan ko'plab tizimlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Har qanday ishlab chiqarish infratuzilmasi asosi boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyektlardan tashkil topadi.

Boshqariladigan va boshqaruvchi tizimlar o'rtasidagi aloqa ishlab chiqarish korxonalari bilan infratuzilmaning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini boshqarish 2 turda amalga oshiriladi:

- obyektlarni boshqarish orqali;
- subyektlarni boshqarish oqali.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlariga temiryo'l liniyalari, avtomobil yo'llari, vokzallar, ko'prik va tonellar, elektr uza-

tish liniyalari, ichimlik suvi tarmoqlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, telekommunikatsiya inshootlari, logistika markazlari, sug'urta kompaniyalari, fond birjalari, tijorat banklari, lizing kompaniyalari, kasaba uyushmalarini misol keltirishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlari (boshqaruvchilar)ga «O'zbekiston havo yo'llari» MAK, «O'zkommunxizmat» agentligi, «O'zbekenergo» DAK, «Uzavtoyo'l» DAK, «O'ztransgaz» AK; «O'zneftmahsulot» AK, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– ishlab chiqarish tarmoqlarini yoqilg'i, energiya va moddiy resurslar bilan ta'minlash;

– ishlab chiqarish komplekslarini mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar bilan ta'minlash;

– barcha turdagi informatsion oqimlardan foydalanishni ta'minlash.

Iqtisodiyotni liberallashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'p bo'g'inli infratuzilmani yaratishni talab qiladi. Infratuzilma turli xil vazifalarni bajaruvchi tarkibiy qismlar, unsurlardan iborat tizimini o'zida namoyon etadi. Shunga mos holda, infratuzilmaning tarkibiy qismlarini belgilab olish, ularning har birining ahamiyatini o'rganish, iqtisodiy tabiatini ochib berish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda infratuzilma tarkibini belgilash, mazkur tizimga kiruvchi unsurlarni ko'rsatib berishda ma'lum nomuvofiqliklar mavjud.

3.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'g'inlari

Infratuzilma majmuiga kiruvchi sohalar iqtisodiy jarayonlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida o'ziga xos o'rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan ham ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish obyektiv zarur hisoblanadi.

Chunki ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkiban moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchiga yetkazish, tayyorlash, saqlash, o'rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o'raladigan idishlar bilan ta'minlash, tashish, ta'mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko'rsatuvchi, ularning to'xtovsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi tashkilot va korxonalar majmuini tashkil etadi.

Milliy doiradagi ishlab chiqarish infratuzilmasining elementlariga yagona energetik, temiryo'l, avtomobil, truba o'tkazma yo'llar, suv va havo, aloqa tizimlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlangan va regressiv infratuzilmaga bo'lish mumkin. Bunday metodologik bo'linish rejalashtirish va bashorat qilish uchun zarur hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish infratuzilmasi turli xil bo'g'inlardan tashkil topgan. Unga infratuzilmaning subyektlari, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi moddiy mahsulotlar, ya'ni elektr energiya, gaz, suv bilan ta'minlash, aloqa va transport, moddiy ta'mirlash korxonalari nazarda tutiladi. Lekin moliyaviy mablag'larning yetishmasligi sababli IITKI ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlarining sekin rivojlanishiga olib kelmoqda. Bunga misol qilib, ishlab chiqarish konsaltingi, axborot xizmatlari, boshqacha qilib aytganda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishda axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish infratuzilmasining regressiv subyektlariga hozirgi davrda o'z faoliyati natijasida iqtisodiy samaradorlikka erisha olmayotgan korxonalarni kiritish mumkin. Bunga misol qilib, mashina traktor stansiyalari, transport xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va hokazolarni keltirish mumkin.

O'zbekiston davlatining xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga maqsadli kirib borishi va unda mustahkam o'rin egallashi ko'p jihatdan chet el sarmoyalarini samarali jalb etishga hamda jahon andozalari talablariga mos keluvchi infratuzilma muassasalarini rivojlantirishga bog'liqdir. Bozor sharoitida asosiy maqsad katta foyda olish yo'li bilan ishchi va xizmatchilarning mod-

diy va ma'naviy turmush darajasini ko'tarish maqsadida faoliyat ko'rsatadigan har bir xo'jalik yuritish subyekti, u yoki bu muammoni hal etishda infratuzilmaning qaysi muassasasi yoki tashkiloti bilan munosabatda bo'lishini aniq belgilashlari uning asosiy, vakolat va vazifalarini bilishlari muhim rol o'ynaydi.

Infratuzilmani rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ana shunda infratuzilma tashqi muhit o'zgarishlariga moslashib boradi va jamiyatdagi muammolarni hal qilib turadi. Masalan, bir vaqtning o'zida infratuzilma ishga qobiliyatli odamlarni ham, voyaga yetayotgan mehnatga yaroqli yoshlarni ham ish bilan ta'minlab boradi.

Infratuzilma ko'p variantli hisoblanadi, u qotib qolgan shaklda emas, balki harakatchan bo'ladi. Shuning uchun ham bizningcha investitsiyalashning xohlagan usuli, mulkning xohlagan shakli asosida uni rivojlantirish bo'yicha turli usullarni yaratish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan ham, ishlab chiqarish infratuzilma majmuasini, uning turlari va shakllarining muhim belgilari hamda xususiyatlarini tasniflash, alohida unsur va yo'nalishlarini o'rganish ishlab chiqarish jarayoni rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Shunga ko'ra, ilmiy manbalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi:

- transport;
- aloqa va kommunikatsiya;
- yoqilg'i-energetika;
- moliyaviy infratuzilma;
- kommunal xizmat ko'rsatish infratuzilmasi.

Tovarlar, ishchi kuchi hamda moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati hozirgi davrga kelib jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtirishga zamin yaratdi. Natijada iqtisodiyotning globallashuvi yuzaga keldi.

Bu esa milliy iqtisodiyot rivojlanishida ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirishni dolzarb masala-

ga aylantirdi. Natijada quyidagi infratuzilmalarni rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Ijtimoiy infratuzilma – funksional jihatdan aholining bir maromda yashashini ta'minlaydigan sohalar va korxonalar majmuasi.

Transport infratuzilmasi – transportning sohalar va korxonalar majmuasi.

Muhandislik infratuzilmasi – binolar va inshootlarning muhandislik-texnik ta'minoti tizimi.

Iqtisodiy infratuzilma – ishlab chiqarishga va umuman xo'jalik faoliyatga xizmat ko'rsatadigan sohalar va faoliyat turlari majmuasi.

Axborot infratuzilmasi – sohalarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan axborot tashkiliy tuzilmalar tizimi.

Moliyaviy infratuzilma – obyektlar va alohida inshootlarning tizimi.

Transport infratuzilmasi tizimning sohalar va korxonalar majmuasi bo'lib, yuk va yo'lovchilar tashishni va ularning amalga oshirilishini hamda ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Butun rivojlanishi insonlarning kommunikatsiyalarga va aloqa bog'lashga intilishi bilan ifodalanadi. Shuning uchun harakatlanish imkoniyatlari insoniyat rivojlanishi uchun o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Odamlar va tovarlar harakatlanishi transport funksiyalarini ijro etish orqali amalga oshadi. Uning rivojlanishi har bir hududning rivojlanish darajasini ifodalaydi. Ushbu qoida kichik qishloqlardan tortib, ulkan mintaqalarga ham taalluqlidir.

Muhandislik-texnik ta'minoti tarmoqlari (kommunikatsiyalari) iste'molchilarni (aholi, kommunal-maishiy va sanoat korxonalari) me'yoriy faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan tizimlar va kommunikatsiyalar majmuidir.

Muhandislik infratuzilmasi tizimi quyidagilardan iborat:

- elektr ta'minotining tashqi tarmoqlari (elektr uzatish tarmoqlari, transformatir va tortish pastki stansiyalari va hokazolar);

• elektr ta'minotining ichki tarmoqlari (kuchlanishi 380 V gacha bo'lgan uy-joylar tizimi);

• issiqlik ta'minotining tashqi tarmoqlari (shaharlar va dahalar issiqlik tizimlari, issiqlik punktlari);

• issiqlik ta'minotining ichki tarmoqlari (bino va inshootlarning issiq suv va issiqlik ta'minoti tarmoqlari);

• suv ta'minoti va suvni qochirishning tashqi tarmoqlari (suv ta'minoti manbalari, gidrotexnik inshootlar, suv va oqova suvlarini tozalash stansiyalari, kollektorlar, nasos stansiyalari, dahalarning ichki tarmoqlari);

• suv ta'minoti va suvni qochirishning ichki tarmoqlari (bino va inshootlarning suv ta'minoti va suvni qochirishning tarmoqlari);

• shamollatish va havoni konditsionerlash tizimlari (jamoat va turar-joy binolari hamda inshootlarini, muhandislik ta'minoti obyektlarini shamollatish va havoni konditsionerlash tizimlari);

• tashqi yoritish tarmoqlari (ko'chalarni, yo'llarni, vitrinalarni, stendlarni yoritish va ularga aloqador 10 kV va undan past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari);

• gaz ta'minoti tarmoqlari (gaz taqsimlash punktlari, bosimni maromlash moslamalari, filtrlar, saqlash klapanlari, hisoblagichlar, gaz uzatgichlar va hokazolar);

• tashqi aloqa tarmoqlari;

• ichki aloqa tarmoqlari (telefon tarmoqlari, kabellar tizimi, avtomatik dispetcherlik boshqaruvi tizimi va hokazo).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrdagi «2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi PK-1446-sonli qarori bilan 2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilangan:

• xorijiy va ichki moliyalashtirish manbalarini, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirish, qurilish va industrial ishlab chiqarish komplekslarini yangilash asosida transport kommunikatsiyalari, zamonaviy telekommunikatsiya tizim-

lari, muhandislik infratuzilmasi obyektlarini kompleks ravishda va ildam rivojlantirish hamda qurish;

• respublikaning barcha mintaqalarini puxta birlashtiradigan yagona milliy avtomobil transport tizimini yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, O'zbekiston milliy magistrali tarkibiga kiradigan, xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, zamonaviy sement-beton va asfalt-beton qoplamalar bilan ta'minlangan to'rt polosali yo'l uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilishni kengaytirish, Qamchiq dovonidan o'tadigan avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish;

• respublikaning temiryo'l transportini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, temiryo'llar rekonstruksiyasini amalga oshirish, Toshkent–Samarqand yuqori tezlikdagi temiryo'l liniyasini jihozlash hamda ishga tushirish, Buxoro va Qarshi shaharlarigacha bo'lgan temiryo'l uchastkalarini elektrlashtirish, harakatdagi temiryo'l tarkibini zamonaviy yuqori unumli lokomotivlar, yuk tashuvchi va yo'lovchilarga mo'ljallangan vagonlar bilan yangilash.

Ishlab chiqarish infratuzilma tizimi faoliyatini tahlil etish, baholash hamda istiqbollarini belgilab borish bevosita milliy korxonalarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Shuning uchun har yili mamlakat miqyosida mavjud infratuzilma faoliyati taqqoslama o'rganilib, mavjud muammolar hal etilib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqarish infratuzilmalarining iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
2. Ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etishning obyektiv zarurligini gapirib bering.
3. Ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirishning qanday mexanizmlari va vositalari mavjud?
4. Ishlab chiqarish infratuzilma obyektlari va subyektlari qaysilar?
5. Ishlab chiqarish infratuzilmasi ko'rinishlarini gapirib bering.

4-BOB. ISHLAB CHIQARISH IFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI

4.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning roli

O‘zbekistonda barqaror o‘sish sur’atlari va aholining yuqori farovonligini ta’minlash, respublikaning xalqaro maydondagi o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishi uchun real shart-sharoitlarni yaratuvchi zamonaviy iqtisodiyotni barpo etish borasida keng miqyosdagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jumladan:

- iqtisodiyotni tubdan tarkibiy o‘zgartirish;
- yetakchi tarmoqlarni jadal modernizatsiyalash;
- mamlakat raqobatdoshligini oshirish;
- sanoat hamda boshqa muhim tarmoqlardagi ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;
- mahalliylashtirish dasturi va uning vazifalarini ishlab chiqish;
- milliy iqtisodiyotni zamon talablariga moslashtirish.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati alohida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash aksariyat hollarda davlat tomonidan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari liberallashtirilgan mamlakatlarda ham ishlab chiqarish infratuzilmasini tartibga solishda maksimal ravishda davlat dastaklaridan foydalaniladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining elementlari mamlakat hududlari bo‘yicha ularning salohiyatini inobatga olgan holda teng taqsimlash maqsadga muvofiq. Infratuzilmaning rivojlanishi ushbu mamlakat yoki hududning turli xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Infratuzilma ishlab chiqarishning bir qismi sifatida hududiy xarakterga egadir. Infratuzilma bo‘g‘inlarining rivojlanishi mamlakat va hududiy boshqaruv or-

ganlariga ham bevosita tegishli jarayon hisoblanadi. Infratuzilma ishlab chiqarishni, mamlakatning ijtimoiy kompleksini, uning ijtimoiy-iqtisodiy darajasini ta'minlaydigan tashqi omillarga ko'proq bog'liq bo'ladi. Infratuzilmaning qoloqligi esa, mamlakatda ishlab chiqarish, ijtimoiy, moliyaviy sohalarning samarasizligiga olib keladi. Moddiy, axborot, moliyaviy oqimlarning mamlakatga kirib kelishida muammolar yuzaga keladi.

Infratuzilmaning davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan rag'batlantirilishi mamlakatning infratuzilma tizimini rivojlantirishda davlat iqtisodiyotining rivojlanishidagi egri ishtirokining samarasi bo'lishi mumkin.

Jahonda ro'y berayotgan global iqtisodiy inqiloblar boshqaruv hokimiyatlar oldiga iqtisodiy rivojlanish siyosatini ishlab chiqishlari uchun quyidagi to'rt muammoni qo'yadi:

1. Uzoq vaqtlardan beri boshqaruv hokimiyat rahbarlari tegishli hududning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga o'z rahbarligidagi bu jarayonni chuqur tahlil qilishmas, unga erishilgan yutuqlarning davomi tarzida yondashishardi. Ammo keyingi vaqtda ko'pgina boshqaruv hokimiyatlarining yetakchi rahbarlari iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiyoti bilan kuchli bog'langanligini his etib, uni shu tarzda olib borish kerakligini tan olmoqdalar.

Darvoqea, iqtisodiyotda va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tadbirkorlik va xususiy sektorning o'rni yuqori bo'lib, ularning faoliyati boshqaruv hokimiyat organlarining maqsadlariga ham mos keladi. Ma'lum bir hududning rivojlanishini rejalashtirishga bunday yangicha yondashish boshqaruv hokimiyat organlarining maqsadlari o'zgartirilishini hamda qayta ko'rib chiqilishini talab etadi. Bu, ular o'z hokimliklaridagi har qanday xususiy firmani yangi ishchi o'rinlari tashkil etish uchun jalb qilish yetarli emasligi bilan izohlanadi. Boshqaruv hokimliklar bunday yangi ishchi o'rinlari yuqori ish haqi to'lanadigan ish o'rinlari bo'lishiga, ular yuqori malakani talab qilishiga hamda xususiy kompaniyalar raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishlariga, shu orqali hududlar aholisi turmush darajasi va sifatini ko'tarish kerakligiga

e'tibor qaratishlari lozim. Bunda hududning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat beriladi.

2. Iqtisodiyotning rivojlanish poydevori – infratuzilmalarni mustahkamlash. Buning uchun mahalliy hokimiyat xususiy sektor rag'batlantirilishini qo'llab-quvvatlash strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Xususiy sektor iqtisodiy poydevorini aniqlovchi davlat tadbirlarining keng doirasiga kiruvchi ishchi kuchi, bilim va texnologiya, moliyaviy kapital, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma aniqlanishi lozim.

3. Iqtisodiyotning rivojlanish siyosatini mavjud geografik holatlarga moslashtirish. Hududlar uchun yangi iqtisodiyot global bo'lishi, ammo hududlar ahamiyatli iqtisodiy funksiyalarni bajarishni davom ettirishlari mumkin. Hudud xo'jaligining iqtisodiy hayotbaxshligi butun hudud umumiy farovonligi va geografik joylashishi xususiyatlariga bog'liq.

4. Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonidagi muammolarni strategik rejalashtirish asosida hal qilish uchun yangi tashkiliy va institutsional yondashishlar tartibini ishlab chiqish. Iqtisodiyot rivojlanishini rejalashtirish va amalga oshirish iqtisodiy o'sish mutaxassislarininggina emas, balki boshqaruv hokimiyat siyosatshunoslari va rahbarlari, boshqaruvchilar hamda biznesmenlarning ham asosiy ishi bo'lishi kerak. Samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun ko'pdan ko'p davlat va xususiy tashkilotlarning hukumat agentliklari, firmalar, birlashmalar ishchilari, ta'lim tashkilotlari, foydani ko'zlamay ishlaydigan tashkilotlar va alohida fuqarolarning birgalikdagi o'zaro uyg'un harakatlari yanada natijaliroq bo'lishi zarur.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi hududga «biznesni jalb qilish» g'oyasidan rivojlanib, yanada yirikroq va kengroq g'oyalarni o'z ichiga oluvchi modellarni taklif qiladi. Iqtisodiyoti jadallik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda o'tgan asrning 60–70-yillarida hali uncha ko'p bo'lmagan mamlakatlar faqat o'z hududlarining iqtisodiy o'sishiga aloqador muammolar haqida qayg'urishardi. Bunday holat asosan mamlakatning umumiy

rivojlanish oqimidan tushib qolgan soha va tarmoqlarga xos edi. Ularni hududlari iqtisodiy rivojlanishi qandaydir sababga ko'ra, ikkinchi darajali masalalar qatoriga kirib qolgan bo'lishi mumkinligi tashvishlantiradi.

Asosiy maqsad esa, mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Buning uchun hukumat ixtiyoridagi makroiqtisodiy siyosat vositalaridan foydalaniladi. Bunday hollarda mamlakat darajasida «iqtisodiy rivojlanish» deganda, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasidan ortda qolmasligiga yordam berish siyosati tushuniladi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ishlab chiqarishga bevosita bog'liqligi sababli uni qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi. Bu o'rinda eslatish joizki, mamlakatni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi asosiy siyosatning yo'nalishi boylik ortishini ta'minlovchi barqaror rivojlanishga sharoitlar yaratish emas, balki ko'proq xususiy sanoat korxonalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Xususiy sanoat firmalarini qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy modeli hisoblanishi lozim.

Mamlakatning global iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiyotni qayta qurish natijalari boshqaruv organlariga ta'sir o'tkazib, ularni iqtisodiy o'sishga bo'lgan yondashishlarida va munosabatlarida ishlab chiqarish sektorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy iqtisodiyot tarkibidagi ishlab chiqarish infratuzilmasi uning barqaror o'sishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Mamlakatda ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari qanchalik yuqori darajada hamda zamonaviy talablar asosida rivojlangan bo'lsa, unga nafaqat milliy, balki xorijiy investitsiyalar ham shunchalik jadal va ishonchli asosda kirib keladi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri bog'liqliklarni ifodalovchi obyektiv qonuniyatlar ham mavjud.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Chunki, bugungi kunda ishlab chiqarish infratuzilmasi unsurlarining yetarli darajadagi faoliyatini yo'lga qo'ymasdan turib zamon talablariga muvofiq keluvchi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining holati, rivojlanganlik darajasi mahsulot va xizmatlar sifati va tannarxiga, demakki, ularning raqobatdoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi mamlakatdagi ijtimoiy holatga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi (avtomobil va temiryo'llari, ko'priklar, aeroportlar, omborlar qurilishi, transport, elektr va aloqa tarmoqlari, suv, gaz ta'minoti va boshqalar)ning tashkil etilishi, eng avvalo, yangi ish o'rinlarining barpo etilishi hamda tegishli soha mutaxassislari, muhandis-texnik xodimlari, ishchi va xizmatchilariga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi. Bu esa, iqtisodiyotdagi konyunkturaviy o'zgarishlar, siklik tebranishlar davrida ishchi kuchi bozoridagi muvozanatni ta'minlashda muhim dastak sifatida foydalanishga imkon yaratadi.

4.2. Mahalliylashtirish dasturi va uning vazifalari

Mamlakatimiz hududida sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, mahalliylashtirish dasturi qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni yanada rag'batlantirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligiga ko'maklashish. Quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar 2014-yilning 1-yanvarigacha ayrim soliqlardan ma'lum bir davrgacha ozod qilingan.

Quyidagi 1-jadvalda shuni ko'rishimiz mumkinki, 2010-yili ishlab chiqarish hajmi 5726,8 mlrd. so'm, eksport hajmi 3688,1 mln. dol. import o'rnini bosish samarasi 2008 mln. dollarni tashkil et-

gan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012-yilga kelib, ishlab chiqarish hajmi 8675,1 mlrd. so'm, eksport hajmi 1030,6 mln. doll., import o'rnini bosish samarasi 4590 mln. dollarni tashkil etgan.

1-jadval

Mahalliylashtirish dasturi bo'yicha belgilangan imtiyozlar

	Imtiyozlar:
Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar 2014-yilning 1-yanvarigacha:	
chetdan olib kelinadigan texnologiya uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek, respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan, mahalliylashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarishdagi texnologiya jarayonida foydalaniladigan komponentlar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlar bundan mustasno);	Import boji QQS Aksiz to'lovi
mahalliylashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlardan olingan daromad (foyda) solig'i, yagona soliq to'lovi (soddalashtirilgan soliq tizimi qo'llaniladigan subyektlar uchun) to'lashdan;	Daromad (foyda) solig'i Yagona soliq to'lovi
mahalliylashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadilar.	Mol-mulk solig'i

3-diagramma

Mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 29-iyuldagi «2011–2013-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni yanada chuqurlashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1590-sonli Qarori doirasida loyihalar soni jami – 1115 ta (100%), shu jumladan, vazirliklar va idoralar miqyosida 510 ta loyiha, hududlar bo‘yicha 605 loyihani tashkil etadi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish jarayonidagi o‘zaro aloqalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini quyidagi rasmda ko‘rib o‘tishimiz mumkin.



1-rasm. *1-bosqich– yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha buyurtmalarni joylashtirish chizmasi*

Ko'p yillik mahalliylashtirish dasturlarini ishlab chiqish va uning bajarilishini monitoring qilish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yuqorida keltirilgan tamoyillarning birortasiga javob bera olmagan loyiha keyinchalik belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilmasligiga olib kelish holatlari ham bo'lishi mumkin. Mahalliylashtirish Dasturining bajarilishi monitoringini olib borish maqsadida Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa tegishli idoralarni qamrab olgan monitoring tizimi ishlab chiqilgan va qo'llanilib kelinmoqda. Quyidagi 2-rasmda mahalliylashtirish dasturini shakllantirish jarayonini ko'rib o'tamiz.



2-rasm. 2-bosqich – Mahalliylashtirish dasturini shakllantirish

Dasturga kiritish uchun loyihalarni tanlash tamoyillari mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

1. Mahalliylashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun quvvatlar va mahalliy xomashyo resurslarining mavjudligi.

2. Mahalliylashtirish darajasi kamida 30 foizga yetishi.

3. TIF TN kodi bo'yicha pirovard mahsulot tovar pozitsiyasining boshlang'ich xomashyoga nisbatan kamida birinchi to'rtta belgilardan biri darajasida o'zgarishining ta'minlanishi.

4. Mahalliylashtiriladigan mahsulotga ichki va tashqi bozorlarda talabning mavjudligi.

5. Analog mahsulotlar importining mavjudligi (yangi turdagi mahsulotlar bundan mustasno).

6. Mahsulotning potensial iste'molchilari bilan shartnomalarning yoki ahdlashuvlarning mavjudligi.

7. Mahalliylashtiriladigan mahsulotlarning sotish narxlari import mahsulotlari narxlaridan yuqori bo'lmasligi (O'zbekiston Respublikasigacha bo'lgan transport xarajatlari, bojxona va soliq to'lovlari hisobga olingan holda).

Shu bilan birga, yuqoridagi majburiy mezonlarga mos bo'lgan va xalqaro sifat boshqaruv tizimini joriy etgan korxonalar qarorga kiritish huquqiga ega bo'lishadi.

4.3. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda davlat siyosati

Mamlakat uchun ishlab chiqarishni rivojlantirish — bu, birmuncha kengroq siyosatning bir qismi bo'lib, o'z ichiga biznesni jalb etish, yangi firmalarni yaratish va modernizatsiya qilishlarni oladi. Bulardan tashqari, xususiy firmalarni jalb qilish jarayoni faqat biznesni jalb etishga mo'ljallanib qolmasdan, balki mamlakatga iqtisodiy resurslar oqib kelishiga ko'maklashib, iqtisodiy baza rivojlanishiga, mavjud kamchiliklarni yo'qotish va mamlakat afzalliklaridan foydalanishga olib keladi.

Hukumatimiz tomonidan eng muhim ustuvor vazifa — bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligi-

ni oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat ekanligi belgilab berildi.

Mazkur ustuvor vazifaga alohida e'tibor qaratishning bir qator sabablari mavjud. Jumladan:

Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xomashyo resurslarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi, avvalambor, avtomobil va temiryo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va omilidir. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshiradi.

Uchinchidan, infratuzilmani rivojlantirish ko'p mehnat talab qiladigan keng ko'lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirish ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta'minlash, shu asosda iqtisodiyotni izchil va barqaror yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «2009-yilda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»[1] maxsus dastur qabul qilindi va uning bajarilishi keskin nazoratga olindi.

[1] I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston», 2009. - 23-b.

Davlat tomonidan ishlab chiqarishni rivojlantirish va ishchi o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish, xususiy sektor orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va kengaytirish jarayonlarini mamlakat imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llab-quvvatlashiga qaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash bilan birga iqtisodiyotning rivojlanishiga ham ta'sir o'tkazadi.

Eksportchilar uchun rag'batlantiruvchi omillar va imtiyozlar:

- Eksport bojxona bojni bekor qilingan.
- Tovarni chetga chiqarishda QQS nolga teng.
- Eksportyorlar uchun foyda solig'i, mulk solig'i va KB uchun eksportning o'lchamiga bog'liq holda yagona soliq pasaytiriladi.
- Tekstil korxonalari 1-yanvar 2016-yilga qadar mulk solig'ini to'lashdan ozod etilganlar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar – bir tomondan korxonalar daromadining barqarorligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan – korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirish hamda xorijiy investitsiya ishtirokidagi eksport qiluvchi korxonalar soni ko'payishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga davlat xizmat ko'rsatish sohasidagi va oilaviy tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish yo'nalishlarida ham bir qancha vazifalarni amalga oshirdi.

Respublika sanoatining tez rivojlanib borayotgan tarmoqlari uchun zarur bo'lgan, eksport salohiyatini kengaytirish, savdo va to'lov balansini maqbullashtirish imkonini beradigan butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, sarflanadigan materiallar va qayta ishlangan xomashyo zaxiralari ishlab chiqaradigan mahalliy korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, valuta mablag'larini birinchi navbatda ilg'or texnologiyalar va mashina-uskunalarni import qilishga yo'naltirish uzoq muddatli istiqbolni ko'zlab

sanoatni yanada rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning roli qanday?
2. Mahalliylashtirish dasturi nima va uning asosiy mohiyati qanday?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat tomonidan qanday imtiyozlar beriladi?
4. Jahonda ro'y berayotgan global iqtisodiy inqilobning boshqaruvida qanday muammolar mavjud?
5. Ishlab chiqarish samaradorligi qanday aniqlanadi?
6. Mahalliylashtirish dasturining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Mahalliylashtirish dasturida qanday imtiyozlar mavjud?
8. Mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlarini ayting?
9. Mahalliylashtirish dasturi qanday bosqichlardan iborat?

5-BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

5.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi islohotlar

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi islohotlar bevosita davlat tomonidan ishlab chiqilgan, bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni quyidagi yirik guruhlarga bo'lib o'rganamiz:

- mulkiy munosabatlar sohasidagi islohotlar;
- agrar sohadagi islohotlar;
- moliya-kredit sohasidagi islohotlar;
- ijtimoiy sohadagi islohotlar;
- tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi islohotlar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi islohotlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyiliga asosan amalga oshirilmoqda.

Bu islohotlar natijasida quyidagi muammolar yechilishi ko'zda tutilgan:

1. Mahalliy xomashyo va materiallardan foydalanish darajasini oshirish.

2. Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish.

3. Elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish.

4. Tayyor mahsulot, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish va uni isloh etish natijasida katta imkoniyatlar paydo bo'ladi. Chunki O'zbekiston dunyoning 0,33 foiz hududini egallagan, jahon aholisining 0,41% ega. O'zbekiston ulushiga dunyoning barcha

mamlakatlarida qazib olinayotgan uran rudasining 6%i, oltinning 3,4%i, tabiiy gazning 2,2%i to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish bo‘yicha ham dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Jumladan, O‘zbekiston hissasiga uzum va mayiz eksporti 2,5–3%, tomat pastasi eksporti 2–2,5%, qorako‘l terisi bo‘yicha jahon ishlab chiqarishining to‘rtdan bir qismi, paxta xomashyosining 4%i to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston ko‘plab turdagi sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda salmoqli o‘ringa ega. Masalan, qorako‘l yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha 2-o‘rin, paxta yetishtirishda 5–6-o‘rin, uran qazib chiqarishda 7-o‘rin, volfram qazib olishda 8-o‘rin, oltin zaxiralari bo‘yicha 9-o‘rin va qazib olishda 9-o‘rin olgan.

5.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tashkiliy-huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2009-yil 20-yanvardagi «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1041-son qarori ishlab chiqarish infratuzilmalarini yanada rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-avgust 2012-yildagi 247-sonli «201–2015-yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26-fevral 2013-yildagi 56-sonli «Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 20-yanvardagi «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1041-son qaroriga muvofiq:

– Xalqaro ahamiyatga ega umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha qo'shimcha ishlar Dasturi tasdiqlandi;

– Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish Dasturi tasdiqlandi;

– Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ildam qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish Dasturini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha Maxsus Komissiya tasdiqlandi.

Asosiy moliyalashtirish manbalari:

• Xo'jalik birlashmalari va xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari;

• Tarmoqlardagi maxsus rivojlantirish fondlari mablag'lari;

• O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot Jamg'armasi kreditlari;

• Tijorat banklari kreditlari;

• Xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari.

Xalqaro ahamiyatga ega umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha qo'shimcha ishlar Dasturi qabul qilindi:

Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish Dasturi

Elektr ta'minoti bo'yicha:

Loyihalar: 6 ta; umumiy qiymati: 4757,4 mln. so'm.

Temiryo'llari bo'yicha:

Loyihalar: 1 ta; umumiy qiymati: 12500,0 mln. so'm.

Telekommunikatsiya tarmoqlari va inshootlarini modernizatsiyalash va rivojlantirish bo'yicha:

Loyihalar: 12 ta; umumiy qiymati: 44,036 mln. doll.

Navoiy sh. aeroportini modernizatsiya qilish bo'yicha:

Loyihalar: 5 ta; umumiy qiymati: 23000,0 mln. so'm, 5,0 mln. doll. 1,2 mln. yevro.

Suv ta'minoti obyektlari bo'yicha:

Loyihalar: 3 ta; umumiy qiymati: 20,35 mln. doll.

Gaz ta'minoti bo'yicha:

Loyihalar: 4 ta; umumiy qiymati: 343 444,5 mln. so'm.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'yicha:

1087 ta obyekt; umumiy qiymati: 40 481 mln. so'm.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-avgustdagi 247-sonli «2013–2015-yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, 2013–2015-yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish Dasturi tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq, hajmi 59 461,6 ming AQSH dollari ekvivalentida investitsiya jalb qilinishi belgilangan, shu jumladan:

Elektr ta'minotiga 13 482,3 ming doll.

Gaz ta'minotiga 3 568,5 ming doll.

Suv ta'minoti va oqava suvlarni chetga chiqarishga 28 118,4 ming doll.

Temiryo'l infratuzilmasiga 4 360,0 ming doll.

Avtomobil yo'llariga 9 932,4 ming doll.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26-fevral 2013-yildagi 56-sonli «Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida» qarori.

«O'zbekiston temiryo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi huzurida «Pop» multimodal logistika markazi faoliyati tashkil etildi;

«Pop» multimodal logistika markazi infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari kompleksi tasdiqlandi.

«Pop» logistika markazining asosiy vazifalari:

– Farg'ona mintaqaviy temiryo'l bog'lanmasining ixtisoslashtirilgan stansiyalaridan foydalanib, «Angren» logistika markazi bilan o'zaro to'liq bog'liq holda Farg'ona vodiysi hududida yuklarni yetkazib berishning yagona multimodal sxemasini ta'minlash;

– transport-logistika va transport-ekspeditsiya xizmatlarini ko‘rsatish.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qarorlar transport-logistika infratuzilmasini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish, yuk tashish hajmlarini ko‘paytirish hamda yuklarni o‘z vaqtida va uzluksiz yetkazib berish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Bunga sabab O‘zbekiston Respublikasida rivojlantirilishi zarur bo‘lgan muhim ustuvor sohalar belgilab olingan: Bularga:

– sanoat;
– qishloq xo‘jaligi;
– yo‘l transporti;
– qurilish;
– kommunikatsion-axborot sohalari kiradi.

Uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash transport va infratuzilma kommunikatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga moliya loyihalarini amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishda ishlab chiqarish infratuzilmasining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun faqatgina investitsiyalarning o‘zi yetarli emas. Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlariga erishishda ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy menejment va marketing tajribalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu masalalarni hal qilish yo‘llaridan biri mamlakatda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdir.

«Erkin iqtisodiy zonalar» eksportga qaratilgan strategiyaning eng muhim elementlaridan biridir. «Erkin iqtisodiy zonalar» milliy va xorijiy kapitalni jalb etadi, eksport salohiyatini kengaytiradi, valuta tushumlarining kirib kelishini ko‘paytiradi, yangi

texnologiyalarni olib kiradi va ularni amalda qo'llaydi, mamlakat to'lov balansi ahvolini yaxshilaydi va, albatta, yakuniy hisobda milliy iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, turli mamlakatlarda «Erkin iqtisodiy zonalar» turli maqsadlarga erishish yo'lida tashkil qilinadi. Turli mamlakatlarda «Erkin iqtisodiy zonalar»ni tashkil qilish maqsadlari har xil bo'lishiga qaramay, ular ba'zi bir umumiylikka ega. Ularni:

1) iqtisodiy;
2) ijtimoiy;
3) ilmiy-texnik maqsadlarga bo'lish mumkin.

Respublikamiz hududida EIZni tashkil etish bo'yicha, 1996-yilning 25-aprelida «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi qonun qabul qilingan.

«Erkin iqtisodiy zona» tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi.

Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi davlat dasturlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 15-noyabrdagi PQ-1641-sonli «2012–2015-yillarda Farg'ona shahri bosh rejasini amalga oshirish, ijtimoiy va transport-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-avgustdagi PQ-1170-sonli «2009–2012-yillarda Namangan shahrini obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrdagi PQ-1446-sonli «2011–2015-yillarda infratuzilmani, trans-

port va kommunikatsiya qurilishi rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida»gi qarori.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbekistonda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
2. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning qanday huquqiy asoslari mavjud?
3. O‘zbekistonda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishini moliyalashtirishning qaysi usullari va manbalari mavjud?
4. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tashkiliy-huquqiy asoslari to‘g‘risida gapirib bering.
5. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi qanday davlat dasturlarini bilasiz?

6-BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASIDA TRANSPORT XIZMATI

6.1. O‘zbekiston transport infratuzilmasi mohiyati va zarurligi

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «2013-yil va undan keyingi yillarda dasturiy vazifalarimizni amalga oshirishda yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi»[1].

O‘zbekiston transport infratuzilmasi quyidagi transport turlarini o‘z ichiga oladi:

1. Avtomobil yo‘llari transporti
2. Temiryo‘l transporti
3. Havo transporti
4. Quvur transporti
5. Daryo transporti

Ma’lumki, infratuzilmaning eng yirik tarmoqlaridan biri transport xo‘jaligi hisoblanadi. Ishlab chiqarish harakati jarayonini transportsiz tasavvur qilish qiyin. Transport yordamida sohalar, soha ichidagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi korxonalar bir-biri bilan bog‘lanib, ishlab chiqarish jarayoni maromida borishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi. Ish kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlarini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib, jami iste’mol mahsuloti ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatadi. Transport vositalari yordamida moddiy boyliklar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi natijasida iste’molgacha yaqinlashadi, iste’mol qiymatining tashkil topishi tezlashadi. Transport vosi-

[1] I.A. Karimov. 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. 2013-yil 18-yanvar.

talarining o‘ziga xos xususiyatlari ulardan moddiy boylik ishlab chiqarishning hamma sohalarida keng ko‘lamda foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish qishloq xo‘jaligida yo‘llar qurish, ularning yuk tashish qobiliyatini oshirish, ta’mir ishlarini muntazam ravishda olib borish, yo‘l xo‘jaligi ixtiyoridagi texnikani takomillashtirish va ulardan unumli foydalanish, demakdir. Quyidagi jadval ma’lumotlarida O‘zbekistonning transport infratuzilmasi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan.

2-jadval

O‘zbekistonning transport infratuzilmasi bo‘yicha 2012-yilgi asosiy ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.	Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi	184 000 km
2.	Temiryo‘llarining umumiy uzunligi shu jumladan: elektrofikatsiyalangan qismi	4 258 km 727 km
3.	Aeroportlar soni shu jumladan: uchish-qo‘nish yo‘li qattiq qoplamali uchish-qo‘nish yo‘li qattiq qoplamasiz	53 ta 33 ta 20 ta
4.	Asosiy (magistral) quvur yo‘llarining umumiy uzunligi shu jumladan: gaz quvur yo‘llari uzunligi neft quvur yo‘llari uzunligi	14 280 km 10 253 km 868 km
5.	Suv yo‘llari uzunligi	1 100 km
6.	Port va terminallar soni	1 ta

Shuni aytish joizki, avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati qattiq qoplamali yo‘llarda qattiq qoplamasiz yo‘llardagiga nisbatan 25–80%, tezligi 2–3 marta oshishini, yonilg‘i sarfini esa 2 marta

kamayishini ko‘rsatadi. Shuning uchun xo‘jaliklararo va xo‘jali ichidagi yo‘llarni rekonstruksiyalash va o‘z muddatida ta’mirlash yo‘l qurilishini kengaytirish va qishloq xo‘jaligini yanada intensi rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratadi.

6.2. O‘zbekiston avtomobil yo‘llari va ularni rivojlantirish

Respublikamizda qariyb 184 ming km uzunlikdagi avtomo bil yo‘llari mavjud bo‘lib, shundan 42654 kilometri umumiy foy dalanishdagi avtomobil yo‘llari hisoblanadi (shundan 2755 kr avtomobil yo‘li «O‘zbek milliy avtomagistrali» hisoblanadi. O‘zbekiston avtomobil yo‘llari:

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari;

– xo‘jalik avtomobil yo‘llari;

– xo‘jalik avtomobil yo‘llari shaharlar va boshqa aholi punkt larining ko‘chalariga bo‘linadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari

– xalqaro;

– davlat;

– mahalliy (viloyat) ahamiyatga molik avtomobil yo‘llarig bo‘linadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari va umumiy foyda lanishdagi avtomobil yo‘llari tarkibiga kiruvchi barcha inshootlar bilan birgalikda davlat mulki hisoblanadi va O‘zbekiston Respub likasi qonunida belgilangan tartibda foydalanishga topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga mu vofiq xalqaro avtomobil yo‘llari tarmog‘iga kiradigan yo‘lla xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo‘llari jumlasiga kirad Xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo‘llarining umumiy uzun ligi 3979 km ga teng. O‘zbekiston hududi bo‘ylab 20 ta xalqa ro transport yo‘nalishlari o‘tib, ular Rossiya, Ukraina, Yevrop mamlakatlari, Kavkaz, Afg‘oniston, Pokiston, Eron, Turkiya v Xitoyga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda xalqaro ahamiyatga mo lik avtomobil yo‘llari to‘g‘risidagi ma’lumotni quyidagi jadvald ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval

O‘zbekistonda xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo‘llari

Avtomobil yo‘llari raqami	Avtomobil yo‘llari nomi	Uzunligi (km)
M-34	**Toshkent - Dushanbe** (Toshkent - Yangiyo‘l - Sirdaryo - Guliston - Xovos - Dushanbe, O‘zbekiston Respublikasi hududida)	160
M-37	**Samarqand - Ashxobod - Turkmanboshi** Buxoro, Chorjo‘y, Mari orqali (Samarqand - Ishtixon - Kattaqo‘rg‘on - Karmana - Buxoro - Chorjo‘y, O‘zbekiston Respublikasi hududida)	365
M-39	**Almati - Bishkek - Toshkent - Termiz** Chimkent, Samarqand orqali (Qozog‘iston Respublikasi chegarasi - G‘ishtko‘prik - Toshkent - Chinoz -Jizzax - Samarqand - Termiz) shoxobcha: a) Hayratonga kirish yo‘li (O‘zbekiston Respublikasi hududida) Jami shoxobcha bilan	628 30 658
M-41	**Bishkek - Dushanbe - Termiz** O‘sh va Xorug‘ orqali (Tojikiston Respublikasi chegarasi - Denov - Jarqo‘rg‘on - Termiz	191
A-373	**Toshkent - O‘sh** Qo‘qon va Andijon orqali (Toshkent - To‘ytepa - Angren - Qo‘qon - Shahrixon - Andijon - O‘sh, O‘zbekiston Respublikasi hududida) shoxobcha: a) Sirg‘ali aeroportiga Jami shoxobcha bilan	399 5 404
A-376	**Qo‘qon - Jizzax** Konibodom, Xo‘jand, Bekobod, Xovos orqali (Qo‘qon - Beshariq - Tojikiston Respublikasi hududi - Bekobod - Xovos - Jizzax)	168

A-377	**Samarqand - Ayniy** O‘zbekiston Respublikasi hududida	37
A-378	**Samarqand – Qarshi**	138
A-379	**Navoiy - Uchquduq** Zarafshon shahri orqali	289
A-380	**G‘uzor - Nukus - Qo‘ng‘irot - Beyneu** Buxoro shahri orqali (G‘uzor - Qarshi - Muborak - Buxoro - Gazli - Dulduł - To‘rtko‘l - Nukus - Xo‘jayli - Qo‘ng‘irot - Qozog‘iston Respublikasi chegarasi - Beyneu)	1204
A-381	**Xo‘jayli - Toshhovuz** O‘zbekiston Respublikasi hududida	12
	JAMI XALQARO AHAMIYATGA MOLIK YO‘LLAR	3626

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari va tumanlarining ma’muriy markazlari, viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar, madaniyat hamda sanoat markazlari o‘rtasida transport qatnovini ta’minlaydigan, mazkur markazlarni esa, xalqaro ahamiyatga molik yo‘llar bilan, aeroportlar, temiryo‘l stansiyalari, portlar va kema to‘xtash joylari, shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan bog‘laydigan yo‘llar davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo‘llar jumlasiga kiradi. O‘zbekistonda davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 16 909 km ni tashkil etadi.

O‘zbekiston avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadida oxirgi yillarda davlat tomonidan bir necha dasturlar qabul qilingan va amalga oshirilmoqda. Jumladan:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-apreldagi PQ-1103-sonli «2009–2014-yillarda O‘zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrdagi PQ-1446-sonli «2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishi rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida»gi qarori asosida tumanlarning ma’muriy markazlarini shaharchalar, qishloqlar va ovullar bilan, shuningdek, davlat ahamiyatiga molik yo‘llar bilan bog‘laydigan

yo‘llar mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo‘llari jumlasiga kiradi. O‘zbekiston mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 21995 km ni tashkil etadi.

O‘zbekistonda yo‘l-transport infratuzilmasini boshqarish va tashkil etish tizimi transport turiga qarab farqlanadi.

Avtomobil yo‘llari transporti tizimini boshqarish va tashkil etish «O‘zavtoyo‘l» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi (yo‘llarni qurish va boshqarish qismida) va O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi (yo‘lovchi va yuk tashishni tashkil etish va rivojlantirish qismida) tomonidan amalga oshiriladi. Temiryo‘l transporti tizimini boshqarish va tashkil etish «O‘zbekiston temiryo‘llari» Davlat aksiyadorlik temiryo‘l kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Havo transporti tizimini boshqarish va tashkil etish «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Quvur transporti tizimini boshqarish va tashkil etish «O‘zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Daryo transporti tizimini boshqarish va tashkil etish O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

4-jadval

2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

Yo‘nalish nomi	Loyiha qiymati	Loyiha soni
Dasturning umumiy qiymati	8504,0	85 ta
shu jumladan:		
– Avtotransport sistemasi	3544,0	11 ta
– Temiryo‘l transporti sistemasi	2146,6	14 ta
– Havo yo‘l transporti sistemasi	993,7	14 ta
– Injener kommunikatsiya infratuzilmasi va telekommunikatsiya tizimi	1794,7	44 ta
– Shahar elektrotransporti parkini yangilash		
Yangi ish o‘rinlari yaratish – 14 394	24,9	2 ta

2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlarini quyidagi jadvalda ko‘rib o‘tamiz.

Bizga ma’lumki, «O‘zavtoyo‘l» avtomobil yo‘llarini qurish va foydalanish Davlat aksiyadorlik kompaniyasi («O‘zavtoyo‘l» DAK) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 19-avgustdagi PF 3292-sonli Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi 361-sonli qaroriga asosan tashkil topgan. Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini yaxshi holatda saqlash, ta’mirlash, qurish va rekonstruksiya qilish sohasida ekspluatatsiya va pudrat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-noyabrdagi PF 511-sonli qarori qabul qilindi. 2007-yilda qabul qilingan «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq «O‘zavtoyo‘l» DAKka Respublikadagi avtomobil yo‘llari bo‘yicha davlat boshqaruvini o‘rnatish vakolati berilgan. Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini yaxshi holatda saqlash, ta’mirlash, qurish va rekonstruksiya qilish sohasida ekspluatatsiya va pudrat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-noyabrdagi PF 511-sonli qarori qabul qilindi. «O‘zavtoyo‘l» DAK tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi asosan mamlakatdagi avtomobil yo‘llarining barcha tarmoqlari ehtiyojlarini to‘la ravishda qoplashni ta’minlashga qaratilgan.

«O‘zavtoyo‘l» DAK faoliyatining asosiy vazifalari hamda vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilaydi;
- avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnika siyosatini olib boradi;
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalash sohasidagi normalar va standartlarga rioya etilishini ta’minlaydi;

• umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

• O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxati bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

• avtomobil yo'llari sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-iyuldagi «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to'g'risida»gi 296-son qarori bilan tashkil etilgan O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi avtomobil va daryo transporti sohasini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat boshqaruv organidir.



3-rasm. O'zbekistonda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini boshqarish tizimi

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining asosiy vazifalari:

• avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashish·ni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilishini ta'minlash;

• iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yuk va yo'lovchilar ta·shishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, jamoat avtomobil va daryo transporti faoliyatini mu·vofiqlashtirish;

• avtomobil va daryo transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlarini va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash;

• avtomobil va daryo transporti sohasida yagona texnika siyo·satini o'tkazish;

• avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashish·ni litsenziyalashni tashkil etish, litsenziyalar tomonidan litsenzi·ya talablari va shartlari bajarilishini nazorat qilish;

• avtomobil va daryo transportida kadrlarni o'qitish va ular·ning malakasini oshirishni tashkil etish;

• mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Favqulodda vazi·yatlar vazirligiga safarbarlik paytida va favqulodda vaziyatlarda av·tomobil transporti maxsus bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashti·rishda ko'maklashish.

«O'zbekiston temiryo'llari» Davlat Aksiyadorlik Temiryo' Kompaniyasi 1994-yil 7-noyabrda O'zbekiston Respublika·si hududida joylashgan sobiq O'rta Osiyo temiryo'llari negizida tashkil etilgan. Kompaniyaning asosiy yo'llarinig umumiy uzun·ligi bugungi kunda 3645 kilometrga yaqinni tashkil etadi. Kom·paniyada 54,7 mingdan ziyod kishi ishlaydi. Kompaniyaning yil·lik yuk aylanmasi barcha turdagi transport yuk aylanmasining 90% ga yaqinini tashkil etadi.

Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

• temiryo'l bo'ylab yuklarni ekspeditsiyalash va yetkazib berish

• temiryo'l vagonlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish

- yo‘lovchilar, turistlarni tashish;
- lokomotiv va vagon parkini yangilash, xizmat ko‘rsatish.

«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi 1992-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan tashkil etilgan. Ana shu vaqtdan boshlab samolyotlar parkini zamonaviylashtirish, yangi aerovokzallar qurish, havodagi harakatni boshqarish tizimini tubdan o‘zgartirish, aerodromlarni yangi zamonaviy texnika bilan ta’minlash, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi baza hamda menejment tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan respublika Fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish davlat dasturi amalga kirdi. O‘tkazilgan islohotlar O‘zbekiston aviatsiya transportining xalqaro, iqtisodiy, diplomatik va madaniy aloqalarini rivojlantirishda yetakchi sohalardan biriga aylanishiga omil yaratdi.

Aviakompaniya faoliyatidagi muhim yo‘nalishlar:

- parvozlar xavfsizligini ta’minlash va uning darajasini ko‘tarishga mo‘ljallangan tadbirlarni amalga oshirish;
- xalq xo‘jaligining yo‘lovchi, yuk tashuvlariga bo‘lgan talablarini o‘z vaqtida, to‘liq ta’minlash va boshqa aviaxizmatlarni amalga oshirish;
- yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni xalqaro andozalar darajasiga yetkazish;
- aviatransport sohasi faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- aviatsiya infratizilmasini rivojlantirish va takomillashtirish. Aviatsiya texnikasini yangilashni davom ettirish;
- xalqaro biznesda aviakompaniya o‘rnini mustahkamlash, aviatsiya xizmati yangi bozoridan o‘z o‘rniga ega bo‘lish;
- yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

6.3. Transport infratuzilmasini tartibga solishning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini tartibga solish borasida quyidagi qonunlar va normativ-huquqiy aktlar qabul qilingan:

1. «Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi Qonun (1998-yil 29-avgustda qabul qilingan) avtotransport yerlari, avtotransport vositalarini tasniflash, yo‘lovchi va yuklarni tashish qoidalari, sohani davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish, davlat va mahalliy organlarning asosiy vazifalari, sohada litsenziyalash, tashuvchi va mijozlarning huquq va majburiyatlari, transportda xavfsizlik va ekologiya norlari va boshqalarni tartibga soladi.

Ushbu qonunga muvofiq, avtomobil transporti – tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochtani avtomobilda tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui.

2. «Temiryo‘l transporti to‘g‘risida»gi Qonun (1999-yil 15-aprelda qabul qilingan) temiryo‘l korxonalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, temiryo‘l transporti yerlari, temiryo‘l transportini boshqarish, yo‘lovchilar va yuklarni tashish qoidalari, temiryo‘l transportining moliyaviy va xo‘jalik faoliyati, temiryo‘l transportida xavfsizlik, temiryo‘l transporti korxonalari javobgarligi masalalarini tartibga soladi.

Ushbu qonunga muvofiq, temiryo‘l transporti – umumiy foydalanishdagi transport turlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish va ijtimoiy yo‘nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o‘z tarkibiga olgan, boshqa davlatlarning temiryo‘llari va transportning boshqa turlari bilan o‘zaro hamkorlikda tashish ehtiyojlarini ta’minlovchi yagona ishlab chiqarish texnologiya majmuidan iborat.

3. «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi Qonun (2007-yil 2-oktabrda qabul qilingan) avtomobil yo‘llari sohasini boshqarish, avtomobil yo‘llarini tasniflash va ularni toifalash, avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish, qurish va saqlash, avtomobil yo‘llaridan foydalanish kabi masalalarni tartibga soladi.

Ushbu qonunga muvofiq, avtomobil yo‘li – transport vositalari harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og‘irlikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta’minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek,

ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo'shliq.

4. «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi Qonun (1997-yil 25-aprelda qabul qlingan) shahar yo'lovchilar transportining turlari, shahar yo'lovchi transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va davlat tomonidan boshqarish, bu sohadagi davlat organining vakolatlari, faoliyatni litsenziyalash, tashuvchi va yo'lovchilarning majburiyatlari va huquqlari kabi masalalarni tartibga soladi.

Ushbu qonunga muvofiq, shahar yo'lovchilar transporti – O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatga olingan, shahar doirasida yo'lovchilar hamda bagaj tashishga mo'ljallangan avtomobil va elektr transporti.

5. O'zbekiston Respublikasi havo Kodeksi (1993-yil 7-mayda qabul qilingan) samoviy hududdan foydalanish, respublika aviatsiyasi, aerodromlar va aeroportlar, havo kemalari va ulardan foydalanish, aviatsiya xodimlari, mahalliy va xalqaro parvozlar, parvoz qoidalari, xavfsizlik, havo trasportida yo'lovchi va yuklarni tashish kabi masalalarni tartibga soladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-oktabrdagi PQ-499-sonli «Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 1-noyabrdagi 226-sonli «Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va foydalanish sifatini nazorat qilishni tashkil etish va ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori.

6.4. O'zbekistonda logistika markazlari

Bugungi kunda O'zbekistonda uchta logistika markazlari tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda:

1. Navoiy shahar aeroporti bazasida xalqaro intermodal logistika Markazi.

2. «Angren logistika markazi» yopiq aksiyadorlik jamiyati.

3. Namangan viloyatidagi «Pop logistika markazi» unitar korxonasi.

Navoiy shahar aeroporti bazasida xalqaro intermodal logistika Markazi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 31-dekabrdagi PQ-1027-sonli «Navoiy shahar aeroporti bazasida xalqaro intermodal logistika markazini tashkil etish choralari to'g'risida»gi qaroriga asosan respublika transport-tranzit infratuzilmasini yanada rivojlantirish va Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonaga logistika xizmatlarini ko'rsatish maqsadida «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi tarkibida tashkil etilgan. Unga muvofiq, Navoiy xalqaro aeroporti «Korean Eyr» aviakompaniyasi boshqaruviga 31-dekabr 2013-yilgacha topshirilgan; Intermodal logistika markazini barpo etish maqsadida import qilinadigan tovar jihozlar bojxona to'lovidan ozod qilingan; «Korean Eyr» aviakompaniyasi va uning personali daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilingan.

5-jadval

Iqtisodiy erkin zonalarda 2012-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot

1	«Angren logistika markazi» MChJning istiqboldagi rivojlanishi	Dona	Mln.so'm
-	Qo'shimcha konteyner maydonini qurish va jihozlash	7,2 ga	7,1 mlrd.so'm
-	Avtotransport vositalari va avtotigachlarni xarid qilish	190 dona	31,1 mln.doll.
2	«Navoi» xalqaro intermodal logistika markazini jihozlash		
-	Avtoulovlar xarid qilish	6 dona	1,0 mln.doll.
-	Yuklovchi texnikalarni xarid qilish	9 dona	2,5 mln.doll.

«Angren logistika markazi» yopiq aksiyadorlik jamiyati 2009-yilning o'rtalarida «O'zavtosanoat» DAK, «O'zbekiston temiryo'llari» DATK, «O'zbekneftegaz» MXK, «O'zkimyosanoat»

DAK, «O‘zqurilishmateriallari» AK va Oziq-ovqat va yog‘-moy sanoat Uyushmasi kabi ta’sischilar tomonidan turli kategoriyadagi yuklarni qabul qilish va qayta ishlash, shuningdek, ularni Farg‘ona vodiysiga avtomobil transporti orqali yetkazish maqsadida tashkil etilgan. Keyinchalik, O‘z.R. VM ning 2012-yil 8-maydagi 128-sonli va 31-maydagi qarorlari asosida Angren logistika markazining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash hamda uning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari belgilangan. Hozirda tranzit-yuk terminali 8,6 ga maydonni egallaydi hamda omborxonalar, temiryo‘llar va boshqa inshootlar bilan jihozlangan.

«Pop logistika markazi» unitar korxonasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 26-fevraldagi 56-sonli «Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga asosan Farg‘ona vodiysining transport-logistika infratuzilmasini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish, yuk tashish hajmlarini ko‘paytirish, yuklarni o‘z vaqtida va uzluksiz yetkazib berish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mintaqaning temiryo‘l infratuzilmasidan samarali foydalanish maqsadida «O‘zbekiston temiryo‘llari» DATK tarkibida tashkil etilgan. Mazkur qarorga muvofiq, Pop logistika markazida yuklarni ishlash hajmlarini yiliga 4 mln. tonnagacha yetkazish belgilandi; transportning har xil turlari bilan tashishning o‘zaro bog‘liq jarayonini, shu jumladan «Qamchiq» dovoni orqali yuklarni tashish uchun «Angren logistika markazi» YAJ ning avtotransport vositalari parkidan samarali foydalanish asosida tashkil etish belgilandi; Farg‘ona mintaqaviy temiryo‘l bog‘lanmasining ixtisoslashtirilgan stansiyalaridan foydalanib, Angren logistika markazi YAJ bilan o‘zaro to‘liq bog‘liq holda Farg‘ona vodiysi hududida yuklarni yetkazib berishning yagona multimodal sxemasini ta’minlash belgilandi; Logistika markazini qurish doirasida chetdan olib kelinadigan tovarlar bojxona to‘lovidan, bajariladigan ishlar qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2014-yil 1-yanvargacha ozod qilindi.

O‘zbekistonda 2011–2015-yillarda transport infratuzilmasi qurilishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar:

1. Respublikaning barcha mintaqalarini puxta birlashtiradigan yagona milliy transport tizimini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, O‘zbekiston milliy magistrali tarkibiga kiradigan, xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, zamonaviy sement-beton va asfalt-beton qoplamalar bilan ta’minlangan to‘rt polosali yo‘l uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilishni kengaytirish, Qamchiq dovonidan o‘tadigan avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish.

2. Respublikaning temiryo‘l transportini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, temiryo‘llar rekonstruksiyasini amalga oshirish, Toshkent-Samarqand yuqori tezlikdagi temiryo‘l liniyasini jihozlash hamda ishga tushirish, Buxoro va Qarshi shaharlarigacha bo‘lgan temiryo‘l uchastkalarini elektrlashtirish, harakatdagi temiryo‘l tarkibini zamonaviy yuqori unumli lokomotivlar, yuk tashuvchi va yo‘lovchilarga mo‘ljallangan vagonlar bilan yangilash.

3. Havo kemalari parkini dunyoning yetakchi Boing va Aerbas aviakompaniyalarining zamonaviy, har jihatdan qulay va tejamli samolyotlari bilan tubdan yangilash hisobiga aviatsiyada tashishning moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ularga servis xizmati ko‘rsatishni tashkil etish, Toshkent shahri va respublikaning viloyat markazlarida aeroportlar qurish va rekonstruksiya qilish hamda uning negizida tranzitni ham hisobga olganda yuk tashish hajmlarini oshirish.

4. Transportda yuk tashishni tashkillashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan, ko‘p maqsadli zamonaviy samarador transport-tranzit infratuzilmasini yaratish, har yili transport turlari – avtomobil, temiryo‘l va aviatsiya transporti tomonidan transport xizmati ko‘rsatishda tutashlikni ta’minlash, Angren shahridagi va Navoiy shahri aeroporti negizidagi logistika intermodal markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyat yuritish samaradorligini oshirish.

5. Milliy avtomagistral yoqasi va temiryo'llar bo'ylab infratuzilma va servis obyektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, avtomobil va temiryo'l magistrallarida qatnovchilar uchun xalqaro standartlarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish.

6. O'zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish uchun qo'shimcha zamonaviy yo'l-qurilish texnikasining o'z vaqtida xarid qilinishini ta'minlash, yo'l qurilishida zamonaviy qurilish texnologiyalarini, uskunalar va sifatli materiallarni qo'llash.

Nazorat uchun savollar:

1. Transport infratuzilmasini qanday tushunasiz va uning tarkibiga nimalar kiradi?
2. Avtomobil yo'llari va ularning transport infratuzilmasini shakllantirishdagi rolini tushuntirib bering.
3. Temiryo'llar va ularning transport infratuzilmasini shakllantirishdagi rolini tushuntirib bering.
4. Havo transporti tizimi va uning transport infratuzilmasini shakllantirishdagi rolini tushuntirib bering.
5. O'zbekistonda yo'l-transport infratuzilmasini boshqarish va tashkil etish qaysi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi?
6. O'zbekistonda transport infratuzilmasi qanday qonunlar bilan tartibga solinadi?
7. O'zbekistonda qanday logistika markazlari mavjud va ular qanday shart-sharoitlar asosida tashkil etilgan?
8. «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazi va uning logistika tizimini shakllantirishdagi ahamiyatini tavsiflab bering.
9. «Angren» logistika markazi va uning logistika tizimini shakllantirishdagi ahamiyatini tavsiflab bering.
10. «Pop» logistika markazi va uning logistika tizimini shakllantirishdagi ahamiyatini tavsiflab bering.
11. O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirishning qanday ustuvor yo'nalishlari belgilangan?

7-BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASIDA ALOQA VA KOMMUNIKATSIYA

7.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasida aloqa va kommunikatsiyaning iqtisodiy mohiyati

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz qisqa vaqt mobaynida ... axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida yuksak darajaga erishgan ilg'or mamlakatlar safiga qo'shilishimiz zarur»[1].

Aloqa xo'jalik va ijtimoiy infrastrukturasining tarkibiy qismi bo'lib, aholining, xo'jalik subyektlarining, davlat idoralarining pochta, telefon, telegraf, radio va axborotning o'zga turlarini uzatish va qabul qilish hamda aloqa tarmog'i orqali jo'natilayotgan ashyolarni yetkazib berishga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotda aloqa ijtimoiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo'lib, uning funksiyasiga iste'molchilarga turli xildagi xabarlarni (xatlar, telefon so'zlashuvlari, radio va televidenie dasturlari) uzatish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish kiradi.

Moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari singari aloqa tarmog'ida ham iste'mol qiymati va qiymat yaratiladi. Iste'mol qiymati – bu ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida, odamlarning jamiyat va shaxsiy hayotida iste'mol qilinadigan xabarlarni uzatish jarayonining foydali samarasidir.

Aloqa tarmog'ida yaratiladigan qiymat ishlab chiqarish sohasiga xizmat ko'rsatish qismida mamlakat YIM tarkibiga kiritiladi. Aloqa infratuzilmaviy xarakterga ham ega. Aloqa infratuzilmasi – bu axborot, xabarlarni yetkazib berish, uzatish, qabul qilish

[1] I.A. Karimov. 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

va saqlashni ta'minlab beradigan, tashkiliy-texnik kompleksini shakllantiradigan o'zaro bog'liq obyektlar, inshootlar, aloqa korxonalari, faoliyat turlari, personallar tizimi. Aloqa infratazilmasi axborot infratazilmasi ning bir qismi hisoblanadi.

Axborot infratuzilmasi – mamlakat axborot makoni hamda aloqa vositalarini faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalar tizimi. Unga axborot markazlari, tizimostilar, ma'lumotlar va bilimlar bazasi, aloqa tizimlari, axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishni ta'minlovchi apparat-dasturiy vositalar va texnologiyalar kiradi.

Jahon amaliyotida aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Pochta xizmati;
- Telefon tarmog'i;
- Mobil aloqa tarmog'i;
- Televidenie va radio uzatish stansiyalari;
- Kabel televideniesi tarmog'i;
- Internet;
- Yo'ldoshli aloqa;
- Suvosti aloqa tarmog'i;
- Pnevmatik pochta tarmog'i;
- Telegraf aloqa.

7.2. Aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini tartibga solishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida aloqa sohasidagi munosabatlarning obyektlari – pochta jo'natmalarini qabul qilib olish, tashish va ko'rsatilgan joyga yetkazib berish vositalarining yig'indisi bo'lgan pochta aloqasi tarmoqlaridan hamda bir yoki bir nechta uzatish turlarini: telefon, telegraf, faksimil uzatishlarni, hujjatli xabarlarning boshqa turlari ma'lumotlarini uzatishni, televidenie va radioeshittirish dasturlarini translyatsiya qilishni ta'minlovchi telekommunikatsiyalar vositalari yig'indisi bo'lgan telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida aloqa sohasidagi munosabatlarning subyektlari – O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, ajnabiy yuridik shaxslar va fuqarolar.

O‘zbekiston Respublikasida aloqa va kommunikatsiyaning asosiy turlari:

- Pochta aloqasi
- Telefon aloqasi
- Uyali telefon aloqasi
- Televidenie va radio
- Internet

O‘zbekiston Respublikasida pochta aloqasi – pochta jo‘natmalarini, shuningdek, pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalarini jo‘natish (qabul qilish, ishlov berish, tashish, o‘tkazish)ni va yetkazib berish (topshirish)ni ta’minlovchi texnik va transport vositalarining yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuini o‘zida mujassamlashtirgan aloqa turi.

Pochta aloqasi tarmog‘i – pochta aloqasi obyektlari va pochta yo‘nalishlari majmui.

Pochta aloqasi obyektlari – pochta aloqasi operatorlarining alohida bo‘linmalari, ya’ni pochtamtlar, pochta aloqasi uzellari, bo‘limlari va punktlari, shuningdek, temiryo‘l stansiyalari va aeroportlar qoshidagi pochta almashish punktlari.

O‘zbekiston Respublikasida pochta aloqasi:

- umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi;
- maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasi.

Umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi – barcha yuridik va jismoniy shaxslar foydalanishi uchun ommaviy shartnoma shartlari asosida ochiq bo‘lgan pochta aloqasining turi bo‘lib, operator va provayderlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida pochta aloqasi faoliyatining yagona prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasi – pochta aloqasi sohasida maxsus vakolatli organning maxsus aloqasi, davlat feldhegerlik aloqasi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining feldhegerlik-pochta aloqasiga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasida pochta aloqasi faoliyatining asosiy prinsiplari:

– hamma foydalanuvchilar uchun ochiqligi;

– O‘zbekiston Respublikasining butun hududida pochta jo‘natmalari tranzitining erkinligi;

– umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi faoliyatida ishtirok etishda yuridik va jismoniy shaxslarning teng huquqliligi;

– har bir shaxsning yozishmalari va pochta jo‘natmalari sir tutilishi huquqini ta’minlash;

– pochta aloqasi sohasida standartlar, qoidalar va normalarning yagonaligi.

O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiyalar – signallar, belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar yoki axborotning boshqa turlarini o‘tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektr magnit tizimlaridan foydalangan holda uzatish, qabul qilish, qayta ishlash.

O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i – uzatishlarning bir yoki bir necha turini: telefon, telegraf, faksimil turlarini, ma’lumotlar uzatish va hujjatli xabarlarning boshqa turlarini, televizion va radioeshittirish dasturlarini translyatsiya qilishni ta’minlovchi telekommunikatsiya vositalarining majmui.

O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiyalar tarmoqlari quyidagilarga bo‘linadi:

1) umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari;

2) idoraviy telekommunikatsiyalar tarmoqlari;

3) ajratilgan telekommunikatsiyalar tarmoqlari.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari – telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishning yagona prinsiplari, ularni taqdim etish va haq to‘lashning tartibi asosida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan telekommunikatsiyalar tarmoqlari.

Idoraviy telekommunikatsiyalar tarmoqlari – yuridik va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish va maxsus ehtiyojlari uchun mo'ljallangan, ularning ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan foydalaniladigan telekommunikatsiyalar tarmoqlari.

Ajratilgan telekommunikatsiyalar tarmoqlari – foydalanuvchilarning muayyan doirasiga xizmatlar ko'rsatish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning tijorat maqsadlarida yaratgan telekommunikatsiya tarmoqlaridir.

Aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini tartibga solish bo'yicha qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular quyidagilar:

1. «Aloqa to'g'risida»gi qonun (1992-yil 13-yanvar) – aloqa tarmoqlarini tashkil qilishning umumiy huquqiy, iqtisodiy asoslarini, aloqa shoxobchalarini barpo etish va ulardan foydalanishda, aloqa xizmati ko'rsatishda mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va fuqarolarning aloqa vositalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va boshqarish sohasidagi huquqlari va vazifalarini belgilaydi.

2. «Pochta aloqasi to'g'risida»gi qonun (2000-yil 31-avgust) – pochta aloqasini tashkil etish, uning faoliyati va rivojlanishi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni belgilaydi.

3. «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi qonun (1999-yil 20-avgust) – telekommunikatsiyalarni yaratish, ishlatish va rivojlantirish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni belgilaydi.

4. «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonun (2003-yil 11-dekabr) – axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni belgilaydi.

5. «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonun (2003-yil 11-dekabr) – elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni belgilaydi.

6. «Elektron hujjat almashinuvi to'g'risida»gi qonun (2004-yil 29-aprel). Barcha tarmoqlarda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar-

ning o'zaro hujjjatlar almashinuvini tartibga soladigan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

7. «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonun (2004-yil 29-aprel). Ushbu qonun asosida tijorat faoliyatini amalga oshirish va ular bo'yicha umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish, ulardan samarali foydalanish maqsadida qo'llaniladi.

8. «Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni himoya qilish to'g'risida»gi qonun (2006-yil 4-aprel). Banklarning turli tarmoqdagi mijozlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari natijasida vujudga keladigan axborotlardan foydalanish tizimini himoya qilish maqsadida qabul qilingan.

7.3. O'zbekistonda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekistonda aloqa va telekommunikatsiya sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, shuningdek, u vakolat bergan idora tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi mamlakatda aloqa va telekommunikatsiya sohasini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblandi.

O'zbekiston Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida» 2012-yil 16-oktabrdagi PF-4475-son Farmoniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2012-yil 23-oktabrdagi PQ-1836-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

O'zbekistonda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining asosiy vazifalari:

• aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

• aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

• aloqa va telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalashni amalga oshirish;

• tadbirkorlik subyektlari va aholiga interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishning elektron shakllarini joriy etish;

• Internet tarmog'i milliy segmentini yanada shakllantirishni ta'minlash;

• aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil qilish va rivojlantirish;

• pochta aloqasi, telekommunikatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, teleradioeshittirish vositalari va tarmoqlarini, radiomonitoring, dasturiy mahsulotlarning texnik vositalarini rivojlantirish uchun investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish.

O'zbekistonda 2011–2015-yillarda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari:

1. Xorijiy va ichki moliyalashtirish manbalarini, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirish, qurilish va industrial ishlab chiqarish komplekslarini yangilash asosida zamonaviy telekommunikatsiya tizimlarini kompleks ravishda va ildam rivojlantirish hamda qurish.

2. Zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlari va inshootlarini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, uyali aloqa hamda ma'lumotlarni keng yo'lakli uzatish tarmoqlarini kengaytirish, respublika mintaqalarida raqamli televideniega bosqichma-bosqich o'tish.

Quyidagi rasmda O'zbekistonda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi tarkibini ko'rib o'tamiz.



4-rasm. O'zbekistonda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi tarkibi

Aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari qabul qilingan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrdagi PQ-1446-sonli «2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishi rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-sonli «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «2012–2014-yillarda O'z.R. da AKT ni yanada joriy qilish va rivojlantirish Dasturi»;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-noyabrdagi PQ-1855-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2013-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida»gi qarori;

• Davlat boshqaruvida elektron hujjat almashinuvi tizimini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi (2006-y.);

• Davlat organlarining integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish konsepsiyasi (2006-y.).

Ushbu qonun hujjatlari infratuzilmani, transport va kommunikatsiya sohasi faoliyati samarali ishlashi va sohalarni davlat tomonidan tartibga solishga xizmat ko'rsatadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekistonda 2011–2015-yillarda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini kompleks rivojlantirishning ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

6-jadval

O'zbekistonda 2011–2015-yillarda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini kompleks rivojlantirishning maqsadli parametrlari

№	Nomi	birl	Jami	2011	2012	2013	2015	2015
1	Jizzax-Bulungur optik tolali aloqa liniyasini qurish	km	72	72	-	-	-	-
2	Raqamli televideniega bosqichma-bosqich o'tish rejasini amalga oshirish va raqamli televidenie qamrovini kengaytirish	ta	12	2	2	2	3	3

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Jizzax-Bulungur optik tolali aloqa liniyasini qurish 2011-yilning o'zida tugallangan. Raqamli televideniega bosqichma-bosqich o'tish rejasini amalga oshirish va raqamli televidenie qamrovini kengaytirish bo'yicha ishlar 2011-yili 12 ta dona qurilgan bo'lsa, ushbu jarayon 2012–2015-yillarda ham davom etishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda 2011–2015-yillarda aloqa va kommunikatsiyani rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalaridan «Yunitel»

uyali aloqa tizimini kengaytirishga 38,6 mln.doll. va «Koskom» uyali aloqa tizimini texnik va texnologik rivojlantirishga 123,6 mln.doll. xorijiy investitsiya va kredit mablag'lari jalb qilingan.

7-jadval

O'zbekistonda 2011–2015-yillarda aloqa va kommunikatsiyani rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalari (mln. doll. ekv.)

№	Loyihalar	Quvvati	Um. qiymati	2011–2015-yillarda investitsiya hajmi	Moliyalashtirish manbalari		
					O'z mablag'-lari	Xorij. inv-ya va kredit	Davlat budjeti
1	Jizzax-Bulungur optik tolali aloqa liniyasini qurish	72 km	0,5	0,5	0,5		
2	«Yunitel» uyali aloqa tizimini kengaytirish	5,8 mln. abon.	38,6	38,6		38,6	
3	«Koskom» uyali aloqa tizimini texnik va texnologik rivojlantirish	50567,6 mln. min efir vaqti	123,6	123.6		123,6	
4	Raqamli televideniega bosqichma-bosqich o'tish va raqamli televidenie qamrovini kengaytirish	12 ta	5,8	5,8	5,8		

Shuni aytish joizki, Jizzax-Bulungur optik tolali aloqa liniyasini qurishga 0,5 mln. doll. va raqamli televideniega bosqichma-bosqich o'tish, raqamli televidenie qamrovini kengaytirishga 5,8 mln. doll. o'z mablag'lari evaziga moliyalashtirildi.

Quyida 2013-yilga mo'ljallangan investitsiya Dasturi kiritilgan loyihalarini ko'rib o'tamiz.

8-jadval

2013-yilga mo'ljallangan investitsiya Dasturi loyihalari

№	Loyihalar	Loyiha quvvati	Amalga oshirish muddati
1	Raqamli televideniega bosqichma-bosqich o'tish va raqamli televidenie qamrovini kengaytirish	Respublika aholisining 90%dan ortiq qismini raqamli televidenie bilan qoplash	2011–2015-yy.
2	Yangi avlod tarmoqlari texnologiyalari bo'yicha xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiyalash	Bir vaqtdagi bog'lanishlarni ko'paytirish	2011–2013-yy.
3	«Yunitel» uyali aloqa tizimini kengaytirish	Quvvatni 10 mln. abonentgacha yetkazish	2013-y.
	«Koskom» uyali aloqa tizimini texnik va texnologik rivojlantirish	21218 mln. minut efir vaqtini berish	2013-y.
	EVDO texnologiyasini joriy etish bilan CDMA-450 mobil aloqasini O'zbekiston hududlarida rivojlantirish	Qo'shimcha bazali stansiyalarni o'rnatish	2013–2014-yy.
	FTTx texnologiyasi bo'yicha keng yo'lakli optik tarmoqlarni rivojlantirish	FTTx keng yo'lakli aloqa tarmoqlarini qurish	2013–2014-yy
4	Radiomonitoring va teleradiouzatishlar tizimini modernizatsiyalash (2-bosqich)	Berilgan	2013-y.

O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish bo'yicha islohotlar jadal olib borilmoqda.

Telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishda respublikada raqamli tarmoqlarga bosqichma-bosqich o'tish amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli «Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, ma'lumotlarni raqamli uzatish tizimi va raqamli kommutatsion qurilmalar bazasida milliy telekommunikatsiya tarmog'ini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yagona ilmiy-texnik va investitsiya siyosatini o'tkazish, telekommunikatsiya sohasidagi korxonalarning barqaror va samarali faoliyatiga erishish, iqtisodiyot va mamlakat aholisining aloqa xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini har tomonlama qondirish maqsad qilib olindi. Quyidagi jadvalda respublika telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish dinamikasini ko'rib o'tamiz.

9-jadval

Respublika telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish dinamikasi[1]

Ko'rsatkich	Birlik	2009	2010	2011	2012
ATS larning o'rnatilgan quvvati	ming raqam	2086	2094	2074	2023
Raqamlashtirish darajasi	%	92	94	95	97
Optik tolali aloqa liniyalarning uzunligi	km	11946	14019	15070	15288

Oxirgi 10 yil ichida 40 dan ortiq 2,5 mlrd. doll. qiymatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish natijasida barcha xalqaro va shaharlararo hamda 97.5% mahalliy telefon stansiyalarini raqamlashtirishga erishildi. Respublika viloyat markazlaridagi barcha analogli avtomatik xalqaro telefon stansiyalari raqamli stansiyalarga almashtirildi.

[1] O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O‘zbekistonda pochta xizmati fuqarolar muloqotining ommabop mexanizmi, davlat xo‘jalik va ijtimoiy infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Pochta bugungi kunda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish bilan birlashtiradi, ham ishlab chiqaruvchilarga, ham iste’molchilarga xizmat ko‘rsatadi, va shu bilan, iqtisodiyotga, boshqaruvga, shuningdek, biznesni rivojlantirishga va odamlar farovonligini oshirishga faollik bilan ta’sir etadi. Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda AKT-ni joriy etish va rivojlantirish ko‘rsatkichlarini ko‘rib o‘tamiz.

10-jadval

O‘zbekistonda AKT ni joriy etish va rivojlantirish ko‘rsatkichlari[1]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	1-yanvar 2013-y. holatiga
ATS larni raqamlashtirish	%	98
Operatorlar va provayderlar soni	ta	930
Internet tarmog‘i foydalanuvchilari soni	ming foyda.	9815
Xalqaro axborot tarmoqlari (internet)ga kirish tezligi	Mbit/s	7780
«.UZ» domen zonasidagi domenlar soni	ming	15.8
Dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida faoliyatni olib boruvchi xo‘jalik subyektlari soni	ta	238
Elektron raqamli imzo kalitlari va kalit sertifikatlari soni	ta	286503
Davlat axborot resurslarinining soni	ta	195
Davlat axborot tizimlarining soni	ta	108
Davlat interaktiv xizmat turlari soni	ta	197
WWW.UZ da ro‘yxatga olingan vebsaytlar soni	ming	7469

[1] O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Pochta aloqasining milliy tarmog'i «O'zbekiston pochtasi» ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan geografik prinsipga ko'ra tashkil etilgan va pochta aloqasi obyektlari hamda pochta yo'nalishlarining keng tarqalgan tarmog'idan iborat bo'lib, bu tarmoq pochta jo'natmalarini yuborish va yetkazib berish, pul o'tkazmalari, davlat pensiya va nafaqalarini to'lash uchun mo'ljallangan.

4-diagramma

O'zbekistonda xizmatlar va uning tarkibidagi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari[1]



O'zbekiston Respublikasida pochta aloqasi tarmog'i o'z ichiga 14 ta hududiy filiallar, 174 ta tuman va shahar uzellari, 13 ta ishlab chiqarish uchastkalari, 3006 ta aloqa bo'limlari, shuningdek, 1 ta ixtisoslashtirilgan «Xalqaro pochtamt» filialini olgan tizimdan iborat. Bugungi kunda 33 ta avia, 1 ta temiryo'l va 400 dan ziyod avtomobil yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular pochta jo'natmalarini muntazam tarzda tashishni ta'minlaydi.

[1] O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot Vazirligi ma'lumotlari.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasida aloqa va kommunikatsiya va uning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Aloqa-kommunikatsiya infratuzilmasi va uning tarkibi qanday?
3. O‘zbekistonda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini gapirib bering.
4. O‘zbekiston Respublikasida pochta aloqasi va uning faoliyati to‘g‘risida nima deya olasiz?
5. O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i va uning faoliyati to‘g‘risida nima deya olasiz?
6. O‘zbekistonda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini tartibga solishning qanday huquqiy asoslari mavjud?
7. O‘zbekistonda aloqa va telekommunikatsiya sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini gapirib bering.
8. O‘zbekistonda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning qanday asosiy ustuvor yo‘nalishlari mavjud?
9. O‘zbekistonda aloqa va telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

8-BOB. ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA YOQILG'I-ENERGETIKA MAJMUASI. YOQILG'I-ENERGETIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

8.1. Yoqilg'i-energetika majmuasi va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Avvalo biz tabiat tomonidan berilgan noyob, qayta tiklanmaydigan zaxiralar bo'lmish neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni hamon o'rganganimiz yo'q»[1].

Yoqilg'i-energetika majmuasi (YEM) – bu yoqilg'i-energetika resurslarini qazib chiqarish, ularni qayta ishlash, transportda tashish, taqsimlash va iste'mol qilish bo'yicha ishlab chiqarish, jarayonlar, moddiy qurilmalar majmuini o'z ichiga olgan murakkab tarmoqlararo tizimdir.

Uning tarkibiga yoqilg'i sanoati va elektroenergetika kiradi va ular xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Yoqilg'i-energetika majmuasi mashinasozlik, metallurgiya sanoatlari mahsulotlaridan foydalanadi hamda transport majmuasi bilan bog'liq. YEM uchun yagona tarmoqlarni hosil qiladigan yuqori quvvatli liniyalar va quvur yo'llari (neft, neft mahsulotlari va tabiiy gazni tashish uchun) ko'rinishidagi rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi xarakterlidir.

Mamlakatda YEMning rivojlanishidan ko'p hollarda ijtimoiy ishlab chiqarish, birinchi navbatda sanoatning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va miqyoslari, dinamikasi bog'liq. Shu bilan birga, yoqilg'i va energiya manbalariga yaqinlashish sanoatni

[1] I.A. Karimov. 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2012-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

hududiy tashkil qilishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. YEM ning barcha tarmoqlari o'zaro bog'liq. Turli xil yoqilg'ini qazib chiqarish, energiyani ishlab chiqarish va ularni turli iste'molchilar o'rtasida taqsimlashdagi mutanosiblik yoqilg'i-energetika balansi bilan xarakterlanadi.

Yoqilg'i-energetika balansi (YEB) – bu turli xildagi yoqilg'ini qazib chiqarish va elektroenergiyani ishlab chiqarish (kirim) hamda ularni xalq xo'jaligida ishlatish (chiqim) o'rtasidagi nisbatdir. YEBni hisoblab chiqish uchun, har xil issiqlik chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan turli xildagi yoqilg'i shartli yoqilg'iga o'tkaziladi, ya'ni ularning 1 kg ni yonishi 7000 kkal ga teng.

Xalq xo'jaligida yoqilg'i-energetika siyosati alohida ahamiyatga ega:

Birinchidan, bu mamlakatning geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, ular yil davomida to'xtovsiz issiqlik va yorug'lik bilan ta'minlashni talab qiladi.

Ikkinchidan, energetika eng muhim infratuzilma tizimlari va obyektlarini (transport, aloqa, maishiy xizmat), shuningdek, iqtisodiyot bazali tarmoqlari (xomashyo resurslarini qazib chiqarish, og'ir va mudofaa sanoati, mashinasozlik) faoliyatini ta'minlash uchun zarur.

Uchinchidan, yoqilg'i-energetika majmuining mahsulotlari eksport predmeti hisoblanib, undan tushadigan daromad davlat budjetiga soliq tushumlarining muhim qismini tashkil etadi.

8.2. O'zbekiston Respublikasida davlatning yoqilg'i-energetika siyosati

Mustaqillikning birinchi yillarida O'zbekistonning energetika sohasidagi siyosati ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni hal etish uchun mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlashga va milliy energetika salohiyatidan foydalanishga yo'naltirilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sanoatning bazali tarmoqlariga, xususan yoqilg'i-energetika majmuasi korxonalariga juda katta ma-

dad berib turdi, bunda davlatning siyosati quyidagilarni nazarda tutadigan energetika siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga yo'naltirildi:

• neft va gaz kondensati qazib chiqarishni oshirish yo'li bilan yoqilg'i mustaqilligini ta'minlash;

• energetika tarmog'ining mustahkam xomashyo bazasini yaratish;

• aholiga tabiiy va suyuq gaz, elektr energiyasi va zamonaviy yoqilg'i turlarini maksimal darajada yetkazish;

• energetika tarmog'ining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tarmoqqa qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish;

• energetikaning boshqa turdosh tarmoqlari bilan o'zaro aloqasi va narxni shakllantirish borasidagi xususiyatlarini inobatga oladigan normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, moliya-soliq tizimini takomillashtirish;

• energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

• bozor va bozor infratuzilmasining to'laqonli subyektlarini yaratish yo'li bilan energetika sohasida raqobat muhitini izchil shakllantirish.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun bir qator energetika loyihalari amalga oshirildi: Ko'kdumaloq neft va gaz kondensati koni o'zlashtirildi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurildi, Muborak gazni qayta ishlash zavodining quvvati oshirildi, Yangi Angren issiqlik elektrostansiyasida yangi energoblok o'rnatildi. Energetika sohasida yangi neft va gaz quvurlari, elektr uzatish liniyalari qurildi. Qishloq aholi joylarini gazlashtirish amalga oshirildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning energetika tarmog'i faoliyati samaradorligini oshirish va boshqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan tashkiliy choralar ham amalga oshirildi:

• Elektr energetikasi tarmog'ining barcha korxona va tashkilotlari O'zbekiston energetika va elektrofikatsiya vazirligiga bo'ysundirildi;

• Neft, neftni qayta ishlash va gaz sanoati korxonalari bazasida «O‘zbekneftegaz» konserni yaratildi, u keyinchalik milliy korporatsiyaga aylantirildi;

• «Sredazugol» O‘rta Osiy birlashmasi «Ko‘mir» aksiyadorlik birlashmasiga aylantirildi;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etildi.

Keyinchalik, mamlakatda energetika ta’minoti strategiyasini amalga oshirish, yoqilg‘i-energetika majmuasini respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish uchun asosiy baza sifatidagi alohida rolini tan olish maqsadida tarmoqni boshqarish tuzilmasi takomillashtirildi.

«O‘zbekneftegaz» milliy korporatsiya «O‘zbekneftegaz» MXK ga aylantirildi, uning tarkibidagi birlashmalar aksiyadorlik kompaniyalarga aylantirildi. Ularga neft va gaz tarmog‘i korxonalari aksiya paketlari va davlat mulkini samarali boshqarish mas’uliyati yuklatildi.

• Energetika va elektrofikatsiya vazirligining tuzilmaviy tashkilotlari bazasida «O‘zbekenergo» DAK yaratildi, uning tarkibiga «O‘zbekugol» AJ kiritildi. Kompaniyaning asosiy vazifalari etib respublika iqtisodiyotini hamda aholisini elektr energiyasi bilan turg‘un ta’minlash, shuningdek, qayta tiklanadigan energetika texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish belgilandi.

O‘zbekistonda yoqilg‘i-energetika siyosatini o‘tkazishda quyidagi davlat dasturlari amalga oshirildi:

1. 2001–2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi energetikasida ishlab chiqaruvchi quvvatlarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish Dasturi.

2. 2002–2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi ko‘mir sanoatini rivojlantirish Dasturi.

3. 2003–2005-yillarda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz bilan ta’minlash Dasturi.

4. 2003–2005-yillarda olis, borish qiyin bo'lgan va aholisi kam qishloq aholi punktlarini suyultirilgan gaz va boshqa yonilg'i turlari bilan ta'minlash Dasturi.

O'zbekistonning yoqilg'i-energetika sohasidagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Elektr energiyasini ishlab chiqarish – 48 mlrd. kVt soat (dunyoda 53 o'rinda);

Elektr energiyasining yillik iste'moli – 42,9 mlrd. kVt soat (dunyoda 52 o'rinda);

Elektr energiyasi eksporti – 11,66 mlrd. kVt soat (dunyoda 20 o'rinda);

Elektr energiyasi importi – 11,58 mlrd. kVt soat (dunyoda 19 o'rinda);

Elektr stansiyalarning o'rnatilgan quvvati – 12,3 mln. kVt (dunyoda 52 o'rinda, Markaziy Osiyoda 50%);

Neft qazib chiqarish – 104400 barrel/kun (dunyoda 48-o'rinda);

Neftning tasdiqlangan zaxirasi – 594 mln. barrel (dunyoda 48-o'rinda);

Tabiiy gaz ishlab chiqarish – 60,11 mlrd. kub m (dunyoda 16 o'rinda);

Tabiiy gazning tasdiqlangan zaxirasi – 1,841 trln. kub. m (dunyoda 20 o'rinda).

O'zbekiston Respublikasida «Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida»gi qonun (1997-yil 25-aprel) qabul qilingan bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarning yoqilg'i qazib olish, yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasi hosil qilish, ularni qayta ishlash, saqlash, tashish, taqsimlash va sarflash bilan bog'liq faoliyatni tartibga soladi.

2009-yil 30-sentabr «Elektr energetikasi to'g'risida»gi qonunida elektr energetikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish masalalari ko'rilgan. Ushbu qonunga muvofiq:

Elektr energiyasi – bir vaqtning o'zida hosil qilinishi va iste'mol qilinishi bilan tavsiflanadigan alohida turdagi tovar. Elektr energetikasi elektr energiyasini hosil qilish, uzatish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish sohasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga ko‘ra:

1992-yil 16-oktabrdagi 474-sonli «Energiya resurslariga bo‘lgan narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to‘g‘risida»gi qarorida elektr energiya narxlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi lozimdir. 2004-yil 1-martdagi 96-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Elektr energetikada nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi to‘g‘risidagi Nizom»da elektr energiyasi sarflanishi davlat organlari tomonidan nazorat qilinishi belgilandi. 2006-yil 7-avgustdagi 164-sonli «Yog‘ilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarini energetika tekshiruvidan va ekspertizadan o‘tkazish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorida, 2007-yil 11-yanvardagi 12-sonli «Elektr energiyasi iste’molini barqarorlashtirish bo‘yicha qo‘shima chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2001-yil 2-maydagi 203-sonli «O‘z.R. ko‘mir sanoatini texnik qayta jihozlashning birinchi bosqichini amalga oshirish borasidagi choralar to‘g‘risida»gi qarori, 2003-yil 7-avgustdagi 345-sonli «Ko‘mir tannarxini pasaytirish va ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2009-yil 5-iyundagi 150-sonli «Elektr energiyasi iste’molini hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2009-yil 4-iyuldagi 186-sonli «Xususiy operatorlar faoliyatini tashkil etish va elektr energiyasi uchun o‘z vaqtida haq to‘lash chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlarida elektr energiyasidan foydalanish tartiblari belgilangan.

Energetika siyosatini isloh etish tamoyiliga asoslangan yoqilg‘i izchil amalga oshirish natijasida O‘zbekiston nisbatan qisqa vaqt ichida respublika yoqilg‘i-energetika majmuasini turg‘un va barqaror rivojlantirishga erishdi.

8.3. O‘zbekiston yoqilg‘i sanoati va uni boshqarish

O‘zbekistonda yoqilg‘i sanoati tabiiy gaz, neft, ko‘mir qazib chiqarishni va ularni qayta ishlashni hamda tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston yer

qa'ri katta zaxiraga boy uglevodorod xomashyosiga ega. Respublika hududining 60% neft va gaz mavjud potensial zonalar hisoblanadi. Respublikada 211 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan. Ulardan 108 tasi gaz va gaz kondensat, 103 tasi neft, neft-gaz va neft va gaz kondensat konlaridir. Konlarning 50% ishlab turibdi, 35% o'zlashtirilishiga tayyor turibdi, qolgan konlarda qidiruv ishlari davom etmoqda.

Neft va gaz kondensatini qayta ishlash 2 ta zavodda amalga oshiriladi:

1. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi (1959-yilda ishga tushirilgan, 2000-yilda rekonstruksiya qilingan).
2. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (1997-yilda ishga tushirilgan).

Gazni qayta ishlash 3 ta zavodda amalga oshiriladi:

1. Muborak gazni qayta ishlash zavodi (1971-yilda ishga tushirilgan bo'lib, gaz kondensati, suyultirilgan gaz, gazli texnik oltingugurt kabi mahsulotlarni ishlab chiqaradi).
2. Sho'rtan gazni qayta ishlash zavodi (har yili 20 mlrd. kub m gazni qayta ishlaydi).
3. Sho'rtan gaz-kimyo kompleksi (2001-yil ishga tushirilgan).

Surgil koni bazasida qurilayotgan Ustyurt gaz-kimyo kompleksi kelgusida respublikada to'rtinchi gazni qayta ishlash zavodi bo'ladi (loyihaning qiymati – 25 mlrd. doll., 2016-yilda ishga tushish rejalashtirilgan).

Bugungi kunda O'zbekiston yoqilg'i sanoati «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi tomonidan boshqariladi.

O'zbekiston yoqilg'i sanoatini boshqarish tizimi O'z.R. Prezidentining 1992-yil 3-maydagi «O'zbekneftgaz O'zbekiston neft va gaz sanoati davlat konsernini tashkil etish to'g'risida» farmonining qabul qilinishi bilan shakllantirilgan.

O'z.R. Prezidentining 1992-yil 23-dekabrdagi farmoniga muvofiq «O'zbekneftgaz» davlat konserni «O'zbekneftgaz» milliy korporatsiyaga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 11-dekabrdagi PF-2154-sonli farmoniga asosan «O‘zbekneftgaz» milliy korporatsiya «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga aylantirilgan hamda Vaz.Mah. ning 523-sonli qarori bilan uning faoliyati tashkil etilgan.

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi – vertikal integratsiyalashgan uch pog‘onali xolding kompaniya bo‘lib hisoblanadi. Uning hozirgi kundagi strukturasi va boshqaruv tizimi O‘z.R. Prezidentining 2006-yil 21-avgustdagi PQ-446-sonli hamda 2008-yil 1-iyuldagi PQ-906-sonli qarorlariga muvofiq tasdiqlangan.

Uning tarkibiga 6 ta aksiyadorlik kompaniyalari kiradi:

1. «Uzgeoburneftegaz» AK – geologiya-qidiruv ishlarini, neft va gaz quduqlarini dastlabki burg‘ilashni amalga oshiradi.

2. «Uzneftegazdobqcha» AK – neft va gaz konlarini ishlab chiqish, neft, gaz va gaz kondensatini qazib chiqarish hamda tabiiy gazni qayta ishlash bilan shug‘ullanadi.

3. «Uztransgaz» AK – aholini tabiiy gaz bilan ta’minlaydi, gazni yer ostida saqlash va transportda tashishni amalga oshiradi, gazni chet davlatlarga chiqarishni ta’minlaydi.

4. «O‘zneftmahsulot» AK – respublika neftni qayta ishlash zavodlarini boshqaradi, neft va gaz kondensatini qayta ishlashni amalga oshiradi, neft mahsulotlarini respublika aholisi va iqtisodiyot boshqa tarmoqlariga sotadi, o‘zining neft bazalari, terminallari va yoqilg‘i quyish stansiyalari tarmog‘iga ega.

5. «Uzneftegazstroyinvest» AK – neft va gazni qazib chiqarish, tashish va qayta ishlash obyektlarini loyihalash, kapital qurish va tashkil etishni amalga oshiradi.

6 «Uzneftegazmash» – neft-gaz va gaz-kimyo korxonalari uchun mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqaradi, neft-gaz sanoatining mashinasozlik zavodlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Neft va gaz mavjud bo‘lgan beshta asosiy mintaqani ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-G‘arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg‘ona mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zaxiralari bir trillion AQSH dollaridan ziyod baholanmoq-

da. O'bekistonda neft va gaz xomashyosini qazib chiqarish hajmi yiliga 86 mln. tonna shartli yoqilg'ini tashkil etadi.

8.4. O'zbekiston elektr sanoatini rivojlantirish

O'zbekiston elektr energetikasi 2001-yildan boshlab «O'zbekenergo» Davlat aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko'rsatib kelmoqda va o'z ichiga ko'mir sanoati korxonalarini ham olgan. Kompaniya tarkibiga 53 ta korxona va tashkilot, shu jumladan 39 ta ochiq aksiyadorlik jamiyati, 11 ta unitar korxona, 2 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat va kompaniyaning «Energosotish» filiali kiradi.

Elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organ — «O'zbekenergo» DAK ning asosiy vazifalari:

- yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini hamda iste'molchilarning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlari qanoatlantirilishini ta'minlaydi;
- elektr energetikasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi;
- elektr energiyasini hosil qilish va uning iste'moli balansini shakllantirishda ishtirok etadi hamda elektr energiyasi tariflari yuzasidan takliflar kiritadi;
- yagona elektr energetikasi tizimining ishlab turishi rejimini belgilaydi;
- magistral elektr tarmoqlarini boshqaradi;
- energiya hosil qiluvchi quvvatlarni va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi;
- yagona elektr energetikasi tizimining tizim operatori, elektr energiyasining yagona xarid qiluvchisi, magistral elektr tarmoqlari korxonasi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- elektr energetikasi sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- elektr energetikasi sohasida texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

• elektr energetikasi obyektlaridagi ilmiy tadqiqot, sozlash, ta'mirlash va muhandislik-loyiha ishlarini muvofiqlashtiradi;

• elektr energiyasi va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi.

Elektr energetikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

1. O'zbekiston Respublikasining elektr energetika xavfsizligini ta'minlash.

2. Yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini ta'minlash, iste'molchilarning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish.

3. Iste'molchilarning hududiy elektr tarmoqlaridan teng foydalanishini ta'minlash.

4. Energiya hosil qiluvchi quvvatlarni va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilish.

5. Elektr energiyasini hosil qilish, uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv hamda xo'jalik aloqalari tizimiga bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish.

6. Elektr energetikasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash.

7. Elektr energiyasidan va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish.

Elektr energetikasi sohasida davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar:

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
• elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organ;
• elektr energetikasi sohasidagi davlat nazorati organi;
• mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Iqtisodiy islohotlar yillari mobaynida sohaning energetik korxonalari tomonidan har yili 48 mlrd. kVt.soat elektr energiyasi va 10 mln. Gkal.dan ortiq issiqlik energiyasi ishlab chiqarilmoqda,

bu esa iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabini to'liq qondirmoqda.

O'zbekiston elektr stansiyalarining o'rnatilgan quvvati 12,3 mln. kVt.dan ortadi va butun Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimidagi ishlab chiqarish quvvatlarining deyarli 50 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 12,0 mln. kVt bo'lgan 39 ta elektr stansiyalarini hamda umumiy quvvati 10,6 mln. kVt bo'lgan 5 ta yirik issiqlik elektr stansiyalarini o'z ichiga olgan. Tolimarjon, Sirdaryo, Yangi Angren va Toshkent IES kabi yirik IES lar 85% dan ortiqroq elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan birlamchi energiya resurslari tarkibida gaz ulushi 90,8 foizni, mazut ulushi 5,3 foizni, ko'mir ulushi 3,9 foizni tashkil etadi. Bu tendensiya yaqin kelajakda ham saqlanib qoladi – asosiy yoqilg'i tabiiy gaz bo'lib qoladi, yoqilg'i balansida ko'mirning ulushi 10–12 foizga ortadi.

O'zbekiston qidirib topilgan ko'mirning 1900 mln. tonna miqdoridagi zaxiralariga egadir, shu jumladan qo'ng'ir ko'mir zaxiralari 1853 mln. tonnani, toshko'mir zaxiralari 47 mln. tonnani tashkil etadi. Prognoz resurslari 5,7 mlrd. tonnadan ko'proqdir. Toshko'mirning katta zaxiralari respublikaning janubiy hududlarida – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida to'plangan. Hozirgi paytda 3 ta konda: Angren, Sharg'un va Boysun konlarida ko'mir qazib chiqarilmoqda.

O'zbekistonda ko'mir qazib chiqarishni «O'zbekenergo» DAK tarkibiga kiruvchi «O'zbekko'mir» OAJ, shuningdek, «Sharg'unko'mir» OAJ va «Apartak» OAJ amalga oshiradi. Angren konidagi «Angren» ko'mir razrezi ko'mir zaxiralarini ochiq usulda qazib oladi, bundan tashqari «Yerostigaz» OAJ tomonidan yer ostida gazlashtirish usuli bilan qo'ng'ir ko'mirdan gaz ishlab chiqariladi.

«O'zbekko'mir» OAJ har yili 3 mln. tonnaga yaqin ko'mir qazib chiqaradi. Ko'mir yoqilg'isining asosiy iste'molchisi elektr energetikasi sektori bo'lib, uning ulushiga umumiy iste'mol qilina-

digan ko'mirning 85 foizi to'g'ri keladi. Sanoat, ijtimoiy va kommunal soha korxonalari ham ko'mir yoqilg'isiga bo'lgan talabni shakllantiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sanoatning bazali tarmoqlariga, xususan yoqilg'i-energetika majmuasi korxonalariga juda katta madad berib turdi, bunda davlatning siyosati quyidagilarni nazarda tutadigan energetika siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga yo'naltirildi:

- Neft va gaz kondensati qazib chiqarishni oshirish yo'li bilan yoqilg'i mustaqilligini ta'minlash;
- Energetika tarmog'ining mustahkam xomashyo bazasini yaratish;
- Aholiga tabiiy va suyuq gaz, elektr energiyasi va zamonaviy yoqilg'i turlarini maksimal darajada yetkazish;
- Energetika tarmog'ining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tarmoqqa qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish.

Quyidagi diagramma ma'lumotlarida sanoat mahsulotlari, yoqilg'i sanoati va elektr energetika to'g'risida ma'lumotlar keltirish mumkin.

Diagrammada ko'rib turganimizdek, sanoat mahsulotlari va yoqilg'i sanoati, elektr energetika o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O'zbekiston elektr energetikasini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, elektr energiya bozorini shakllantirish va rivojlantirish;
- respublika iqtisodiyotini va aholisini sifatli elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash;
- energetik korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- energetik ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;
- Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimi doirasida integratsion jarayonlarni yanada rivojlantirish.

5-diagramma

Sanoat mahsulotlari, yoqilg'i-sanoati, elektr energetika o'sish dinamikasi, mlrd. so'm[1]





Ko'mir sanoatini ustuvor rivojlantirish uchun asosiy omillar:

— qimmatroq energiya resurslarini mamlakat iqtisodiyotining ehtiyojlari uchun bo'shatish maqsadida, ularni ko'mir bilan almashtirishning maqsadga muvofiqligi;

[1] O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot Vazirligi ma'lumotlari.

– mamlakatning yoqilg'i-energetik balansi tarkibida ko'mir ulushini oshirish zarurati.

Ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish dasturi korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash, modernizatsiya qilish, kon ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan, resurslarni tejaydigan yangi, progressiv texnologiyalarni joriy etish.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan 2011–2015-yillarda O'zbekistonda yoqilg'i-energetika majmuasi bo'yicha amalga oshiriladigan yangi loyihalar haqida ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, mustaqillikning birinchi yillarida O'zbekistonning yoqilg'i-energetika sohasidagi siyosati ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni hal etish uchun mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlashga va milliy energetika salohiyatidan foydalanishga yo'naltirilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Yoqilg'i-energetika majmuasi va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi ahamiyati qanday?
2. Yoqilg'i sanoati va uning tarkibini izohlab bering.
3. Elektr energetika sanoati va uning tarkibini izohlab bering.
4. Yoqilg'i va elektr energiyasini transportda tashish va taqsimlash qanday amalga oshiriladi?
5. Davlatning yoqilg'i-energetika siyosati nima, uning mohiyati va ahamiyati qanday?
6. O'zbekistonda yoqilg'i va energetika sohalarini tartibga solishning qanday huquqiy asoslari mavjud?
7. O'zbekiston yoqilg'i sanoati va uni boshqarish tizimini tushuntirib bering.
8. O'zbekiston elektr energetikasi sanoati va uni boshqarish tizimini tushuntirib bering.
9. O'zbekistonda yoqilg'i-energetika tizimini rivojlantirishning qanday yo'nalishlari va istiqbollari belgilangan?

9-BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI RIVOJLANISHIDA MOLIYA INSTITUTLARINING ROLI

9.1. Moliya institutlari, ularning funksiyalari va mohiyati

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Moliya-bank tizimining yanada mustahkamlanishi xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan ham bog'liq. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi»[1].

Bozor iqtisodiyotiga o'tgan har qanday mamlakat moliyaviy tizimining asosiy elementlaridan biri moliyaviy bozorlar va moliya institutlari hisoblanadi.

Tor ma'noda, moliya instituti – bu pul mablag'larini yetkazish, kreditlash, investitsiyalash va ularni turli moliyaviy instrumentlar yordamida o'zlashtirish bo'yicha operatsiyalar bilan shug'ullanadigan tashkilotdir. Keng ma'noda, moliya instituti – bu pul mablag'lar oborotiga xizmat ko'rsatadigan va ularning aylanishini ta'minlaydigan, moliyaviy instrumentlarni jalb qilish, joylashtirish, jamg'arish, berish, yetkazishni amalga oshiradigan, shuningdek, unga berilgan huquqlar va qabul qilingan majburiyatlar (tegishli litsenziya) asosida moliya bozorida turli operatsiyalarni mustaqil va topshiriq bo'yicha olib boradigan va o'z vako-

[1] I.A. Karimov. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi». Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 2010-yil 12-noyabr

lati doirasidagi faoliyati uchun to'la mas'uliyatni zimmasiga olgan ixtisoslashtirilgan korxona, tashkilot, muassasa.

Moliya institutining asosiy vazifasi – moliya bozorida vositachilikni tashkil etish va vositachi sifatida xizmat ko'rsatish, ya'ni pul mablag'larini (to'g'ri yoki bilvosita shaklda) omonatchidan (investor) qarz oluvchiga (kompaniya) samarali yetkazib berish va joylashtirishdir. Moliya institutlari iqtisodiyot bo'ylab pul oqimini aylanishi ta'minlab turishini ta'minlaydi va quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Moliyaviy resurslarni jamg'arish.
2. Vositachilik.
3. Moliyaviy transformatsiya.
4. Riskni o'tkazish (sug'urtalash).
5. Valuta operatsiyalarini tashkil etish.
6. Likvidlikni ta'minlashga ko'maklashish.
7. Kompaniyalar tashkiliy-huquqiy shakllarini o'zgartirish bo'yicha operatsiyalarni tashkil etish.

Moliya institutlarining jamg'arish funksiyasi pul mablag'larini ularni keyinchalik ishlatish (maqsadli investitsiyalash va iste'mol qilish) uchun jamlashni nazarda tutadi.

Vositachilik moliya institutlarining asosiy funksiyasi hisoblanib, jamg'arish funksiyasini mantiqan to'ldirib turadi, chunki jamg'ariladigan pul mablag'larni to'plab hamda ular uchun to'lovlarni amalga oshirib, moliya instituti daromad keltiradigan mablag'larni ishlata bilishi kerak, bu esa nafaqat omonatchilarga to'lash uchun, balki o'ziga foyda sifatida qolish uchun yetarli bo'ladi.

Moliya institutlarining moliyaviy transformatsiya funksiyasi shundan iboratki, qisqa muddatli moliyaviy aktivlar uzoq muddatli moliyaviy aktivlarga aylantiriladi. Bunga esa aktivlarni sekyuritizatsiya qilish yo'li bilan erishiladi, ya'ni bunda kredit tashkiloti nisbatan o'xshash mol-mulk bilan ta'minlangan kreditlarni guruhlab, umumiy ta'minlangan mol-mulk ostida qimmatli qog'ozlarni chiqaradi.

Moliya institutlarining riskni o'tkazish funksiyasi turli usullar bilan erishiladi, xususan garantiyalar va kafolatlarni olish, riskni bir qismini moliyaviy vositachiga o'tkazish, riskni sug'urtalash.

Moliya institutlari valuta operatsiyalarni tashkil etish orqali kompaniyalarga xalqaro moddiy boyliklar va ishlab chiqarish omillari bozoriga chiqishlariga yordam berishadi. Bunday operatsiyalarga qo'shma korxonani tashkil etish, xorijiy investorni axtarish istagi, chet el vakolatxonasini ochish, xorijdan yangi texnikani sotib olish va h.k. kiradi.

Likvidlikni ta'minlashga ko'maklashish funksiyasini bajarishda moliya institutlari yuqori likvidli moliyaviy mahsulotlarni (ya'ni aksiyalar, qisqa muddatli obligatsiyalar) taklif qilish orqali kompaniyalarga o'z pul mablag'larini ushbu moliyaviy mahsulotlarga investitsiya qilishlariga va shu tariqa ularning aktivlarini likvidli bo'lishiga ko'maklashadi.

Kompaniyalar tashkiliy-huquqiy shakllarini o'zgartirish bo'yicha operatsiyalarni tashkil etish funksiyasi moliya instituti tomonidan muayyan kompaniyaning tashkiliy-huquqiy shaklini, masalan, MChJ ni OAO ga aylantirish bo'yicha tartibotni amalga oshirishni va bunda kompaniyaga qo'shimcha moliyalashtirishni olish imkoniyatini berishni nazarda tutadi.

Moliya institutlarining asosiy turlari:

1. Banklar:
- Tijorat banki;
- Investitsiya banki;
- Ipoteka banki.

2. Nobank kredit tashkilotlari:
- Lombard;
- Kredit shirkati (19-asrda Rossiya imperiyasida);
- O'zaro kredit jamiyati (19—20-asrlarda Rossiyada);
- Kredit uyushmasi (yoki kredit kooperativi);
- Sug'urta kompaniyasi;
- Xususiy pensiya fondi;
- Lizing kompaniyasi;

• Moliyaviy kompaniyalar.

3. Investitsion institutlar:

• Fond birjasi;

• Investitsion fond va investitsion kompaniya;

• Investitsion vositachilar (broker, diler, anderrayter).

Kredit tashkiloti – bu o'z asosiy faoliyatining maqsadi sifatida foyda olish uchun Markaziy bankning maxsus ruxsati (litsenziya) asosida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs. Kredit tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Kredit tashkilotlarining ikki asosiy guruhi ajratiladi:

1. Tijorat banklari.
2. Nobank kredit tashkilotlari.

O'zbekiston Respublikasida asosiy faoliyati kreditlar ajratish bo'lgan quyidagi kredit tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi:

1. Tijorat banklari.
2. Mikrokredit tashkilotlari.
3. Lombardlar.
4. Chet el banklari vakolatxonalari.

Tijorat banki tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish. O'zbekistonda banklar aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Banklarning asosiy turlari:

– Universal bank – bank operatsiyalarining barcha asosiy turlarini amalga oshiradigan bank;

– Investitsiya banki – investitsiyalarga, xususan qimmatli qog'ozlarga ixtisoslashgan bank;

– Jamg'arma banki – aholi pul mablag'larini jalb qilishga ixtisoslashgan bank;

– Ipoteka banki – ipoteka kreditini berishga ixtisoslashgan bank.

Nobank kredit tashkiloti – bu qonun bilan belgilangan alohida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini qonuniy tartibda olgan tijorat tashkiloti.

2013-yil 1-aprel holatida O'zbekistonda jami 29 ta tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi. Ular kapitalining umumiy qiymati 6,3 trln. so'mni tashkil etadi. Bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi 24 foizni tashkil etadi va u xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan talab (8 foiz) ga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lib, 2013-yilning 1-aprel holatiga ko'ra bank aktivlari 36,4 trln. so'mdan oshib ketdi. Respublikaning yetakchi banklari: Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, «Asakabank», «O'zsanoatqurilishbank», «Agrobank», «Ipotekabank» hamda «Ipak yo'li», Xalq banki, «Qishloqqurilish bank», «Mikrokreditbank». Banklar tomonidan, shuningdek, ustuvor vazifa qilib belgilangan mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida noan'anaviy yondashuvning amalga oshirilishi natijasida tijorat banklari balansiga qabul qilingan 120 ta iqtisodiy nochor korxona ishga tushirilib, yangi strategik investorlarga sotildi. Natijada 25 mingdan ziyod qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi. Mazkur korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan 560 mln. AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

Mikrokredit tashkiloti – bu mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va qonunda belgilangan boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Mikrokredit tashkilotlari yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin. 2013-yil 1-aprel holatida O'zbekistonda jami 29

ta mikrokredit tashkilotlari litsenziya asosida faoliyat ko'rsatadi, ular quyidagi asosiy xizmat turlarini amalga oshirishadi:

– Mikrokredit – qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari;

– Mikroqarz – jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining 100 baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari;

– Mikrolizing – lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmat bo'lib, lizing eng kam ish haqining 2000 baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Lombard – bu ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy faoliyat turi bo'lib aholining ko'char mulk zalogi ostida va boshqa buyumlarni saqlash asosida ularga qisqa muddatli qarzlarni berish hisoblanadi. Lombardlar O'zR MB ning maxsus litsenziyasi asosida faoliyat yuritadi. Lombardlarda qimmatli metall buyumlari, avtotransport kabi mulklar qabul qilinadi, ularning qiymati esa tomonlar kelishuviga binoan belgilanadi. 2013-yil 1-aprel holatida O'zbekistonda jami 45 ta lombardlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning barchasi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan.

Chet el banklari vakolatxonalari – O'zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilingan chet el banklari tomonidan ochilgan vakolatxonalar. 2013-yil 1-aprel holatida O'zbekistonda jami 6 ta chet el banklari vakolatxonalari faoliyat ko'rsatadi:

1. «Pokiston milliy banki» (National Bank of Pakistan), Pokiston
2. «Kommertsbank AG» (Sommerzbank AG), Germaniya.
3. «Landesbank Berlin AG» (Landesbank AG) Germaniya.

4. «Djey Pi Morgan Cheyz Banki» (J'Morgan Chase Bank, N.A.) AQSH.

5. «Koreya eksport-import banki» (Export-Import Bank of Korea) Koreya Respublikasi.

6. «Shinxan banki» (Shinhan bank) Koreya Respublikasi.

O'zbekiston Respublikasi banklar va nobank kredit tashkilotlari va ularning faoliyatlari «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun (1995-yil 21-dekabr), «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun (1996-yil 25-aprel), «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun (2012-yil 17-dekabr), «Bank siri to'g'risida»gi Qonun (2003-yil 30-avgust), «Kredit axborot almashinuvi to'g'risida»gi Qonun (2011-yil 4-oktabr), «Mikromoliyalash to'g'risida»gi Qonun (2006-yil 15-sentabr), «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonun (2006-yil 20-sentabr), «Ipoteka to'g'risida»gi Qonun (2006-yil 4-oktabr), «Iste'mol krediti to'g'risida»gi Qonunlari (2006-yil 6-may) asosida tartibga solinib turiladi.

9.2. Sug'urta kompaniyalari va ularning faoliyati

Sug'urta — bu yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan, shuningdek, sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

Sug'urta faoliyati — sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati. O'z.R. da sug'urta faoliyati Moliya vazirligi tomonidan litsenziyalanadi.

Sug'urta kompaniyalari — sug'urta faoliyati bilan shug'ullanadigan sug'urta bozorining professional ishtirokchilari.

Quyidagi rasmda sug'urta bozorining umumiy tuzilishi keltirib o'tilgan.

Sug'urta bozorining tuzilishi 3 jihati bilan xarakterlanadi: institutsional, hududiy va tarmoq jihatlari.



5-rasm. Sug'urta bozorining umumiy tuzilishi



6-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorining tuzilishi va uning professional ishtirokchilari

Institutsional jihati bo‘yicha sug‘urta bozori quyidagilardan iborat:

1. Davlat sug‘urta kompaniyalari.
2. Aksiyadorlik sug‘urta kompaniyalari.
3. Xususiy sug‘urta kompaniyalari.
4. Korporativ sug‘urta kompaniyalari.
5. O‘zaro va boshqa sug‘urta kompaniyalar.

Hududiy jihati bo‘yicha sug‘urta bozori quyidagilarga bo‘linadi:

1. Mahalliy (hududiy) sug‘urta bozori.
2. Milliy (ichki) sug‘urta bozori.
3. Jahon (tashqi) sug‘urta bozori.

Tarmoq jihati bo‘yicha quyidagilar:

1. Shaxsiy sug‘urta.
2. Mol-mulk sug‘urtasi.
3. Javobgarlik sug‘urtasi.

Quyidagi rasmda O‘zbekiston sug‘urta bozorining tuzilishi va uning professional ishtirokchilari to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

O‘zbekistonda sug‘urta bozori dinamik tarzda rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanib, bunda uning salohiyati oshib bormoqda. Mamlakatimizda sug‘urta bozorining rivojlanishi sug‘urta faoliyatini monopoliyadan chiqarish bilan boshlangan va natijada muqobil sug‘urta tashkilotlarining soni o‘sishi kuzatilgan.

Quyidagi rasmda O‘zbekiston sug‘urta bozori turkumlanishi keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-fevraldagi 125-sonli «O‘zagrosug‘urta davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni bilan tugatildi.

2013-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda jami 36 ta litsenziyalangan sug‘urta kompaniyalari faoliyat ko‘rsatadi. Shundan 33 tasi umumiy sug‘urtalash bilan, 2 tasi hayotni sug‘urtalash bilan va bittasi faqat qayta sug‘urtalash faoliyati bilan shug‘ullanadi.



7-rasm. O'zbekistonda sug'urta klasslari

Quyidagi rasmda O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining bozor hissasi (sug'urta premiyalari bo'yicha) haqida ma'lumot keltirilgan.

12-jadval

O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining bozor hissasi to'g'risida ma'lumot

Rang	Sug'urta kompaniyasi	Sug'urta premiyasi mln.so'm	Bozor hissasi, %
1	«Uzagrosug'urta»	28 264,95	16,49%
2	«Uzbekinvest»	23 238,19	13,55%
3	«UVT Inshurans»	17 140,65	10,00%
4	«Ingo Uzbekistan»	13 247,47	7,73%

5	«Kafolat»	11 699,10	6,82%
6	«Alfa Invest» (sj)	9 210,22	5,37%
7	«Asia Inshurans»	8 529,91	4,98%
8	«Kapital Sug'urta»	8 272,54	4,83%
9	«ALSKOM»	6 981,49	4,07%
10	«Transinsurance»	5 193,42	3,03%
11	«Transinsurance plus»	5 159,14	3,01%
12	«TemirYo'l-Sug'urta»	4 764,92	2,78%
13	«Agro Invest Sug'urta»	4 233,58	2,47%
14	«O'zbekinvest Hayot»(sj)	3 496,56	2,04%
15	«Universal Sug'urta»	2 553,86	1,49%
16	«Unipolis»	2 022,52	1,18%
17	«Inter-Tesko»	2 005,38	1,17%
18	«Kafil-Sug'urta»	1 816,84	1,06%

Sug'urta kompaniyalari va ularning faoliyati «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun (2002-yil 5-aprel), «Umumiy foydalanishdagi havo, temiryo'l, ichki suv va avtomobil transporti yo'lovchilarining majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida»gi Qonun (1993-yil 7-may), «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonun (2008-yil 21-aprel), «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi (2009-yil 16-aprel) qonunlari, «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-872-sonli qaror (2008-yil 21-may), «Sug'urtachining moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1544-sonli (2011-yil 31-may) Prezident qarorlari bilan tartibga solinadi.

9.3. Investitsiya fondlari va fond birjalari

Investitsiya fondi — investorlarning pul mablag'larini jalb qilish va ularni qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlarga, boshqa investitsiya aktivlariga, shuningdek, banklardagi hisobvaraqlarga va omonatlarga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqaradi-

gan yuridik shaxs. Investitsiya fondlari kollektiv investitsiyalashni amalga oshiradi va odatda aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

Investitsiya kompaniyasi – investitsiya fondlarining investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Investitsiya fondlarining asosiy turlari:

- Aksiyadorlik investitsiya fondi;
- Xususiylashtirish investitsiya fondi;
- Pay fondi;
- Xej-fond;
- Chekli investitsiya fondi.

Investitsiya fondlarining funksiyalari:

- Individual investorlarning jamg'arma mablag'larini to'plash;
- Investitsion resurslarni samarali boshqarish;
- Individual investorlarning mablag'larini turli moliyaviy instrumentlarga qo'yish (aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar) orqali risklarni divesifikatsiya qilish;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni o'tkazish xarajatlarini ko'p sonli operatsiyalar hisobida kamaytirish.

Investitsion fond va investitsion kompaniyalar faoliyati «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun (1996-yil 26-aprel), «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonun (2008-yil 13-fevral)lari bilan tartibga solinadi.

Birja avvaldan tayinlanadigan manzil va vaqtda belgilangan qoidalar asosida ochiq savdo-sotiq o'tkazish orqali birja tovarlari bilan erkin ulgurji savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, yuridik shaxs hisoblanadigan korxonadir.

Bugungi kunda O'zbekistonda quyidagi birjalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda:

1. Respublika fond birjasi «Toshkent».
2. O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi.
3. Respublika universal agrosanoat birjasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Valuta birjasi.

Fond birjasi – faoliyati qimmatli qog‘ozlarning aylanishi uchun zaruriy sharoitlarni ta’minlash, ularning bozor narxini aniqlash va ular to‘g‘risidagi axborotni tarqatish, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining yuqori darajadagi professionalligi ta’minlash hisoblangan tashkilot.

O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar «Toshkent» Respublika fond birjasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Valuta birjasining fondlar bo‘limida amalga oshiriladi.

«Toshkent» RFB O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi 745-sonli «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi 36-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Fond birjasining professional ishtirokchilari:

Broker – qimmatli qog‘ozlar bilan oldi-sotdi bitimlari tuzilishida o‘z mijozlarining topshirig‘iga binoan va ularning nomidan vositachilik xizmatini amalga oshiruvchi shaxs.

Diler — fond birjasida o‘z nomi va o‘z hisobidan qimmatli qog‘ozlar bilan vositachilikni amalga oshiruvchi shaxs.

Anderrayter – emitent qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va kafolatli joylashtirib berish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilot.

Fond birjalar va ularning faoliyati «Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun (1992-yil 2-iyul), «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi Qonun (2008-yil 13-fevral), «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunlari (1996-yil 26-aprel), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-fevraldagi 66-sonli «Birja faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 19-martdagi PQ-1727-sonli «Fond bozorini yanada rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tartibga solinadi.

9.4. Lizing kompaniyalari va ularning moliya instituti sifatidagi faoliyati

Lizing — moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing obyektlari – Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk.

Lizing subyektlari – lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi.

Lizing kompaniyasi – lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi yuridik shaxs.

Quyidagi rasmda lizing subyektlarining o'zaro munosabatlarini keltirib o'tamiz.



8-rasm. Lizing subyektlarining o'zaro munosabati

O‘zbekistonda lizing litsenziyalanmaydigan faoliyat turi bo‘lib hisoblanadi va u bo‘yicha operatsiyalar nafaqat ixtisoslashgan lizing kompaniyalari, balki tijorat banklari tomonidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizda lizing kapital yo‘qilmalarni investitsiyalashning eng istiqbolli yo‘llaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda lizing bozorining rivojlanish bosqichlari:

1-bosqich: 1991–1999-yy. Lizingning xalqaro mexanizmlarini joriy qilish va qonunchilik asoslarini shakllantirish.

2-bosqich: 1999–2005-yy. Lizing sohasidagi huquqiy bazani takomillashtirish va lizing bozorining hosil bo‘lishi.

3-bosqich: 2005–2012-yy. Lizingni ommaviylashtirish va lizing bozorida raqobatli muhitni shakllantirish, ajratmalarining barchasi chegirib tashlanadi.

O‘zbekistonda lizing bo‘yicha quyidagi imtiyozlar va afzalliklar berilgan:

- Lizingga berish uchun O‘zbekistonga olib kirilayotgan texnologik uskunalar QQS va bojxona bojidan ozod qilinadi;
- Lizing to‘lovlari QQS ga tortilmaydi;
- Lizing oluvchi lizing obyekti bo‘yicha mulk solig‘i to‘lamaydi;
- Lizing oluvchining foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazasi belgilanayotganda uni jami daromadidan lizingga oid foizlar hamda lizingga olingan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarining barchasi chegirib tashlanadi

Lizing kompaniyalari va ularning faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 6-bo‘lim. «Lizing», 587–599-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, «Lizing to‘g‘risida»gi Qonun (1999-yil 14-aprel), O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti №6 «Ijara hisobini yuritish», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi PF-3122-sonli «Lizing tizimini yanada rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi PQ-1754-sonli «2012–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasi-

da xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tartibga solinadi.

9.5. Xalqaro moliya institutlari va ularning infratuzilmani rivojlantirishdagi roli

Bugungi kunda davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini pul bozori yoki valuta bozori, undagi valuta operatsiyalarining rivojisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababli xalqaro moliya institutlari bilan bog‘liq jahon tajribasini o‘rganish O‘zbekiston Respublikasida shakllangan bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi xalqaro moliya institutlari:

1. Osiyo taraqqiyot banki (O‘zbekiston 1995-yilda a’zo bo‘lgan).
2. Islom taraqqiyot banki (O‘zbekiston 2003-yilda a’zo bo‘lgan).
3. Xalqaro moliya korporatsiyasi (O‘zbekiston 1993-yilda a’zo bo‘lgan).
4. Jahon banki (O‘zbekiston 1992-yilda a’zo bo‘lgan).
5. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (O‘zbekiston 1992-yilda a’zo bo‘lgan).
6. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (O‘zbekiston 1992-yilda a’zo bo‘lgan).
7. Xalqaro valuta fondi (O‘zbekiston 1992-yilda a’zo bo‘lgan).
8. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (O‘zbekiston 1992-yilda a’zo bo‘lgan).

O‘zbekistonda xalqaro moliya institutlari ishtirokida quyidagi infratuzilma loyihalari moliyalashtirilgan:

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida:

1. «Infratuzilmalarni rivojlantirish, shuningdek, Sirdaryo viloyati Oq oltin tumanidagi tarkibi o‘zgartirilgan xo‘jaliklarni qo‘llab-quvvatlash» loyihasi (1999) – 40 mln. doll. kredit.

2. «O‘zbekiston Respublikasiga kichik va o‘rta korxonalar loyihalarini mablag‘ bilan ta’minlash» (2001) – 50 mln. doll. kredit.

3. «Guliston, Jizzax va Qarshi shaharlarining suv ta’minoti tizimini takomillashtirish» (2002) – 36 mln. doll. imtiyozli kredit.

4. «Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ichimlik suv ta’minoti tizimini takomillashtirish» (2002) – 38 mln. doll. imtiyozli kredit.

5. «Amu-Zang mashina kanali tizimini tiklash» (2004) – 112,6 mln. doll. imtiyozli kredit.

6. «Elektr energiyasi uzatish magistral tarmoqlarini zamonaviylashtirish» (2004) – 70 mln. doll. imtiyozli kredit.

7. «Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlaridagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash» (2007) – 60,2 mln. doll. imtiyozli kredit va 18,5 mln. SDR (ekv. 27,6 mln. doll.).

8. «Mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish, 1-faza» (2008) – 75,3 mln. doll. imtiyozli kredit.

9. «Surxondaryo viloyatining suv ta’minoti va sanitariyasi» (2009) – 30 mln. doll. imtiyozli kredit va 1,5 mln. doll. Grant.

10. «Farg‘ona va Zarafshon vodiylarida suv resurslarini boshqarish» (2009) – 10,04 mln. SDR (ekv. 15 mln. doll.) va 85 mln. doll. imtiyozli kreditlar.

11. «Mintaqalararo Damxo‘ja suv quvuriga Navoiy va Buxoro viloyatlarining tuman markazlarini ulagan holda uni modernizatsiya qilish. Termiz shahrining kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish» (2010) – 300 mln. doll. va 38,34 mln. SDR (ekv. 60 mln. doll.) kreditlar.

12. «Mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish, 2-faza» (2010) – 600 mln. doll. imtiyozli kredit.

Jahon banki guruhi ishtirokida:

1. «Buxoro va Samarqand shaharlarini suv bilan ta’minlash» (2002) – 62,33 mln. doll. imtiyozli kredit va grant.

2. «O‘zbekistonning drenaj loyihasi. Janubiy Qoraqalpog‘istondan drenaj o‘tkazish» (2004) – 74,55 mln. doll. imtiyozli kredit.

Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha boshqa loyihalar:

– irrigatsiya-melioratsiya tarmog'ini rekonstruksiya qilish va samaradorligini oshirish;

– elektroenergetikada hosil qiluvchi quvvatlarni modernizatsiya qilish;

– shahar va qishloq infratuzilmasini rivojlantirish;

– ijtimoiy infratuzilmani (ta'lim, sog'. saqlash) rivojlantirish.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida:

1. «Toshkent xalqaro aeroportini rekonstruksiya qilish» (1998) – 48 mln. doll. imtiyozli kredit.

2. «Dizel lokomotivlari parkini zamonaviylashtirish» (2003).

Islom taraqqiyot banki ishtirokida:

1. «Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida irrigatsiya-drenaj tarmoqlarini tiklash» (2009) – 52,65 mln. doll. imtiyozli kredit, shuningdek, OPEK dan – 12,72 mln. doll. va Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondidan – 15,62 mln. doll. imtiyozli kreditlar.

2. «O'zbekistonda gidroelektr stansiyalarini modernizatsiyalash» (2012) – 100 mln. doll. imtiyozli kredit.

3. «Toshkent shahri ko'chalarni yoritish tizimida samarali energiya texnologiyalarini joriy etish» (2013)– 36 mln. doll. imtiyozli kredit.

Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha boshqa loyihalar:

– issiqlik va gidroelektr stansiyalarini qurish va modernizatsiyalash, elektr uzatish liniyalarini qurish;

– avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish, bu uchun qurilish texnikasini sotib olish;

– issiqlik va suv ta'minoti tizimini reabilitatsiya qilish va kengaytirish.

Nazorat uchun savollar:

1. Bozor iqtisodiyotida moliya institutlari va ularning asosiy turlari haqida gapirib bering.

2. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda moliya institutlarining roli va funksiyalari qanday?

3. Kredit tashkilotlari va ularning faoliyatini tavsiflab bering.

4. Tijorat banklari va ularning ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishdagi roli nimada deb o'ylaysiz?

5. Mikrokredit tashkilotlari va ularning ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishdagi roli nimada deb o'ylaysiz?

6. Lombardlar va ularning moliya instituti sifatidagi faoliyatini tavsiflab bering.

7. Sug'urta kompaniyalari va ularning faoliyatini tavsiflab bering.

8. Investitsion fondlar, investitsion kompaniyalar va ularning infratuzilmani rivojlantirishdagi faoliyati xususida gapirib bering.

9. Fond birjalari va ularning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ishtiroki qanday?

10. Lizing kompaniyalari va ularning moliya instituti sifatidagi faoliyati nimada?

11. Xalqaro moliya institutlari va ularning infratuzilmani rivojlantirishdagi roli va ahamiyati qanday?

10-BOB. KASABA UYUSHMALARI. ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI

10.1. Kasaba uyushmalari: tushunchasi, vazifalari va tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etishga huquqiy egadirlar. Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

Kasaba uyushmalari – bu faoliyat turi bo'yicha, ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatish sohasida, madaniyat sohasida umumiy ishlab chiqarish va kasbiy manfaatlari bilan bog'langan fuqarolarning ko'ngilli jamoat birlashuvidir. Bunday birlashmalar mehnat munosabatlarida ishlovchilar huquqlarini vakillik va himoya qilish, shuningdek, yollanma ishlovchilar nomidan kengroq vakillik qilish imkoniyati bilan tashkilot a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash maqsadida tashkil etiladi.

Kasaba uyushmalari ustavida belgilangan vazifalariga ega bo'lgan o'ziga xos jamoat tashkiloti sifatida jamiyatning siyosiy tizimiga kiradi. Kasaba uyushmalari jamiyatning yirik mustaqil instituti bo'lib, uning faoliyatidan bozor munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy yo'nalgan davlatning vujudga kelishi, iqtisodiy demokratiyaning rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Kasaba uyushmalarisiz yollanma mehnat xususiy tadbirkorlik, ma'muriyat va davlatning hukmronligi ostida qolishi mumkin.

Kasaba uyushmasining maqsadi – o'z a'zolariga beriladigan ish haqi oshirilishini ta'minlash, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash va qo'shimcha to'lov hamda imtiyozlarga ega bo'lish.

Kasaba uyushmalarining eng muhim vazifalari:

– Mehnat sharoitlarini yaxshilash va uning xavfsizligini ta'minlash;

– Ish haqini oshirish. Bunga ikki yo'l bilan erishish mumkin:

1) mehnatga talabning o'sishi uchun sharoitlarni yaratish hisobidan;

2) mehnat taklifini cheklash uchun sharoitlarni yaratish hisobidan.

Kasaba uyushmalarining funksiyalari:

1. Himoyalash funksiyasi – kasaba uyushmalarining mehnat sohasida ishlovchilarning qonuniy huquq va manfaatlari buzilishini ogohlantirish va ularni tiklashga, ularni buzuvchi kishilarni javobgarlikka tortishga yo'naltirilgan faoliyati.

2. Ishlovchilar manfaatlarini vakillik qilish funksiyasi – ish beruvchiga ishlovchilar nomidan ularning huquq va manfaatlarini himoyalash uchun murojaat qilish.

3. Madaniy-tarbiyaviy va siyosiy funksiyasi – o'z a'zolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlarini saylashda ishtirok etishga da'vat etish.

Kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy tamoyillari:

1. O'z faoliyatida mustaqillik tamoyili – kasaba uyushmalari o'z faoliyatida davlat boshqaruv idoralaridan, xo'jalik idoralaridan, siyosiy va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqildirlar, ular oldida hisobdor emaslar va ular tomonidan nazorat qilinmaydi.

2. O'z-o'zini boshqarish tamoyili – o'z nizomlarini mustaqil qabul qilish va o'z ichki faoliyatini mustaqil tartibga solish.

3. Kasaba uyushmalariga ko'ngilli birlashish tamoyili – barcha odamlar kasaba uyushmalariga birlashishi mumkin.

4. Kasaba uyushmalarining teng huquqliligi prinsipi – barcha kasaba uyushmalari va ularning bir darajadagi organlari a'zolarining sonidan qat'i nazar bir xil huquqlarga egalar.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi vazifalari:

1. O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining strategiya va taktikasini ishlab chiqish, a'zo tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ularni mustahkamlashga ko'maklashish.

2. Ijtimoiy sherikchilik tizimini rivojlantirish, ish beruvchilar va davlat hamda ijro hokimiyati organlari, kasaba uyushmalarining uch taraflama hamkorligi prinsiplarini amalga oshirishga ko'maklashish.

3. Ish beruvchilarning respublika birlashmalari bilan Bosh kelishuvni va Federatsiyaga a'zo tashkilotlar manfaatlariga javob beradigan boshqa kelishuvlarni ishlab chiqish va tuzish tashabbusi bilan chiqish, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

4. Mehnat munosabatlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalarni ratifikatsiya qilishga ko'maklashish.

5. Mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, boshqa mehnat huquqi normalari mavjud normativ huquqiy hujjatlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

6. Insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini, xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan sharoit yaratishga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy dasturini ishlab chiqish va shakllantirish.

7. Sanatoriy-kurortlarda davolanish, bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirish, madaniyat, turizm, ommaviy jismoniy tarbiya va sport muassasalarini rivojlantirish bo'yicha davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, birlashmalar, tashkilotlar bilan o'zaro aloqani o'rnatish, kasaba uyushmalari a'zolari va ularning oilalari o'rtasida sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish.

Quyidagi rasmda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tarkibi keltirilgan.

A'zo tashkilotlar:

- Aviaxodimlar kasaba uyushmasi;
- Transport, yo'l va kapital qurilishi, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi;
- Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi;
- Aloqa xodimlari kasaba uyushmasi;
- Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi;

• Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xodimlari kasaba uyushmasi;

• Yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati va geologiya xodimlari kasaba uyushmasi;

• Metallurgiya va mashinasozlik xodimlari kasaba uyushmasi;

• Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi;

• Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi;

• Temiryo'lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi;

• Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalari (14 ta).

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining tashkiliy tuzilmasi



9-rasm. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tarkibi

10.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishda kasaba uyushmalarining asosiy huquqlari

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida kasaba uyushma a'zolarining

mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini hamkorlikda amalga oshirish va himoya qilish uchun birlashgan O'zbekiston kasaba uyushmalarining kasaba uyushma tashkilotlari hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududida amal qiluvchi), tarmoq birlashmalari bilan ixtiyoriy asosda tuzilgan Respublika jamoat birlashmasidir.

Kasaba uyushmalari ishlab chiqarishni va mehnat muhofazasini tashkil etishda qonunga muvofiq quyidagi asosiy huquqlarga ega:

1. Qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishda qatnashish huquqi – mehnatga va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid qonun hujjatlari ishlab chiqishda qatnashish, bunga oid me'yoriy hujjatlar qabul qilish to'g'risidagi takliflarni tegishli davlat boshqaruvi, xo'jalik va kooperativ idoralariga taqdim etish.

2. Mehnat qilish huquqini himoya etish huquqi – o'z a'zolarining mehnat qilish huquqini himoya etish, aholini ish bilan ta'minlash davlat siyosati ishlab chiqilishida qatnashish, ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruv idorasining tashabbusi bilan ish joylarining qisqartirilishi yoki ish sharoitining yomonlashuviga olib keladigan korxonani va undagi tarkibiy bo'linmalarni tugatish, ishlab chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish bo'yicha oldindan xabardor bo'lish.

3. Muzokaralar olib borish va jamoat shartnomalari, bitimlari tuzish huquqi – ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruv idorasi bilan jamoa muzokaralari olib borishda va jamoa shartnomalari, bitimlari tuzishda ustuvor huquqqa ega bo'lish, ularning bajarilishini nazorat qilish.

4. Mehnatkashlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish huquqi – mehnat sharoiti va mehnatga haq to'lash, mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashga, mehnatkashlarning uy-joy sharoitiga, ularni ijtimoiy sug'urtaga, ularni sog'liqni saqlash va madaniyatga taalluqli manfaatlarini himoya qilish.

5. Mehnat va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish huquqi – ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruv idorasi mehnat va kasaba uyush-

malari to‘g‘risidagi qonunlarga rioya etishlarini nazorat qilib borish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilish.

6. Mehnat nizolarini ko‘rib chiqish huquqi – kasaba uyushmasi a’zosi bilan ma’muriyat o‘rtasida paydo bo‘lgan yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko‘rib chiqish va ular yuzasidan qonunlarga muvofiq tegishli qarorlar qabul qilish.

7. Mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalariga doir ma’lumotlar olish huquqi – ma’muriyatdan, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralaridan mehnat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan belgilab qo‘yilgan statistika hisoboti doirasida bepul ma’lumotlar olish.

8. Ma’muriyat tomonidan jamoa shartnomasi bajarilishini nazorat qilish huquqi – ma’muriyat jamoa shartnomasi shartlarini buzuvchi qaror qabul qilgan taqdirda, ana shu qoidabuzarlikni bartaraf etish to‘g‘risida ma’muriyatga taqdimnoma kiritish.

Kasaba uyushmalari va ular faoliyatining huquqiy asoslari bo‘lib quyidagilar xizmat ko‘rsatishi mumkin:

BMT ning «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi» (1948-yil 10-dekabr): «Har qanday odam kasaba uyushmalarini yaratish va o‘z manfaatlarini himoyalash uchun kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lish huquqiga ega» (p.4, 23-modda);

«Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro pakt» (1966-yil): «Ushbu paktda ishtirok etayotgan davlatlar har bir kishining o‘z iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoyalash uchun kasaba uyushmalarini tashkil etish va ularga o‘z xohishiga ko‘ra a’zo bo‘lish huquqlarini ta’minlashga majburdirlar» (p.1, 8-modda);

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro pakt» (1966-yil, p.1, 22-modda);

Yevropa ijtimoiy Xartiyasi (5-modda);

Xalqaro mehnat tashkilotining 87-sonli «Uyushmalar erkinligi va ularni tashkil etish huquqlarini himoyalash to‘g‘risida»gi Konvensiyasi (1948-yil);

Xalqaro mehnat tashkilotining 98-sonli «Kasaba uyushmalariga uyushish va jamoa muzokaralarini olib borish huquqi prinsiplarini qo'llash to'g'risida»gi Konvensiyasi (1949-yil);

Xalqaro mehnat tashkilotining «Kasaba uyushmalari huquqlari va ularning fuqaro erkinliklari bilan o'zaro aloqasi to'g'risida»gi maxsus Rezolyutsiyasi (1970-yil).

O'zbekiston Respublikasida Kasaba uyushmalari va ular faoliyati quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (34-, 59-moddalar), O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi (1995-yil 21-dekabr) – 21-28-moddalari, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun (1992-yil 2-iyul), «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonun (1991-yil 15-fevral), «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonun (1999-yil 14-aprel), «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun (2007-yil 3-yanvar)lari bilan tartibga solinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kasaba uyushmalari nima va ularning qanday asosiy vazifalari mavjud?
2. Kasaba uyushmalari faoliyatining qanday asosiy prinsiplari mavjud?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasida kasaba uyushmalari va uning funksiyalari nimada?
4. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi faoliyati va uning vazifalarini tavsiflab bering.
5. Ishlab chiqarishni tashkil etishda kasaba uyushmalarining qanday asosiy huquqlari belgilangan?
6. Kasaba uyushmalarini ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etish va rivojlantirishdagi roli qanday?
7. Ishlab chiqarishni tashkil etishda kasaba uyushmalari faoliyatining qanday huquqiy asoslari bor?

11-BOB. MINTAQALARDA ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

11.1. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasi tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari

Ishlab chiqarish infratuzilmasi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy muhitining yashovchanligi ko‘p jihatdan mintaqa infratuzilmasining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, «Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur’atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liq»[1].

Mintaqa infratuzilmasi (hududiy infratuzilma) – bu mintaqa hududida moddiy ishlab chiqarishning samarali faoliyat yuritishi, barcha turdagi tovar va resurslarning erkin harakatlanishi va aholining normal muhitda yashashi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishni ta’minlab beradigan inshootlar va faoliyat turlari kompleksi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va uning raqobatdoshligi unda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir.

Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasining bozor munosabatlari tizimidan o‘rni uning quyidagi uch eng muhim funksiyalari bilan belgilanadi:

1) taqsimlash funksiyasi – infratuzilmaning tovar-moddiy zaxiralarni, moliyaviy va mehnat resurslarini tarmoqlar va mintaqa hududlari bo‘ylab taqsimlanishini ta’minlashdagi qobiliyati;

[1] I.A. Karimov. 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.

2) kommunikatsion funksiya – mehnat mahsulotlarini (tovar, xizmatlar, axborot va h.k.) teng qiymatli ayirboshlashini tashkil etish;

3) tartibga solish funksiyasi – turli-tuman mintaqaviy bozorda muvozanatlashgan talab va taklifni tiklash hamda ta'minlash.

Ushbu funksiyalarning rivojlanmaganligi ishlab chiqarish faoliyati to'xtab qolishiga va iqtisodiyotda salbiy sur'atlarning oshishiga olib kelishi mumkin.

Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Xizmat ko'rsatishdagi ahamiyati. Infratuzilmani tashkil etuvchi tarmoqlar yangi moddiy boyliklarni yaratmaydi. Infratuzilmani yaratishga ketgan xarajatlar u xizmat ko'rsatayotgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning mahsulotlari hisobidan qoplanadi (sanoat, qishloq xo'jaligi va h.k.).

2. Obyektlarni joylashtirish zichligining notekisligi. Mintaqa infratuzilmasi butun hudud bo'yicha tekis taqsimlanishi mumkin emas. Shu bilan birga, infratuzilma obyektlarini joylashtirish darajasi bo'yicha ko'proq va kamroq rivojlangan mintaqalar o'rtasidagi tafovut umumiy iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ko'rsatkichi singari unchalik kuchli emas.

3. Mintaqaning infratuzilma sig'imi. Mintaqa infratuzilmasi muhim darajada hududning iqtisodiy salohiyatini va uning xo'jalik sig'imini (qo'shicha xarajatlarni amalga oshirmasdan yangi korxona va tarmoqlarni qabul qilish qobiliyati) belgilaydi.

4. Miqdor jihatdan baholashning muhimligi. Infratuzilma obyektlarining ko'pgina qismi miqdor jihatdan baholanadi (quvvati, uzunligi, qiymati, o'tkazish qobiliyati, hajmi, kuchlanishi va h.k.).

5. Rivojlanishning kompleksligi. Mintaqa infratuzilmasi hududlardagi alohida tarmoqlarga emas, balki asosan xo'jalik komplekslariga butunlicha xizmat ko'rsatadi, shuning uchun uni rivojlantirishda kompleks yondashuv tarmoqli yondashuvga nisbatan ko'proq samarali hisoblanadi.

6. Inersiyaga asoslanganligi. Mintaqa infratuzilmasida obyektlar uzoq muddatni ko'zlab ishlatiladi, shuning uchun uni rivojlantirish asosan mavjud obyektlarni to'liq saqlagan holda ularda yangi elementlarni barpo etish bilan bog'liqdir. Bunday inersiyaga asoslanganligi qulay hisoblanadi, chunki infratuzilmani tubdan rekonstruksiya qilish juda katta xarajatlarni amalga oshirishga olib keladi. Shuning uchun mintaqa infratuzilmasining mavjud tizimlari istiqbolli infratuzilma tizimlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

11.2. Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda davlat va mahalliy hokimiyat organlarining roli

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish infratuzilmasi alohida o'rin egallaydi hamda uning rivojlanish darajasidan milliy iqtisodiyotning barcha strukturali elementlari faoliyati samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning majburiy sharti bo'lib davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi funksional-moliyaviy vakolatlarni oqilona taqsimlash hisoblanadi.

Davlat mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga ikki yo'l bilan ta'sir etishi mumkin:

1) to'g'ridan to'g'ri ta'sir;

2) bilvosita ta'sir.

Davlatning mintaqalar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda to'g'ridan to'g'ri ta'sir etishda uning asosiy funksiyasi bo'lib mahalliy hokimiyat organlariga zaruriy funksional-moliyaviy vakolatlarni topshirish hisoblanadi. Davlatning mintaqalar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda bilvosita ta'siri maxsus qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilish, davlat buyurtmalari, davlat imtiyozlarini berish, subsidiyalar va boshqa preferensiyalarni berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlarining mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi roli mintaqaviy siyo-

satni amalga oshirish bilan belgilanadi. Bunday siyosatning asosiy vazifalari bo'lib ustuvorli yo'nalishlarda resurslarning jamlanishini ta'minlash, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, fan, tadbirkorlik tuzilmalari va boshqa subyektlarning o'zaro kooperatsiyasi va strategik sherikligi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni natijadorligi nafaqat infratuzilmaning hududdagi tabiiy, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sharoitlarga mosligiga, balki uni boshqarish samaradorligiga ham bog'liq.

Mintaqa ishlab chiqarish infratuzilmasi davlatning tartibga solish harakatlari ta'siri ostida shakllanadi. U mulkchilik shakliga ko'ra ikki qismdan iborat: davlat va xususiy. Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy qismi davlatga tegishli bo'ladi va budjet tomonidan moliyalashtiriladi. Shunday bo'lsada, ishlab chiqarish infratuzilmasidagi davlat va xususiy sektorlarining nisbati bir tomondan davlat siyosati bilan shakllantirilsa, ikkinchi tomondan bozor subyektlarining tadbirkorlik faolligi bilan shakllanadi.

Mintaqa ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat siyosatining maqsadi – mintaqa ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasida xususiy biznesni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, xo'jalik subyektlarning manfaatlarini tartibga solish va past xarajatli ishlab chiqarishni ta'minlash. Xususiy tadbirkorlar infratuzilma obyektlarini rivojlantirishdan bepul va arzon xizmatlar ko'rinishida foyda olishadi. Bularning barchasi biznesning foydaliligini muhim darajada oshirishga va mamlakatda kapitalning jamg'arilish sur'atlarini tezlashtirishga imkon beradi.

Mamlakatda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbai sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarur. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotganini quyidagi diagrammadan ko'rish mumkin.



10-rasm. 2008–2013-yillar davlat investitsiya dasturlari doirasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalarning o'zlashtirish dinamikasi (mln. AQSH dollarida).

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida 2013-yilda iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritish ko'zda tutilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, bu mablag'ning 2 milliard 180 million AQSH dollaridan ortig'i yoki 72 foizdan ziyodini to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari tashkil etadi.

2013-yil davomida jalb qilinishi rejalashtirilayotgan xorijiy investitsiya va kreditlar (million AQSH doll.) bo'yicha ma'lumotlarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

13-jadval

2013-yil davomida jalb qilinishi rejalashtirilayotgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Ko'rsatkichlar	2013-yil
Jalb qilinishi ko'zda tutilgan xorijiy investitsiyalar umumiy miqdori	3016,7
Davlat investitsiya dasturi doirasida	3233,8
Hududiy investitsiya dasturlari doirasida	490,0
shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar	2180,2

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, ularni o‘z mablag‘larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi va tartibga solinishi uchun 50 dan ziyod tegishli me’yoriy hujjatlar qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni keltirib o‘tamiz.

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog‘liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta’minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi.



11-rasm. O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar

2012-yilgi Hududiy investitsiya Dasturi doirasida xorijiy investitsiya ishtirokidagi loyihalar bo‘yicha ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz. Unga ko‘ra:

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda viloyat hokimliklarining dolzarb vazifalari:

– Hududiy investitsiya Dasturlarining amalga oshirilishi yuzasidan samarali va tizimli monitoring o‘tkazish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2008-yildagi PQ-927-sonli qarorining 1 va 1a ilovalariga muvofiq qo‘shimcha loyiha investitsion takliflari va pasportlarini doimiy ravishda ishlab chiqish bo‘yicha ishlar olib borish;

14-jadval

2012-yilgi Hududiy investitsiya Dasturi doirasida xorijiy investitsiya ishtirokidagi loyihalar

Hududlar nomi	Loyihalar soni (dona)	Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar (mln.doll.)
Respublika bo‘yicha	474	441,1
Toshkent shahri	221	183,1
Toshkent viloyati	64	75,5
Farg‘ona viloyati	35	31,0
Qashqadaryo viloyati	10	25,9
Andijon viloyati	27	24,9
Sirdaryo viloyati	13	23,7
Samarqand viloyati	24	15,8
Surxondaryo viloyati	13	13,8
Namangan viloyati	14	12,5
Qoraqalpog‘iston Res.	12	10,2
Xorazm viloyati	6	8,9
Navoiy viloyati	11	7,1
Buxoro viloyati	12	4,8
Jizzax viloyati	12	4,0

– Investitsion infrastruktura mavjud hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil qilishga alohida e’tibor qaratish;

– bo‘sh turgan bino va inshootlarni xatlovdan o‘tkazish va ular negizida, xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda, zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish yuzasidan investitsion takliflar ishlab chiqish;

– Markaziy bank va masalaga aloqador idoralar bilan birgalikda ishbilarmon doira vakillarini mavjud xorijiy kredit liniyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish yuzasidan seminarlar tashkil etish;

– viloyatning investitsion salohiyatini keng namoyish etuvchi taqdimot materiallarini tayyorlash va ularni doimiy ravishda yangilab borish;

– «Viloyat investitsiya salohiyati» veb-portalini tashkil etish va undagi ma’lumotlarni doimiy ravishda yangilab borish ko‘zda tutilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasi tushunchasi va mohiyatini tushuntiring.
2. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasining bozor munosabatlari tizimidagi o‘rni qanday?
3. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy xususiyatlari nimada?
4. Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning roli qanday?
5. Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarining roli qanday?
6. Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy sektorning rolini gapirib bering.
7. Mintaqa ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o‘rni qanday?
8. O‘zbekiston hududida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning qanday yo‘nalishlari mavjud?
9. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini qanday tushunasiz?

12-BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI SALOHIYATI VA SAMARADORLIGI

12.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi salohiyatining ahamiyati

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarining rivojlanish darajasi ishlab chiqarish salohiyatini, ya'ni tarmoqlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha muayyan ish hajmini bajarish imkoniyatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarish salohiyati – bu ishlab chiqarish tizimlarining mavjud resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi bilan shartlangan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi umumiy qobiliyati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi salohiyati – bu ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjud resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi asosida sanoatni rivojlantirishni ta'minlashdagi umumiy qobiliyati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishining umumiy salohiyati bir qancha xususiy salohiyatlardan tarkib topgan:

- Moliyaviy salohiyat;
- Axborot salohiyati;
- Energetika salohiyati;
- Transport salohiyati;
- Kommunal xo'jaligi salohiyati;
- Tadbirkorlik xizmatlari sohasi salohiyati.

Moliyaviy salohiyat – bu davlatning jami moliyaviy imkoniyatlari bo'lib, ular davlatning ma'muriy ta'siri ostida moliyaviy resurslarga aylantiriladi va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Axborot salohiyatining tashkil etuvchilariga korxonalar tomonidan korporativ axborot tizimlari, internet va telefoniya xizmatlaridan foydalanish salohiyatlari kiradi.

Energetika salohiyati elektr energetikasi, gaz va neft ta'minoti ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

Transport salohiyatini baholash ko'rsatkichlariga avtomobil va temiryo'llari, quvur transporti, shuningdek, havo aloqasi va dengiz yo'llarining uzunligi va yuk tashish quvvatlari kiradi.

Kommunal xo'jaligi salohiyati sanoatning issiq va sovuq suv, kanalizatsiya, siqiq havo va mavsumiy isitish bilan ta'minlanganligi orqali aniqlanadi.

Tadbirkorlik xizmatlari sohasi salohiyati deyilganda ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish xizmatlarining buyurtmachilari va ijrochilari o'rtasidagi talab va taklifning muvozanatlashgani tushuniladi.

12.2. Ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi

Har qanday jamiyatda ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi.

Samara bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

Iqtisodiy samaradorlik cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bo'lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda birmuncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga ol-

gan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi — ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyatining natijaliligi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining erishgan pog'onasini va ulardan foydalanish darajasini ifoda qiluvchi xo'jalik faoliyat natijalari va jonli hamda moddiylashtirilgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbatdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omillari:

1. Fan va texnika taraqqiyoti.
2. Tejamkorlik rejimi.
3. Iqtisodiyotning strukturasini o'zgartirish.
4. Tashkiliy-iqtisodiy omillar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri — bu fan va texnika taraqqiyotidir. Oxirgi vaqtlargacha fan-texnika taraqqiyoti evolutsion tarzda rivojlanib keldi. Natijada amaldagi texnologiyalar takomillashib, mashina va uskunalar qisman zamonaviylashdi. Bunday natija sezilarli, lekin kutilganidek emas edi. Erkin bozor munosabatlarini shakllantirishning hozirgi sharoitida fan va texnikaning oxirgi yutuqlari asosida ishlab chiqarish infratuzilmasining barcha tarmoqlarida yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan revolutsion va sifatiy o'zgarishlarni amalga oshirish lozimdir.

Fan va texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

— ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish: yuqori bosim va ta'sirchan kuchlar qo'llaniladigan membranali, lazerli, plazmali texnologiyalar va boshqalar;

– ishlab chiqarishni avtomatlashtirish – yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi robot texnikalar, rotorli va rotor-konveyer liniyalar, moslanuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish;

– metall mahsulotlar, plastik qorishma, kompozitlar, metall kukunlar, keramik va boshqa progressiv tuzilishli materiallarning yangi shakllarini yaratish va undan foydalanish.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshiruvchi yana bir muhim omil bu – tejamkorlik rejimi hisoblanadi. Resurslarni tejash yonilg'i, energiya, xomashyo va materiallarga bo'lgan o'sib boruvchi talabni qondirishining asosiy manbaiga aylanadi. Bu muammolarni yechishda ishlab chiqarish infratuzilmasi muhim o'rin egallaydi. Bu tarmoqda xom ashyo va yonilg'i-energetik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan mashina va uskunalarni joriy qilishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshiruvchi omillardan biri – iqtisodiyotning strukturasini takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyotini ta'minlaydigan va ijtimoiy muammolarni samarali hal qiladigan tarmoqlarni nisbatan yuqori darajada rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Investitsion siyosat kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Bunda mablag'lar fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishni ta'minlovchi tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlanadi. Mablag'larning katta qismi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga va rekonstruksiya qilishga yo'naltiriladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirishda asosiy o'rinlardan birini (boshqaruvni o'z ichiga oluvchi) tashkiliy-iqtisodiy omillar egallaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarish masshtabining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan uning roli ortib boradi. Eng avvalo, bu ishlab chiqarish infratuzilmasining ratsional shakllarini rivojlantirish va takomillashtirish demakdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasida samaradorlik tushunchasi nima va uning mohiyati qanday?
2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omillarini sanab o'ting.
3. Fan va texnika taraqqiyotini ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omili sifatida izohlang.
4. Tejamkorlik rejimini ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omili sifatida izohlang.
5. Iqtisodiyot strukturasini takomillashtirishni ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omili sifatida izohlang.
6. Tashkiliy-iqtisodiy omillarni ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omili sifatida izohlang.
7. Infratuzilma korxonasining qanday rentabellik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari mavjud?
8. Infratuzilma korxonasining qanday likvidlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari mavjud?
9. Infratuzilma korxonasining qanday moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari mavjud?

13-BOB. ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

13.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishini baholash ko‘rsatkichlari

Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagi talablarga javob beradigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim:

– ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarining bazisli tarmoqlar faoliyatiga ta’sirini aks ettirishi lozim;

– ko‘rsatkichlar tizimi ierarxik pog‘onaga ega bo‘lishi lozim;

– ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanish darajasi baholovchi umumiy ko‘rsatkichlar tizimi alohida tarmoqlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini xarakterlaydigan xususiy ko‘rsatkichlar tizimi bilan to‘ldirilishi lozim;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanish darajasini baholash kompleks xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining ishlab chiqarish salohiyatini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar:

– tarmoqda band bo‘lgan sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining soni (kishi);

– tarmoqdagi asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati (ming so‘m);

– tarmoqning ishlab chiqarish quvvati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining ishlab chiqarish salohiyatining sifat darajasini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar:

– ilg‘or jihozlar guruhining solishtirma og‘irligi (%);

– jihozlarning yosh tarkibi (yil);

– jihozlarning eskirish darajasi (%);

– sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining malaka darajasi;

– mehnatning fond, energiya, elektr bilan qurollanganligi darajasi (%);

– mehnatning mexanizatsiyalashuv darajasi (%).

Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar:

– ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti;

– sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining mehnat unumdorligi;

– fond qaytimi;

– fond sig'imi;

– xizmat ko'rsatishning to'liqlik koeffitsienti.

13.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasida mehnat va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini baholash

Mehnat va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari quyidagilar:

- Mehnat unumdorligi
- Mehnat sarfi
- Fond qaytimi
- Fond sig'imi

Mehnat unumdorligi – bu bir xodim tomonidan ish vaqti birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga ish vaqtining miqdori bilan o'lchangan jonli mehnat sarfining samaradorligidir.

$MU = Q / Ch$

Bu yerda:

MU – mehnat unumdorligi;

Q – mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

Ch – ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mehnat sarfi mahsulot birligiga sarflangan vaqtni aniqlaydi:

$MS = T / Q$

Bu yerda:

MS – mehnat sarfi;

T – ishlangan vaqt;

Q – mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida.

Mehnat unumdorligining quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:

1. Bir ishchining o‘rtacha yillik ishlab chiqarishi (mahsulot hajmini ishlovchilarning o‘rtacha ro‘yxat soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi).

2. Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ishlab chiqarish (mahsulot hajmini ishchilarning o‘rtacha ro‘yxat soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi).

3. Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha kunlik ishlab chiqarish (bir kunlik mahsulot hajmini barcha ishchilar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi); bitta ishchiga bir soatga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarish (bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini barcha ishchilar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi).

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig‘imi va fond qaytimi ko‘rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxona asosiy fondlarining bir birligiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatsa, fond sig‘imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo‘lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi asosiy fondlarning bir so‘miga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (summasi)ni ko‘rsatadi.

$$Fq = Q / F$$

Bu yerda:

Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko‘rinishida;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

Fondning sig‘imi – bu fond qaytimining teskari miqdori bo‘lib, mahsulot birligiga asosiy fondlarning qanday summasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi:

$$Fs = F / Q$$

Bu yerda:

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko‘rinishida.

Korxonaning xo‘jalik faoliyati va uni rivojlantirish ham o‘zining mablag‘lari, ham qarzga olingan mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan hollarda korxonaning tashqi qarz

mablag'lariga moliyaviy qaram emasligi va korxonaning to'lov qobiliyati muhim tahliliy sifatga ega bo'ladi, bu esa ko'p jihatdan korxonani moliyalashtirish manbalari tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Korxona moliyaviy faoliyatini baholash ko'rsatkichlari quyidagilar:

Rentabellik ko'rsatkichlari:

- Aktivlar rentabelligi;
- Xususiy kapital rentabelligi;
- Aylanma kapital rentabelligi;
- Asosiy vositalar rentabelligi;
- Umumiy faoliyat rentabelligi.

Likvidlik va to'lovga qobillik ko'rsatkichlari:

- Tez likvidlik koeffitsienti;
- Joriy likvidlik (qoplash) koeffitsienti;
- Mutlaq likvidlik koeffitsienti.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari:

- Xususiy kapital konsentratsiyasi (avtonomiya) koeffitsienti;
- Moliyaviy bog'liqlik koeffitsienti;
- Xususiy kapitalning manyovrligi koeffitsienti.

Rentabellik ko'rsatkichlari:

Aktivlar rentabelligi = Sof foyda / Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati

Xususiy kapital rentabelligi = Sof foyda / Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati

Aylanma kapital rentabelligi = Sof soyda / Joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati

Asosiy vositalar rentabelligi = Sof foyda / Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati

Umumiy faoliyat rentabelligi = Sof foyda / Sotishdan tushgan tushum

Likvidlik va to'lovga qobillik ko'rsatkichlari:

Tez likvidlik koeffitsienti = (pul mablag'lari + qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar + debitorlar) / joriy majburiyatlar

Joriy likvidlik (qoplash) koeffitsienti = joriy aktivlar / joriy majburiyatlar

Mutlaq likvidlik koeffitsienti = Pul mablag'lari / joriy majburiyatlar

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari:

Xususiy kapital konsentratsiyasi (avtonomiya) koeffitsienti = Xususiy kapital / Aktivlarning jami qiymati

Moliyaviy bog'liqlik koeffitsienti = Aktivlarning jami qiymati / Xususiy kapital

Xususiy kapitalning manyovrligi koeffitsienti = Xususiy aylanma mablag'lar (ya'ni: joriy aktivlar – joriy majburiyatlar) / Xususiy kapital.

Moliyaviy mustaqillikni ta'minlash uchun korxona yetarli darajada o'z kapitaliga ega bo'lishi lozim. Buning uchun korxonaning rentabellik bilan ishlashi talab qilinadi. Bu maqsadni ta'minlash uchun pul mablag'lari oqimining kirib kelishi va chiqishini samarali boshqarish, belgilangan faoliyat yo'nalishidan chetga chiqishga tezkorlik bilan javob qaytarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasini baholashda ishlab chiqarish salohiyati nimani anglatadi?
2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishining umumiy salohiyati va uning tarkibini gapirib bering.
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanish darajasini baholashning qanday ko'rsatkichlari mavjud?
4. Ishlab chiqarish infratuzilmasida mehnat va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini baholashning qanday ko'rsatkichlarini bilasiz?
5. Infratuzilma korxonasining moliyaviy faoliyatini baholashning qanday ko'rsatkichlari mavjud?

14-BOB. INFRATUZILMA SHAKLLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI

14.1. Xorijiy mamlakatlarda infratuzilma tushunchasiga ilmiy qarashlar

Bugungi kunga qadar xorijiy mamlakatlarda infratuzilma tushunchasiga turlicha ta'riflar shakllanib kelgan.

Oxford English Dictionary (2009) da:

Infratuzilma (infrastructure) – bu jamiyat yoki korxonaning faoliyati uchun zarur bo'lgan asosiy jismoniy va tashkiliy tuzilmalar.

Artur Sullivan va Stiven Sheffrinning «Iqtisodiyot tamoyillari harakatda» («Economics: principles in Action») kitobida (2003):

Infratuzilma – bu iqtisodiyotni o'z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan xizmatlar va obyektlar.

Infratuzilma iborasi jamiyatni ta'minlab turadigan yo'llar, ko'priklar, suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektr ta'minoti, telekommunikatsiya kabi texnik inshootlar sifatida qaraladi. Shuning uchun, Jeffri Fulmer «Infratuzilma so'zi nimani bildiradi?» nomli maqolasida uning quyidagi ta'rifini keltirgan (2009):

Infratuzilma – bu jamiyatning turmush sharoitini qo'llab-quvvatlash va yaxshilash uchun muhim bo'lgan tovar va xizmatlarni ta'minlab beradigan o'zaro bog'liq tizimlarning jismoniy komponentlari.

Etymology Dictionaryga muvofiq «infratuzilma» so'zi ingliz tilida 1927-yildan buyon ishlatilib kelingan va dastlab «har qanday jarayon yoki tizimning asosini shakllantiradigan qurilmalar» ma'nosini bildirgan.

Xorijiy mamlakatlarda infratuzilma «qattiq» va «yumshoq» infratuzilma turlariga ajratiladi.

«Qattiq infratuzilma» deyilganda zamonaviy sanoatlashgan davlatning faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan yirik jismoniy tarmoqlar tushuniladi.

«Yumshoq infratuzilma» deyilganda esa mamlakatning iqtisodiy, sog'liqni saqlash, madaniy va ijtimoiy standartlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan barcha institutlar tushuniladi (mas. moliyaviy tizim, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, davlat tizimi, huquqni himoyalash tizimi va h.k.).

Qattiq infratuzilma turlari:

Transport infratuzilmasi:

– Yo'l va magistral yo'llar tarmog'i (sh.j. ko'priklar, tunnellar, yo'l belgilari, yo'l elektr tizimlari va h.k.);

– Ommaviy transport tizimi (metro, avtobus, tramvay, trolleybus);

– Temiryo'l (sh.j. temiryo'l inshootlari, stansiyalari, signal va aloqa tizimlari);

– Kanallar va kema suv yo'llari;

– Dengiz portlari va mayaklar;

– Aeroport, sh.j. havo navigatsiya tizimlari;

– Velosiped yo'laklari va trotuarlar;

– Parom tashuvlari.

Energetika infratuzilmasi:

– Elektr energiyasi tarmog'i (sh.j. elektr stansiyalar);

– Tabiiy gaz quvurlari;

– Neft quvurlari;

– Maxsus ko'mir tashish inshootlari;

– Bug' va issiq suv ishlab chiqarish va ta'minlash tarmog'i;

– Transport vositalarini elektr bilan ta'minlash tarmoqlari.

Suv resurslaridan foydalanish infratuzilmasi:

– Ichimlik suvi ta'minoti;

– Kanalizatsiya va chiqindi suvlarini yo'qotish;

– Drenaj tizimi;

– Asosiy irrigatsiya tizimlari;

– Suv toshqinini nazorat qilish tizimlari (damba, nasos stansiyalari);

– Qorlarni tozalash tizimi;

– Qirg'oq suvlarini boshqarish tizimi.

Kommunikatsiya infratuzilmasi:

– Pochta xizmati;
– Telefon tarmog'i;
– Mobil telefon tarmog'i;
– Televidenie va radio uzatish stansiyalari;
– Kabel televideniesi;
– Internet tarmog'i;
– Kommunikatsiya yo'ldoshlari;
– Dengizosti kabellari;
– Asosiy xususiy, davlat va maxsus telekommunikatsiya tarmoqlari;
– Pnevmatik pochta tarmog'i.

Qattiq chiqindilarni boshqarish infratuzilmasi:

– Mahalliy va qayta ishlanadigan chiqindilarni to'plash;
– Qattiq chiqindilarni saqlash joyi;
– Qattiq chiqindilarni yoqish inshootlari;
– Ishlab chiqarish chiqindilarini utilizatsiya inshootlari;
– Xavfli chiqindilarni yo'qotish inshootlari.

Yerni monitoring qilish va o'lchash tarmoqlari:

– Meteorologik nazorat tarmoqlari;
– Suv ko'tarilishi va chekinishini nazorat qilish tarmoqlari;
– Suv oqimi tezligini nazorat qilish tarmoqlari;
– Seysmografiya tarmoqlari;
– Yerni yo'ldoshdan kuzatish tizimlari;
– Geodeziya o'lchov tizimlari;
– Global pozitsiyalash tizimi (GPS);
– Geoaxborot infratuzilmasi (GIS);
– Yumshoq infratuzilma turlari.

Boshqaruv infratuzilmasi:

– Davlat va huquqni himoyalash tizimi;
– Tez yordam va avariya xizmatlari (politsiya, o't o'chirish, tibbiy tez yordam, dispetcherlik xizmatlari);
– Harbiy infratuzilma (harbiy bazalar, buyruq markazlari, kommunikatsiya inshootlari, strategik rezervlar).

Iqtisodiy infratuzilma:

– Moliyaviy tizim (sh.j. bank tizimi, moliyaviy institutlar, to'lov tizimlari, birjalar);

– Asosiy biznes logistika inshootlari (omborxonalar, yuklarni boshqarish tizimlari);

– Ishlab chiqarish infratuzilmasi (sh.j. sanoat parklari, maxsus iqtisodiy zonalar, standartizatsiya tashkilotlari);

– Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik infratuzilmasi.

Ijtimoiy infratuzilma:

– Sog'liqni saqlash tizimi (sh.j. kasalxonalar, klinikalar, sog'liqni sug'urtalash, dori vositalarini tartibga solish va sinovdan o'tkazish tizimi va h.k.);

– Ta'lim va tadqiqot tizimi (sh.j. maktablar, universitetlar, maxsus kollejlar, tadqiqot institutlari va h.k.);

– Ijtimoiy ta'minot tizimlari (sh.j. davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va xususiy homiylik).

Madaniy, sport va hordiq infratuzilmasi:

– Sport va hordiq infratuzilmasi (sh.j. istirohat bog'lari, sport inshootlari, sport uyushmalari va h.k.);

– Madaniy infratuzilma (sh.j. konsert zallari, muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, studiyalar va h.k.);

– Biznes sayohat va turizm infratuzilmasi (sh.j. sun'iy va tabiiy attratsionlar, konferensiya markazlari, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa servislar)dan iborat.

14.2. Rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma aktivlarini boshqarish tajribasi

Infratuzilma aktivlarini boshqarish (Infrastructure Asset Management) – bu jamiyat infratuzilmasi aktivlarini (suvni tozalash inshootlari, kanalizatsiya tarmoqlari, yo'llar, kommunal tizimlari, ko'priklar va temiryo'llar) ta'minlab turishda qo'llaniladigan strategiyalarning integratsiyalashgan majmui.

Infratuzilma aktivlarini boshqarish jarayonida asosiy e'tibor infratuzilma inshootlari hayot siklining so'nggi bosqichlari-

ga, xususan, ularni ta'minlab turish, holatini tiklash va o'rnini almashtirishga qaratilgan. Infratuzilma aktivlarini boshqarish moliyaviy emas, balki ko'proq jismoniy aktivlarni (ya'ni mulklarni) boshqarishni nazarda tutadi.

Infratuzilma aktivlarini boshqarishda infratuzilmani ta'minlab turish strategiyalarini tashkil etish va amalga oshirishda asosan kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Bunda uzoq muddatli infratuzilma aktivlarining xizmat muddatini muhofaza qilish va uzaytirish kabi asosiy maqsad qo'yiladi. Bu esa jamiyat turmush sifatini hamda iqtisodiyot samaradorligini ta'minlab turishda muhim asosiy komponent bo'lib hisoblanadi.



12-rasm. Infratuzilma aktivlarini boshqarish modeli

Infratuzilma aktivlarini boshqarishdagi muhim jarayonlar va vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Individual aktivlar (inventarlar) bo‘yicha sistematik qaydlarni olib borish (mas. sotib olish xarajatlari, boshlang‘ich xizmat muddati, qoldiq foydali xizmat muddati, jismoniy holati, remont va ta’minotning izchilligi).

Aktivlarning butun qismini reja bo‘yicha saqlash, remont va almashtirish orqali ta’minlab turish uchun muayyan dasturni ishlab chiqish.

Infratuzilma aktivlarini boshqarishning asosiy komponentlari:

1. Xizmat qilish standartini belgilash:

– aktivlar qanday funksiyalarni bajarishi bo‘yicha o‘lchanadigan spetsifikatsiyalarni o‘rnatish;

– aktivlar holatining eng minimal darajasini o‘rnatish.

2. Aktivlarni boshqarish uchun aktivlarning butun xizmat muddati mobaynidan ketadigan xarajatlarni belgilash.

3. Aktivlarni boshqarish rejasini ishlab chiqishdan iborat.

14.3. Jahon raqobatbardoshlik indeksi va unda infratuzilma rivojlanishi ko‘rsatkichlari

Jahon raqobatbardoshlik indeksi Jahon iqtisodiy forumining har yilgi hisobotida chop etib boriladi. Raqobatbardoshlik indeksi mamlakatlarning o‘z fuqarolari farovonligi yuqori darajasini ta’minlab berish qobiliyati baholanadi. Ushbu indeks birinchi navbatda mamlakat o‘zida mavjud resurslarini qanchalik samarali ishlatishiga bog‘liqdir. Bunda erkin bozor sharoitida turmush darajasini ta’minlash uchun, qoida tariqasida, mamlakatlarga doimiy ravishda mehnat unumdorligini va tovarlar/xizmatlar sifatini oshirib borish talab etiladi.

Jahon raqobatbardoshlik indeksi quyidagi 12 ko‘rsatkichlar guruhini o‘z ichiga oladi:

1. Xususiy institutlar.
2. Infratuzilma.

3. Barqaror makroiqtisodiy muhit.
4. Sog'liq-salomatlik va boshlang'ich ta'lim.
5. Oliy ta'lim va trening.
6. Samarali tovar bozorlari.
7. Samarali mehnat bozorlari.
8. Moliya bozorlarining rivojlanganligi.
9. Texnologik tayyorgarlik.
10. Bozor hajmi.
11. Biznesning zamon talablariga muvofiqligi.
12. Innovatsiya.

Infratuzilma rivojlanganlik ko'rsatkichlariga quyidagi to'qqiz ko'rsatkichilar kiradi:

1. Umumiy infratuzilmaning sifati.
2. Yo'llarning sifati.
3. Temiryo'l infratuzilmasining sifati.
4. Port infratuzilmasining sifati.
5. Havo transporti infratuzilmasining sifati.
6. Avialiniyalarning mavjud uzunligi.
7. Elektr ta'minotining sifati.
8. Mobil telefon aloqasi.
9. Statsionar telefon aloqasidan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1. Xorijiy mamlakatlarda infratuzilma tushunchasiga bo'lgan qanday qarashlar mavjud?

2. Xorijiy mamlakatlarda transport infratuzilmasini izohlab bering.

3. Xorijiy mamlakatlarda energetika infratuzilmasi to'g'risida gapirib bering.

4. Xorijiy mamlakatlarda suv resurslaridan foydalanish infratuzilmasini tavsiflab bering.

5. Xorijiy mamlakatlarda kommunikatsiya infratuzilmasi xususida gapirib bering.

6. Xorijiy mamlakatlarda qattiq chiqindilarni boshqarish infratuzilmasi haqida so‘zlab bering.

7. Xorijiy mamlakatlarda yerni monitoring qilish va o‘lchash infratuzilmasi nima ekanligini izohlang.

8. Xorijiy mamlakatlarda boshqaruv infratuzilmasini tavsiflab bering.

9. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy infratuzilmani tushuntiring.

10. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy infratuzilma xususida gapirib bering.

11. Xorijiy mamlakatlarda madaniy, sport va hordiq infratuzilmasini izohlab chiqing.

12. Rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma aktivlarini boshqarish tajribasi to‘g‘risida nima deya olasiz?

13. Jahon raqobatbardoshlik indeksi nima va unda infratuzilma rivojlanishining qanday ko‘rsatkichlari mavjud?

GLOSSARIY

Avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar — yo'l harakatining ishtirokchilari bo'lgan yoki ajratilgan mintaqa hamda yo'l bo'yi mintaqasi doiralarida belgilangan tartibda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Avtomobil transporti — tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochtani (bundan keyin — yo'lovchilar, bagaj va yuklar deb yuritiladi) avtomobilda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui.

Avtotransport vositalari — yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Adresat — pochta jo'natmasi, pul mablag'larining pochta o'tkazmasi, telegraf xabarlari va boshqa xabarlar yo'llangan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Axborot infratuzilmasi — bu mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o'zaro faoliyatini ta'minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar tizimidir, mamlakat axborot makoni hamda aloqa vositalarini faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalar tizimi.

Axborot resursi — axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi.

Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori — axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi — qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Yozma xat-xabarlar — oddiy, buyurtma va qimmatli xatlar, banderollar, oddiy va buyurtma pochta varaqchalari hamda sekogrammalari (ko'zi ojizlar uchun), shuningdek, mayda paketlar.

Yoqilg'i-energetika balansi (YEB) – bu turli xildagi yoqilg'ini qazib chiqarish va elektroenergiyani ishlab chiqarish (kirim) hamda ularni xalq xo'jaligida ishlatish (chiqim) o'rtasidagi nisbatdir. YEB ni hisob chiqish uchun, har xil issiqlik chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan turli xildagi yoqilg'i shartli yoqilg'iga o'tkaziladi, ya'ni ularning 1 kg ni yonishi 7000 kkal ga teng.

Yoqilg'i-energetika majmuasi (YEM) – bu yoqilg'i-energetika resurslarini qazib chiqarish, ularni qayta ishlash, transportda tashish, taqsimlash va iste'mol qilish bo'yicha ishlab chiqarish, jarayonlar, moddiy qurilmalar majmuini o'z ichiga olgan murakkab tarmoqlararo tizimdir.

Idoraviy telekommunikatsiyalar tarmoqlari – yuridik va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish va maxsus ehtiyojlari uchun mo'ljallangan, ularning ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan foydalaniladigan telekommunikatsiyalar tarmoqlari.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o'z o'rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo'lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Iqtisodiy samaradorlik – cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bo'lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

Investitsiya fondi – investorlarning pul mablag'larini jalb qilish va ularni qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlarga, boshqa investitsiya aktivlariga, shuningdek, banklardagi hisobvaraqlarga va omonatlarga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs. Investitsiya fondlari kollektiv investitsiyalashni amalga oshiradi va odatda aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009–2012-yillarga mo'ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui o'z aksini topgan.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Ishlab chiqarish salohiyati – bu ishlab chiqarish tizimlarining mavjud resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi bilan shartlangan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi umumiy qobiliyati.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarib; zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan almashtirish; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Yo'l bo'yi mintaqasi — ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta'minlash uchun yerdan foydalanishning alohida shartlari belgilanadigan yer uchastkasi.

Kapital xarajatlar — asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zaxiralarning o'sishi.

Kasaba uyushmasi — ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

Kichik biznes subyektlari — korxona ko'lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lar miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Kichik korxonalar — mustaqil xo'jalik faoliyatini olib boruvchi, o'z balansiga bo'lgan, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan foydasini o'zi taqsimlaydigan korxona.

Kooperatsiya aloqalari — turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish — alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab

chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Korxonaning innovatsion salohiyati – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyatining ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing kompaniyasi – lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi yuridik shaxs.

Lizing obyektlari – tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk.

Lizing subyektlari – lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi.

Lombard – bu ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy faoliyat turi bo'lib aholining ko'char mulk zalogi ostida va boshqa buyumlarni saqlash asosida ularga qisqa muddatli qarzlarni berish hisoblanadi.

Magistral elektr tarmoqlari – elektr energiyasining mintaqalararo va (yoki) davlatlararo uzatilishini ta'minlash uchun foydalaniladigan elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari majmui.

Maxsus mo'ljallangan pochta aloqasi – pochta aloqasi sohasida maxsus vakolatli organning maxsus aloqasi, davlat feldhegerlik

aloqasi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining feldhegerlik-pochta aloqasiga bo'linadi.

Elektr energetikasi – elektr energiyasini hosil qilish, uzatish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish sohasi.

Elektr energetikasi obyektlari – elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, shuningdek, elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari.

Elektr energiyasi – bir vaqtning o'zida hosil qilinishi va iste'mol qilinishi bilan tavsiflanadigan alohida turdagi tovar.

Elektr energiyasi iste'molchisi (iste'molchi) – elektr ta'minoti shartnomasiga muvofiq elektr energiyasidan ishlab chiqarish va (yoki) maishiy ehtiyojlar uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar – yagona elektr energetikasi tizimiga ulangan statsionar elektr stansiyalari (issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, gidroelektrostansiyalar, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan boshqa elektr stansiyalari).

Erkin industrial-iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

Yumshoq infratuzilma – mamlakatning iqtisodiy, sog'liqni saqlash, madaniy va ijtimoiy standartlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan barcha institutlar (mas. moliyaviy tizim, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, davlat tizimi, huquqni himoyalash tizimi va h.k.).

Yagona elektr energetikasi tizimi – elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, magistral elektr tarmoqlari, hududiy elektr tarmoqlari majmui va ularning tezkor-dispetcherlik boshqaruvi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent. 2012 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi havo Kodeksi. 1993-yil 7-may.

3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasining «Aloqa to'g'risida»gi qonuni, 1992-yil 13-yanvar.

5. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni, 1992-yil 2-iyul.

6. O'zbekiston Respublikasining «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonuni, 1992-yil 2-iyul.

7. O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi qonuni, 1996-yil 25-aprel.

8. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni, 1996-yil 25-aprel.

9. O'zbekiston Respublikasining «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonuni, 1997-yil 25-aprel.

10. O'zbekiston Respublikasining «Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida»gi qonuni, 1997-yil 25-aprel.

11. O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi qonuni, 1998-yil 29-avgust.

12. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonuni, 1999-yil 14-aprel.

13. O'zbekiston Respublikasining «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi qonuni, 1999-yil 15-aprel.

14. O'zbekiston Respublikasining «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi qonuni, 1999-yil 20-avgust.

15. O'zbekiston Respublikasining «Pochta aloqasi to'g'risida»gi qonuni, 2000-yil 31-avgust.

16. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuni, 2006-yil 15-sentabr.

17. O‘zbekiston Respublikasining «Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida»gi qonuni, 2006-yil 20-sentabr.

18. O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi qonuni, 2007-yil 2-oktabr.

19. O‘zbekiston Respublikasining «Elektr energetikasi to‘g‘risida»gi qonuni, 2009-yil 30-sentabr.

20. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni, 2012-yil 17-dekabr.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006-yil 25-oktabrdagi PQ-499-sonli qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2008-yil 21-maydagi PQ-872-sonli qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navoiy shahar aeroporti bazasida xalqaro intermodal logistika markazini tashkil etish choralari to‘g‘risida»gi 2008-yil 31-dekabrdagi PQ-1027-sonli qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2009-yil 20-yanvardagi PQ-1041-sonli qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2009–2014-yillarda O‘zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2009-yil 22-apreldagi PQ-1103-sonli qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishi rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida»gi 2010-yil 21-dekabrdagi PQ-1446-sonli qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fond bozorini yanada rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2012-yil 19-martdagi PQ-1727-sonli qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2012–2014-yillarda O‘z.R. da AKT ni yanada joriy qilish va rivojlantirish Dasturi».

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2012–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi 2012-yil 10-maydagi PQ-1754-sonli qarori.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi 2012-yil 21-noyabrdagi PQ-1855-sonli qarori.

31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xususiy operatorlar faoliyatini tashkil etish va elektr energiyasi uchun o‘z vaqtida haq to‘lash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009-yil 4-iyuldagi 186-sonli qarori.

32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2013–2015-yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2012-yil 17-avgustdagi 247-sonli qarori.

33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2013-yil 26-fevraldagi 56-sonli qarori.

34. I.A. Karimov. «2012-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruza». «Xalq so‘zi», 2013-y. 19-yanvar. № 13 (5687).

35. I.A. Karimov. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: «O‘zbekiston», 2012. 36-b.

36. I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchi-

lik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2010. 56-b.

37. I.A. Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». – T.: O'zbekiston, 2005. 121–136-betlar.

38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: «Iqtisodiyot», 2010.

39. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – T: Iqtisodiyot. 2011. 377-b.

40. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi» NMIU, 2012. 282-b.

41. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish» mavzusidagi

ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi» NMIU. 2013. 360-bet.

42. A.E. Ishmuxamedov, B.Z. Kalanov, M.Z. Kalanova, M.N. Sunnatov. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. 380-b.

43. Sh. Shodmonov, U. G'ofurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: 2010. 568-bet.

44. B.Y. Xodiyev va boshq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. 112–267-betlar.

45. B.T. Salimov, N.I. O'roqov, Sh.I. Mustafaqulov, B.B. Salimov. Mikroiqtisodiyot: Ma'ruzalar matni. – T.: Moliya iqtisodchi, 2005. 228–360-betlar.

46. B.T. Salimov, Q.S. Hamdamov, N.I. O'raqov. Mikroiqtisodiyot: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Ijod dunyosi», 2003. 222–256-betlar.

www.stat.uz
www.uza.uz
www.ceep.uz
www.internetindicators.com
www.economyworld.com

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-bob. «ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI» FANINING MAZMUNI VA AHAMIYATI 5

1.1. «Ishlab chiqarish infratuzilmasi» fanining mazmuni 5
1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etishning ahamiyati 6

2-bob. MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNING ZARURLIGI 12

2.1. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi 12
2.2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarishning zarurligi 13
2.3. Ishlab chiqarishni rivojlantirish tamoyillari 17

3-bob. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINING XUSUSIYATLARI VA SHAKLLARI 19

3.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi xususiyatlari 19
3.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'g'inlari 23

4-bob. ISHLAB CHIQARISH IFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI 29

4.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning roli 29
4.2. Mahalliylashtirish dasturi va uning vazifalari 33
4.3. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda davlat siyosati. 37

5-bob. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI 41

5.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi islohotlar. 41
5.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tashkiliy-huquqiy asoslari 42

6-bob. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASIDA TRANSPORT XIZMATI 48

6.1. O'zbekiston transport infratuzilmasi mohiyati va zarurligi 48
6.2. O'zbekiston avtomobil yo'llari va ularni rivojlantirish 50
6.3. Transport infratuzilmasini tartibga solishning huquqiy asoslari. 57
6.4. O'zbekistonda logistika markazlari 59

7-bob. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASIDA ALOQA VA KOMMUNIKATSIYA 64

7.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasida aloqa va kommunikatsiyaning iqtisodiy mohiyati 64
7.2. Aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini tartibga solishning huquqiy asoslari 65
7.3. O'zbekistonda aloqa va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari 69

8-bob. ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA YOQILG'I-ENERGETIKA MAJMUASI. YOQILG'I-ENERGETIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI 79

8.1. Yoqilg'i-energetika majmuasi va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati 79
8.2. O'zbekiston Respublikasida davlatning yoqilg'i-energetika siyosati 80

8.3. O‘zbekiston yoqilg‘i sanoati va uni boshqarish 84
8.4. O‘zbekiston elektr sanoatini rivojlantirish. 87

9-bob. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI RIVOJLANISHIDA MOLIYA INSTITUTLARINING ROLI 93

9.1. Moliya institutlari, ularning funksiyalari va mohiyati 93
9.2. Sug‘urta kompaniyalari va ularning faoliyati 99
9.3. Investitsiya fondlari va fond birjalari 103
9.4. Lizing kompaniyalari va ularning moliya instituti sifatidagi faoliyati. 106
9.5. Xalqaro moliya institutlari va ularning infratuzilmani rivojlantirishdagi roli 108

10-bob. KASABA UYUSHMALARI. ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI 112

10.1. Kasaba uyushmalari: tushunchasi, vazifalari va tamoyillari 112
10.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishda kasaba uyushmalarining asosiy huquqlari 115

11-bob. MINTAQALARDA ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 119

11.1. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasi tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari 119
11.2. Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda davlat va mahalliy hokimiyat organlarining roli 121

12-bob. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI SALOHIYATI VA SAMARADORLIGI 127

12.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi salohiyatining ahamiyati 127
12.2. Ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi. 128

13-bob. ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH. 132

13.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari 132
13.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasida mehnat va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini baholash. 133

14-bob. INFRATUZILMA SHAKLLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI 137

14.1. Xorijiy mamlakatlarda infratuzilma tushunchasiga ilmiy qarashlar 137
14.2. Rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma aktivlarini boshqarish tajribasi 140
14.3. Jahon raqobatbardoshlik indeksi va unda infratuzilma rivojlanishi ko'rsatkichlari. 142

GLOSSARIY 145

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI. 151

Karlibayeva Raya Xo'jabayevna,
Tashxodjayev Muxtorxon Maxsudovich,
Ashurov Zufar Abdulloyevich

ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI

Darslik

Muharrir: *M. Tursunova*
Musahhih: *H. Zakirova*
Dizayner sahifalovchi: *A. Aubakirov*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 19.09.2014. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $^1/_{16}$. Bosma tabog'i 10,0. Nashr hisob tabog'i 10,5. Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 41.

«START-TRACK PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

14500-00
65,9(5У)
К238

ISBN 978-9943-391-79-6

O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI